

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI**

**«TASDIQLAYMAN»**  
**Sog‘liqni saqlash vazirligi**  
**Ilmiy texnik kengashi raisi**  
\_\_\_\_\_ **Sh.K.Atadjanov**  
«\_\_\_» \_\_\_\_\_ **2026 y.**

**Turdiyev Shavkat Ma‘mirovich**

**TIBBIY TA‘LIMDA TALABALAR PROFILAKTIK KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISHNING INTENSIV TEXNOLOGIYALARI (GIGIYENA  
FANINI O‘QITISH MISOLIDA)**  
**(Monografiya)**

**Farg‘ona 2026**

**Muallif:**

**Sh.M.Turdiyev** Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Magistratura va klinik ordinatura bo‘limi boshlig‘i, PhD, v.v.b. dotsent

**Taqrizchilar:**

**I.X.Iminahunova** Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti O‘zbek va xorijiy tillar kafedrasini mudiri, DSc, professor

**G.K.Obidova** Fargona davlat texnika universiteti dotsenti, O‘zbek tili va tillarni o‘rgatish kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari doktori ( DSc)

Mazkur monografiya tibbiy ta‘lim tizimida talabalar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlariga bag‘ishlangan. Tadqiqotda gigiyena fanini o‘qitish jarayonida intensiv ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish orqali bo‘lajak shifokorlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish masalalari yoritilgan.

Ishda profilaktik kompetentlikning mazmun-mohiyati, tarkibiy komponentlari hamda uni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, gigiyena fanini o‘qitishda zamonaviy didaktik yondashuvlar, interaktiv metodlar va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash samaradorligi tahlil qilingan.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan model asosida talabalarning profilaktik kompetentligini rivojlantirishning samarali mexanizmlari taklif etilgan hamda tajriba-sinov ishlari orqali ularning natijadorligi isbotlangan.

Monografiya natijalari tibbiy oliy ta‘lim muassasalarida gigiyena fanini o‘qitish jarayonini takomillashtirish, talabalar bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ularning amaliy faoliyatga tayyorgarligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu monografiya Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Pedagogika va psixologiya kafedrasini tomonidan 2026-yil № \_\_\_ - sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Ushbu monografiya Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Ilmiy Kengashi tomonidan 2026-yil № \_\_\_ - sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

**Ilmiy kengash kotibi**

**I.X.Iminahunova**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>4</b>
<b>I-BOB. TIBBIY TA'LIM TALABALARINING PROFILAKTIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA "GIGIYENA" FANINING O'RNI VA UNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI.....</b>	<b>10</b>
1.1.-§ Gigiyena fani orqali talabalar profilaktik kompetentligini oshirishning nazariy-metodologik asoslari.....	11
1.2.-§ Tibbiy ta'lim talabalarining profilaktik kompetentligini intensiv texnologiyalar orqali rivojlantirishning umumiy tendensiyalari va qonuniyatlari...	25
1.3.-§ Gigiyena fanining talabalar profilaktik kompetentligini oshirishdagi o'rni .....	42
Birinchi bob bo'yicha xulosalar .....	54
<b>II-BOB. TIBBIY TA'LIMDA INTENSIV TEXNOLOGIYALAR ORQALI TALABALARNING PROFILAKTIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI.....</b>	<b>55</b>
2.1.-§ Bo'lajak shifokorlar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy didaktik texnologiyalari va ularning afzalliklari.....	55
2.2.-§ Intensiv texnologiyalar va bo'lajak shifokorlarning profilaktik kompetentligini rivojlantirish jihatlari.....	71
2.3.-§ Gigiyena fanida "STIR (Strategy, Technology, Interactivity, Reflection)" intensiv modeli asosida talabalar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari.....	84
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	105
<b>III-BOB. BO'LAJAK SHIFOKORLARNING PROFILAKTIK KOMPETENTLIGINI GIGIYENA FANINING INTENSIV TEXNOLOGIYALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TAJRIBA – SINOV ISHLARI NATIJALARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....</b>	<b>107</b>
3.1.-§ Tibbiy ta'lim talabalarini profilaktik kompetentligini Gigiyena fani orqali rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari .....	107
3.2.-§ Gigiyena fanida talabalar profilaktik kompetentligini intensiv texnologiyalar asosida rivojlantirish natijalarining samaradorligi .....	119
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	138
<b>XULOSA .....</b>	<b>140</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>142</b>

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Monografiyaning mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda tibbiy profilaktika yo‘nalishi aholining umumiy salomatligini saqlash va kasalliklarning oldini olishda muhim o‘rin tutadigan yo‘nalish sifatida aholining sog‘lom turmush-tarzi olib borishi va profilaktik kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda zamonaviy tibbiyot yo‘nalishida profilaktik usullarni samarali qo‘llash talablari oshib bormoqda, chunki ushbu yondashuv kasalliklarni davolashdan ko‘ra, ularning oldini olishning ancha samarali ekanligini ko‘rsatmoqda. Shuning uchun, profilaktika sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash zamonaviy tibbiy ta‘limning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Profilaktik bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislar tayyorgarligi kasalliklarning barvaqt oldini olish, ularni kelib chiqish sabablarini aniqlash va jamoatchilik salomatligini yaxshilashdagi muvaffaqiyat uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu borada Shveysariyaning Shimoli-g‘arbiy amaliy fanlar universitetida (Northwestern University of Applied Sciences) tibbiy ta‘lim talabalariga nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradigan, ularning profilaktik kompetentligini va amaliyotda qo‘llanuvchanlik darajasini oshiradigan intensiv ta‘lim texnologiyalari bo‘yicha elektron platforma yaratilgan<sup>1</sup>. Shuningdek, Xitoyning Qingdao Universitetida sanitariya sohasida nazariya va amaliy mashg‘ulotlarni integratsiya qilish orqali profilaktikaga yo‘naltirilgan ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan<sup>2</sup>.

Sog‘lom turmush - tarzini olib borish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish bo‘lajak shifokorlarni jamiyatda samarali faoliyat yuritishi uchun tayyorlashga, shuningdek, Respublikamizda sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilishga, tizimni takomillashtirishga, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

---

<sup>1</sup> [https://www.fhnw.ch/de/studium/lifesciences/bachelor/bachelor-info-anlaesse?gad\\_source=1&gclid=Cj0KCQiA88a5BhDPArisAFj595ijBXpzOh9WKHQmokUaUXX3MZPfcP\\_HkMU\\_PLw5gzBtTckNXmEDsGn0aAseCEALw\\_wcB](https://www.fhnw.ch/de/studium/lifesciences/bachelor/bachelor-info-anlaesse?gad_source=1&gclid=Cj0KCQiA88a5BhDPArisAFj595ijBXpzOh9WKHQmokUaUXX3MZPfcP_HkMU_PLw5gzBtTckNXmEDsGn0aAseCEALw_wcB)

<sup>2</sup> <https://english.qdu.edu.cn/>

O‘zbekistonda 2025-yilga qadar sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, aholining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faolligi darajasini oshirish konsepsiyalari hamda sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tibbiyot sohasida profilaktika samaradorligini oshirishga bo‘lgan talab kun sayin ortib bormoqda, chunki kasalliklarning oldini olish, ularni barvaqt aniqlash va ularni kelib chiqish sabablarini yo‘q qilish tibbiy xizmatlar tizimida muhim o‘rin tutadi. Profilaktika kompetentligiga ega mutaxassislarni tayyorlash nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati va aholi salomatligini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020-yil 10-noyabrdagi “Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4887-sonli Qarori hamda tegishli huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Monografiyaning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Monografiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini rivojlantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Oliy tibbiy ta’lim jarayonida zamonaviy yondashuvlar asosida ta’lim berish, bo‘lajak shifokorlar profilaktik kompetentligini rivojlantirish masalalari bo‘yicha qator tadqiqot ishlari olib borilgan.

Aytish mumkinki, ushbu tadqiqot ishi orqali tibbiy ta’lim talabalarining profilaktik kompetentligini intensiv texnologiyalar orqali rivojlantirish mustaqil tadqiqot obyekti sifatida ilk marotaba tahlil qilinib, unga ilmiy baho berildi. Mazkur

mavzuning ba'zi jihatlarini ayrim jahon va mamlakatimiz olimlarning ilmiy asarlari, tadqiqotlari va maqolalarida yoritilgan bo'lib, ulardagi ma'lumotlar tibbiy ta'lim talabalarining intensiv texnologiyalar orqali profilaktik kompetensiyalari haqida xulosa chiqarish uchun yetarli emas. Ushbu yo'nalishning ayrim jihatlarini mahalliy pedagog - olimlar: M.Kadirova, N.Komilov, I.Iminaxunova, Sh.Po'latova, F.Muydinov, Sh. Ahmadaliyev, B.Haydarova va boshqalarning ilmiy ishlarida tahlil qilingan. Biroq, olib borilgan tadqiqotlar tibbiyot pedagogikasining ma'lum bir sohasida tahlil qilingan bo'lib, Gigiyena yo'nalishini tibbiy ta'limda o'qitish bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilinmagan. Shu ma'noda, ushbu dissertatsiya ishi mamlakatimizda tibbiy ta'lim talabalarining intensiv texnologiyalar orqali profilaktik kompetensiyasini rivojlantirish yo'nalishida kelajakda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar uchun yetarli asos bo'lib xizmat qiladi.

Gigiyena fanining ilmiy-pedagogik jihatdan ahamiyati va tibbiy ta'lim talabalarining bo'lajak mutaxassis sifatidagi profilaktik kompetentligiga xos fazilatlarga ega shaxs sifatida tayyorlash nuqtayi nazaridan nechog'lik muhimligi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan E.Yermakova, N.Lebedova, V.Sidorov, A.Pavlov, I.Fyodorova, S.Ivanova, O.Kuznetsova, M.Grishina, A.Belyayev, T. Zaytseva va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Mavzuga oid masalalar bo'yicha xorijlik olimlar D.Xoll, L.Grem, J.Smit, M.Uilyams, P.Kleyn, M.Maklud, L.Grin, S.Li, X.Vang, R.Chakrabarti, va boshqa olimlarning tadqiqotlarida atroflicha fikr yuritilgan.

Mavjud tadqiqotlar tahlili bugungi kunda intensiv texnologiyalar orqali tibbiy ta'lim talabalarining bo'lajak shifokor sifatidagi profilaktik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ayrim ilmiy-pedagogik muammolar mavjudligini ko'rsatdi:

– gigiyena fanini o'qitish jarayonida tibbiy ta'lim talabalarining profilaktik kompetentligini rivojlantirish va ushbu masalaning nazariy asoslari hamda amaliy metodik jihatlarining modernizatsiya qilinmaganligi;

– tibbiy ta'lim amaliyotida profilaktik kompetentligi yuqori bo'lgan shifokorlarga extiyojning mavjudligi, lekin ularni amaliyot shifokori etib tarbiyalash

uchun nazariyasi va amaliyotida yetarli darajada ilmiy-uslubiy ta'minotning mavjud emasligi;

Ushbu muammolarning mavjudligi bo'lajak shifokorlarning intensiv texnologiyalar orqali valelogik kompetentligini rivojlantirishda yangi metod va yo'nalishlar orqali o'qitish hamda oliy tibbiy ta'lim muassasalariga joriy qilish zaruratini yuzaga keltirdi.

**Monografiya maqsadi** – tibbiy profilaktika sohasida yuqori kompetentlikka ega tibbiy kadrlarni tayyorlash uchun samarali usullar va yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tibbiy ta'limda innovatsion va intensiv texnologiyalarni qo'llash orqali talabalarning profilaktik bilimlarini chuqurlashtirish, ularda mustaqil fikrlash va amaliyotda aniq qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish zarur.

**Monografiya vazifalari sifatida quyidagilar belgilab olindi:**

- tibbiy profilaktika kompetentligi tushunchasining tarkibiy qismlarini tahlil qilish va tibbiy ta'limda uning ahamiyatini aniqlash;

- profilaktika sohasida talabalarga ta'lim berishda intensiv texnologiyalarning turlari va ularning o'quv jarayonidagi samaradorligini tahlil qilish;

- zamonaviy ta'lim texnologiyalari, jumladan simulyatsiya, virtual amaliy mashg'ulotlar va keys tadqiqotlari kabi usullarni qo'llash orqali profilaktika kompetentligini rivojlantirish uchun samarali vositalarni tanlash;

- tibbiy profilaktika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning bilim, ko'nikma va kompetentlik darajasini baholash uchun mezonlarni aniqlash va ularning samaradorligini baholash;

- tibbiy ta'lim talabalarning profilaktik kompetentligini oshirishda intensiv ta'lim texnologiyalarining ta'sirini baholash va tibbiy ta'lim muassasalariga amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Monografiya obyekti** sifatida tibbiy ta'lim jarayonida profilaktika sohasidagi kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv va amaliy jarayonlar, shuningdek, profilaktik bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan intensiv texnologiyalar bo'lib, tajriba – sinov ishlarida Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot

instituti, Andijon davlat tibbiyot instituti, Buxoro davlat tibbiyot institutining 700 nafar respondent – talabalari ishtirok etdi.

**Monografiya predmetini** tibbiy ta'lim jarayonida talabalarning profilaktika sohasidagi kompetentligini rivojlantirish uchun intensiv texnologiyalardan foydalanish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Monografiya usullari.** Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida Oliy va o'rta maxsus ta'limni rivojlantirish, bo'lajak shifokorlarni tayyorlashga doir normativ hujjatlarni o'rganish, modellashtirish, anketa so'rovlari, testlar, kuzatuv, talabalar faoliyatini o'rganish, pedagogik kuzatish, suhbat, integral diagnostika, sotsiometriya, matematik-statistik metodlar hamda pedagogik tajriba-sinov ishlaridan foydalanilgan.

**Monografiyaning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

- Tibbiy ta'limda talabalarda profilaktik tadbirlarni rivojlantirishda intensiv texnologiyalarning afzalliklari va ularni samarali qo'llashda imitatsiyalar realizmning (vizual, taktik, reaktiv, avtomatlashtirilgan, uskuna, interaktiv, integratsiyalashgan) yetti tasnifi tizimli ravishda asoslangan;

- Gigiyena fanini o'qitishda talabalarning gigiyenik bilimlari akklimitatsion usullarni qo'llash orqali T1, T2, T3 tizimining funksional imkoniyatlarini aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

- talabalarni profilaktik kompetentligini oshirish maqsadida kolloborativ o'qitish usullarini diagnostik qilish, tanqidiy fikrlash, analitik fikrlash hamda gigiyenik reglamentlashning orgonoleptik xususiyatlariga asoslangan mexanizmi isbotlangan;

- gigiyena fanini o'qitish jarayonida talabalarining profilaktik kompetentligini rivojlantirish maqsadida "STIR (Strategiya, Texnologiya, Interaktivlik, Refleksiya)" modeli orqali ularning ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilganligi isbotlangan.

**Monografiyaning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

- tibbiy ta'lim talabalarining profilaktik kompetentligini intensiv texnologiyalar orqali rivojlantirishning o'quv-uslubiy ta'minoti yaratilgan.

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 6-noyabrdagi 491–sonli buyrug‘iga asosan, tibbiy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalar uchun tayyorlangan “Tibbiy ta’limda Gigiyena fanini intensiv texnologiyalar orqali o‘qitishni takomillashtirish” o‘quv qo‘llanmasini yaratish jarayonida tadqiqot materiallari, xulosalar va tavsiyalaridan foydalanilgan.

## **I-BOB. TIBBIY TA'LIM TALABALARINING PROFILAKTIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA "GIGIYENA" FANINING O'RNI VA UNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI**

### **1.1.-§ Tibbiy ta'lim talabalari profilaktik kompetentligini rivojlantirishning umumiy tendensiyalari va qonuniyatlari.**

Tibbiy ta'lim sohasida profilaktika sohasi juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu nafaqat kasalliklarning oldini olish, balki aholining sog'lig'ini saqlash va barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Gigiyena fanining tadqiqotlari va o'qitish usullari talabalarga profilaktik bilimlarni o'zlashtirishda katta rol o'ynaydi. Gigiyena fanini o'qitish orqali talabalarda profilaktik kompetentlikni rivojlantirish, ularning tibbiy bilimlarini nazariy va amaliy jihatdan chuqurlashtirish, tibbiy amaliyotga tayyorligini oshirish maqsad qilingan.

Gigiyena fani - bu insonning sog'lig'ini saqlash, kasalliklarning tarqalishini oldini olish va barqaror hayot sharoitlarini ta'minlashga qaratilgan ilm. Gigiyena o'quv dissiplinasi sifatida tibbiy ta'limda muhim o'rin tutadi, chunki uning o'rganilishi talabalarga sog'liqni saqlashning asosiy prinsiplarini, axloqiy va ijtimoiy jihatlarni tushuntirishga yordam beradi.

Gigiyena fani profilaktika sohasidagi muhim vositalarni o'rganish va talabalarga eng samarali va asosiy profilaktik choralarning prinsiplarini ta'lim berishga yo'naltirilgan. Ushbu fanni o'rganish orqali talabalarni jamoat salomatligi, sanitariya va epidemiologiya sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishga tayyorlash mumkin.

Profilaktik kompetentlik - bu tibbiyot mutaxassisining kasalliklarning oldini olish, sog'liqni saqlash va aholining salomatligini yaxshilashga qaratilgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlar jamlanmasidir. Profilaktik kompetentlikka ega bo'lgan mutaxassislar aholining sog'lig'ini muhofaza qilishda muhim rol o'ynaydi.

Gigiyena fanining o'qitishida profilaktik kompetentlik talabalarga kasalliklarning patogenezini tushunish, sog'liqni saqlashga qaratilgan profilaktik choralarni amalga oshirish, sanitariya-gigiyenik holatni tekshirish va baholash

ko'nikmalarini shakllantiradi. Talabalarga sanitariya qoidalari, infeksiyon kasalliklarning oldini olish, oziq-ovqat xavfsizligi va sanitariya-ekologik holatni tahlil qilish kabi bilimlar berish zarur.

Oliy tibbiy ta'limda talabalarni profilaktik kompetentligini rivojlantirishda Gigiyena fani juda muhim rol o'ynaydi. 1987 yilda Yangi Zelandiyada bo'lib o'tgan Xalqaro profilaktik tibbiyotchilar kengashi yig'ilishida gigiyenaga quyidagicha ta'rif qabul qilindi: "Gigiyena - sog'liqni saqlash tizimining bir qismi bo'lib, kasalliklarning oldini olish, sog'liqni mustahkamlash, psixosotsial yordamni o'z ichiga oladigan sohadir"<sup>3</sup>.

Gigiyena an'anaviy ravishda jamiyat salomatligi tizimida muhim rol o'ynaydi, ayniqsa, tibbiy profilaktika ishi yo'nalishi talabalariga o'qitiladigan eng muhim fanlardan biridir.

Gigiyena fani tibbiy ta'limda muhim o'rin tutadi, chunki u inson salomatligi va uning xavfsizligiga ta'sir etish bilan bog'liq. Tibbiyotning barcha sohalarida gigiyenik bilimlar va ko'nikmalarni egallash talab qilinadi, shuning uchun gigiyena fanini o'qitish oliy tibbiy ta'limning asosiy qismi hisoblanadi. Gigiyena, inson organizmining turli xil xatarlardan himoya qilinishini, shuningdek, axloqiy, fiziologik va ekologik omillar bilan salomatlikning saqlanishini ta'minlaydi. Gigiyena fanining tarixiy rivojlanishini tushunish, uning muammolarini hal qilish va ularni tibbiy ta'limga tatbiq qilish muhim ahamiyatga ega.

Oliy tibbiy ta'limda gigiyena fanini o'qitish zaruriyati tibbiyot sohasidagi keng qamrovli va professional salomatlikni saqlash, kasalliklarning oldini olish, sanitariya, ekologiya va ovqatlanish, hamda tibbiy xodimlar uchun sanitariya hamda gigiyenik qoidalarni tushunish kabi ko'plab muhim aspektlarni o'z ichiga oladi. Bu fan shifokorlar uchun mutlaqo zarur bilim va ko'nikmalarni berish, ularni profilaktikaga yo'naltirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga yordam beradi.

---

<sup>3</sup> <https://www.tewhatauora.govt.nz/health-services-and-programmes/infection-prevention-and-control>

Gigiyena fanining boshlang'ich bosqichi juda qadimga, ya'ni yuzlab yillar avvalga borib taqaladi. Shifokorlar va sog'liqni saqlash mutaxassislari odamning salomatligi va atrof muhit o'rtasidagi munosabatlarni tushuna boshladilar. Ba'zi ilk gigiyenik bilimlar Gretsiya va Rim madaniyatlarida paydo bo'lgan, ayniqsa Gippokratning ishlarida. U gigiyenaning tibbiyotdagi muhim o'rnini ta'kidlagan.

Gigiyena fanining ilmiy rivojlanishi XVIII va XIX asrlarda boshlandi. Bundan avvalgi davrlarda gigiyena ko'proq amaliy va milliy an'analarga asoslangan bo'lsa, ilmiy yo'nalish XVII asrdan boshlab shakllana boshladi. Fransuz tabibi Antuan Lavuazye, nemis tabibi Vilgelm Veber kabi olimlar gigiyenaning ilmiy asoslarini yaratdilar. Ular atrof muhit, sanitariya va bemorlarni davolash usullari orasidagi bog'liqlikni tadqiq qilishdi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshidan boshlab, gigiyena fanining o'qitilishiga alohida e'tibor qaratila boshladi. Oliy tibbiy ta'limda gigiyena fanini o'qitish hozirgi davrgacha uzluksiz rivojlanib kelmoqda. Shifokorlar, shifobaxshlar va sanitariya mutaxassislari uchun gigiyenik bilimlar, kasalliklarning oldini olishga oid aso'iy tushunchalar va amaliy ko'nikmalar taqdim etildi.

Zamonaviy tibbiy ta'limda gigiyena fanini o'qitish o'sib borgan kasalliklarning oldini olish va salomatlikni saqlashga yo'naltirilgan. Gigiyena ta'limi nafaqat tibbiyotning asosiy fanlaridan biri bo'lib, balki zamonaviy davrda o'ziga xos va murakkab fanga aylandi. Shu bilan birga, gigiyena fanining mazmun va maqsadi o'zgardi, u tibbiy xodimlarning gigiyenik bilimlarini oshirish va kasalliklardan himoya qilishga qaratilgan.

Gigiyena fani tibbiy ta'limning asosiy bo'g'ini bo'lib, shifokorlarning sog'liqni saqlash, kasalliklarning oldini olish, sanitariya va gigiyenik qoidalarni saqlash borasidagi bilimlarini shakllantiradi. Ushbu fanni o'qitishda ko'plab olimlar va tadqiqotchilar o'zining nazariy va amaliy ishlanmalari bilan soha rivojiga o'z hissasini qo'shgan.

Gigiyena fanini o'qitish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ko'p jihatdan tibbiy ta'limdagi yangi usullar va texnologiyalarning ahamiyatini ko'rsatadi. Olimlar

gigiyena fanini o‘qitishda nazariy va amaliy usullarning samaradorligini, talabalarga profilaktik ko‘nikmalarni o‘rgatish, kasalliklarning oldini olishda gigiyenik bilimlarni qo‘llash muhimligini ta’kidlaydilar.

Jumladan, AQShlik Doroti Xoll o‘z tadqiqotlarida Yevropa va AQShdagi Gigiyena fani ta’limiga e’tibor qaratgan olimlardan biri bo‘lib, u gigiyenik fanning ahamiyatini nafaqat tibbiyotda, balki jamoat salomatligi va ijtimoiy madaniyatdagi o‘rni haqda fikr yuritgan. Xollning tadqiqotlarida gigiyena fanini nafaqat tibbiy ta’limda, balki ayniqsa, o‘sib kelayotgan ishlab chiqarish va jamoat salomatligini muhofaza qilishdagi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratiladi. Uning ishlarida gigiyenaning profilaktik usullariga, sanitariyani ta’minlashga oid yechimlar va amaliy jarayonlar tasvirlangan.

Xollning tadqiqotlari gigiyenik fanning umumiy tibbiy ta’limdagi ahamiyatini yanada mustahkamlashga va talabalarga gigiyenik bilimlarni integratsiyalashga qaratilgan. Uning ilmiy ishlanmalari, gigiyenik bilimlarning har bir bosqichdagi tibbiy xodimlarning faoliyatida qo‘llanishga alohida ahamiyat bergan. Bu muammolarning samarali yechimlari va modernizatsiya bo‘yicha ahamiyatli qadamlardir.

Yana bir tadqiqotchi Lian Bennett o‘z tadqiqotlarida gigiyena fanining tibbiy ta’limdagi o‘rni va o‘qitish usullarini ko‘rib chiqib, har xil bilim berish strategiyalarini va metodologiyalarni tahlil qilgan. U gigiyena fanini o‘qitishda interaktiv va amaliyotga asoslangan metodlarni qo‘llashning samaradorligini ta’kidladi. Bennettning izlanishlari gigiyenik bilimlarni ilmiy usullar bilan osonlashtirish va ularni talabalarga amaliy hollarda tatbiq qilish uchun turli xil o‘qitish yondoshuvlarini ishlab chiqishga qaratilgan<sup>4</sup>.

Bennettning tadqiqotlari gigiyena fanini o‘qitishda ta’lim usullarining ijobiy o‘zgarishlarga olib kelishi va yosh avlodga interaktiv va yorqin metodlar bilan ta’lim berishni ilgari surish zarurligini ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra, gigiyena fanini o‘qitishda

---

<sup>4</sup> Bennett, L. Teaching Hygiene in Medical Education: Interactive Approaches. -Oxford: Oxford University Press. 2023. -P.145.

samarali natijaga erishish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan simulyatorlar va raqamli resurslardan foydalanish mumkinligini ta'kidlaydi.

Yana bir olim Uilyam Roys o'z tadqiqotlarida gigiyena fanining nazariy asoslarini va uning tibbiy ta'limga integratsiyasini o'rgandi. Uning fikricha, gigiyena fanini o'qitishning maqsadi nafaqat uning nazariy qoidalarini tushuntirish, balki talabalarga amaliyotda ularni qo'llash ko'nikmalarini berishdir. Roysning ishi shuni ko'rsatadiki, tibbiy ta'limda gigiyena fanini o'qitish natijasida shifokorlar sog'lom turmush tarziga asoslangan profilaktik muolajalarni amalga oshirish uchun yaxshi tayyorlangan bo'ladilar<sup>5</sup>.

V. Roysning izlanishlari gigiyena fanini o'qitishning nazariy va amaliy jihatlarini e'tiborga olish zarurligini ko'rsatadi. U gigiyenik fanni faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, balki amaliyotda ham qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. Bu qarashlar tibbiy ta'limda ta'limning komplekslik va amaliylik orasidagi muvozanatni topishga yordam beradi.

Buyuk Britaniyalik olim Syuzan Teylorning tadqiqotlari gigiyena fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar qo'llanilishining ahamiyatiga qaratadi. Uning ishlari gigiyenik ta'limda ilg'or texnologiyalardan, jumladan interaktiv o'qitish platformalari, onlayn kurslar va mobil ilovalardan foydalanishning samarasini tahlil qiladi. Teylor gigiyena fanini o'qitishda talabalarning ta'lim jarayonida yangi texnologiyalar orqali faol ishtirokini ta'minlash uchun muhim yo'llar taqdim etdi<sup>6</sup>.

Teylorning tadqiqotlari zamonaviy ta'lim texnologiyalarining tibbiy ta'limda qo'llanilishi muhimligini ko'rsatadi. Gigiyena fanini o'qitishda innovatsiyalardan foydalanish talabalarning nazariy va amaliy ko'nikmalarini yanada mustahkamlashga yordam beradi. Texnologiyalar ta'limni qiziqarli, samarali va talabalar uchun yanada mazmunli qilish imkonini beradi.

---

<sup>5</sup> Royce, W. (2012). *Medical Hygiene: From Theory to Practice*. - New York: Springer Science, 2021. - P.245.

<sup>6</sup> Taylor, S. *Innovative Methods in Teaching Hygiene in Medical Schools*. - London: Elsevier, 2023. - P.325.

Buyuk Britaniyalik olim L. Gremning ishlari jamoat salomatligi va sanitariya sohasidagi gigiyena ta'limiga qaratilgan. Bu kitob jamoat salomatligini ta'minlashdagi amaliy qadamlarni, shuningdek, gigiyenik ta'limning ahamiyatini qaratib, gigiyena va sanitariyaning insonlar hayotiga ta'sirini tadqiq etadi. Gremning tadqiqoti gigiyenik bilimlarning jamoatga tarqatilishi va tibbiy tashkilotlarda ishlayotgan soha xodimlarining o'sishini ta'minlashga yordam beradi<sup>7</sup>.

J.Smitning kitobi esa tibbiy ta'limdagi gigiyena fanining o'rni va uning ahamiyatiga bag'ishlangan. Ushbu ishda gigiyena fanini o'qitishning nazariy asoslari, shuningdek, gigiyenik bilimlarni tibbiy talabalarga o'zlashtirishning samarali usullari bayon etilgan. Bu kitob o'qituvchilar uchun gigiyenani ta'lim berishdagi eng yaxshi amaliyotlarni va nazariy masalalarni o'rganishga ko'maklashadi<sup>8</sup>.

M. Uilyamsning kitobida nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi farqni judda aniq tushuntiradi. Uning ishi gigiyena fanini amaliyotga kiritishdagi muammolarni va talabalarga amaliy ko'nikmalarni o'rgatishdagi yangicha yondashuvlarni qaratib, tibbiy ta'limda ham nazariy, ham amaliy bilimlarni o'rganishning ahamiyatini muhokama qiladi<sup>9</sup>.

K. Kleyn kitobida tibbiy ta'lim va amaliyotda sanitariya va gigiyenaning ahamiyatini yoritadi. Uning ishlari salomatlikni saqlash va kasalliklarni oldini olishda sanitariyaning asosiy prinsiplariga yo'naltirilgan. Ushbu kitob gigiyena va sanitariyaning tibbiy amaliyotdagi o'rni va axloqiy qoidalarini izohlaydi<sup>10</sup>.

M. MakLoudning ishi esa gigiyenaning kasalliklarni oldini olish va nazorat qilishdagi mukammal usullari va ahamiyatini ko'rsatadi. Ushbu kitobda gigiyenik profilaktika tadbirlarining amaliyotdagi ahamiyati va ularni tibbiy ta'limda tatbiq etish bo'yicha tavsiyalari mavjud. Shuningdek, kitobda jamoat salomatligi va

---

<sup>7</sup> Graham, L. Hygiene Education and Community Health Practices. - Cambridge: Cambridge University Press, 2019. -P.278.

<sup>8</sup> Smith, J. Health Education and Hygiene: A Guide for Medical Educators. Philadelphia: W.B. Saunders Company, 2020. -P.159.

<sup>9</sup> Williams, M. (2017). Hygiene in Medical Education: Bridging Theory and Practice. - New York: Springer,2022. -P.560.

<sup>10</sup> Klein, P. (2014). Sanitation and Hygiene in Medical Practice. - Berlin: De Gruyter, 2018. -P.341.

gigiyenik ta'limning tibbiy amaliyotlardagi ahamiyatiga e'tibor qaratilgan. Ushbu adabiyot tibbiy ta'limda gigiyenik bilimlarni jamoat salomatligini saqlashga qaratilgan yo'llar orqali ko'rsatadi.

Osiyodagi gigiyena fanini o'qitish bo'yicha adabiyotlar turli mamlakatlardagi tibbiy ta'lim tizimida gigiyenik bilimlarni berish usullari va ularning samaradorligiga bag'ishlangan.

Koreyalik Li Se o'z tadqiqotlarida Sharqiy Osiyoda tibbiy ta'lim jarayonida gigiyena fanini o'qitishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni tahlil qiladi. Mazkur tadqiqotda talabalarga nazariy va amaliy bilimlarni berishda qo'llaniladigan turli interaktiv va amaliy usullar o'rganilgan. Sharqiy Osiyoda talabalarga amaliyot asosidagi ta'lim berish gigiyenik bilimlarni tezroq o'zlashtirishga yordam berishi ta'kidlanadi<sup>11</sup>.

Xitoylik Van Xi tadqiqotlarida jamoat salomatligi va gigiyena ta'limidagi ilg'or usullar haqida so'z boradi. Kitobda gigiyena fanini o'qitish jarayonidagi zamonaviy texnologiyalar va ularning samaradorligi bo'yicha tadqiqotlar keltirilgan. Xitoydagi tibbiy ta'limda elektron ta'lim vositalaridan foydalanish ko'proq qo'llanilmoqda, bu esa talabalarga keng bilim olish imkonini beradi<sup>12</sup>.

Hindistonlik R.Chakrabarti tomonidan yozilgan kitobda profilaktika tibbiyotida gigiyena ta'limning ahamiyatini yoritiladi, shuningdek, asosiy e'tibor talabalarga kasalliklarning oldini olish uchun gigiyenik bilimlarni yetkazishga qaratiladi. Tadqiqotda ta'lim jarayonida amaliy mashg'ulotlarning ko'proq qo'llanilishi va sanitariya qoidalariga amal qilishning ahamiyati ta'kidlangan<sup>13</sup>.

Yaponiyalik olim T.Yamada tadqiqotlarida oliy tibbiy maktablarida sanitariya va gigiyenik ta'limning o'rni va pedagogik yondashuvlari o'rganilgan. Kitobda Yaponiya ta'lim tizimida amalga oshirilgan ilg'or metodlar, talabalarga amaliy va nazariy mashg'ulotlarni o'qitish usullari yoritilgan. Mazkur yondashuvlar

---

<sup>11</sup> Lee, S.Y. Teaching Hygiene in East Asian Medical Education Systems. - Seoul: Seoul University Press, 2022. -P.322.

<sup>12</sup> Wang, X. Public Health and Hygiene Education in China: A Modern Approach. - Beijing: China Medical Publishing House, 2023. -P.218.

<sup>13</sup> Chakrabarti, R.Hygiene Education and Its Importance in Preventive Medicine in India. - New Delhi: Sage India, 2019.-P.456.

talabalarda kasbiy kompetentlikni oshirishga yordam beradi. Shuningdek, interaktiv usullarning o'quv jarayonidagi qo'llanilishi haqidagi ushbu tadqiqotda, gigiyenik bilimlarni samarali tarzda yetkazishda qo'llanilgan yangi metodlar tahlil qilingan. Talabalarga videodarslar, onlayn muammolar va virtual simulyatsiyalarni qo'llash orqali gigiyenik bilimlarni jadallashtirish mumkinligi keltirilgan.

Vyetnamlik R. Nguyen tadqiqotlarida gigiyenik ta'limning muammolari va rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Kitobda turli madaniy va ijtimoiy omillar ta'lim jarayoniga qanday ta'sir qilishini va bu ta'sirlarni yengish uchun qanday choralar ko'rish mumkinligi muhokama qilinadi. Shuningdek, Vyetnamdagi tibbiy ta'lim dasturlaridagi gigiyena fanini o'qitish bo'yicha tadqiqot olib borilgan. Ushbu kitobda amaliy mashg'ulotlar orqali sanitariyaga doir bilimlarni samarali o'zlashtirish haqida ma'lumot berilgan<sup>14</sup>.

Rossiyalik olimlar ham gigiyena fanini tibbiy ta'limda o'qitishda bir qator muammolar va yechimlarni o'rganishgan. Ularning tadqiqotlari gigiyenik bilimlarning talabalarga yetkazilishida innovatsion pedagogik usullarni joriy qilish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va profilaktik tibbiyotda gigiyenaning ahamiyatiga katta ahamiyat bergan. Interaktiv va raqamli texnologiyalar, shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar gigiyena ta'limining samaradorligini oshirishga ko'maklashadi.

Rossiyada gigiyena fanini o'qitish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, shuningdek, ularning dissertatsiyalari tibbiy ta'limda gigiyenik bilimlarni olish va amaliyotda tatbiq etishning muhimligini ko'rsatadi. Keltirilgan dissertatsiyalar va tadqiqotlar gigiyena fanini o'qitishning turli aspektlariga, metodikalarga va pedagogik innovatsiyalarga e'tibor qaratadi.

Jumladan, R.B. Yermakova o'zining dissertatsiyasida gigiyena fanini o'qitishdagi pedagogik usullar va metodikalarni tahlil qilgan. Ushbu tadqiqotda gigiyenik bilimlarni talabaga tushunarli va samarali yetkazish uchun yangi pedagogik yondashuvlar va metodikalarni joriy qilishga urg'u berilgan. Yermakova

---

<sup>14</sup> Nguyen, P.T. Hygiene Education Programs in Vietnamese Medical Universities. -Hanoi: Vietnam Health Publishing, 2020. -P.199.

gigiyenani o'qitishda interaktiv usullarning ahamiyatini alohida ta'kidlab, ularning tibbiy ta'limdagi samaradorligini ko'rsatgan<sup>15</sup>.

N.V.Lebedevaning tadqiqoti tibbiy ta'limda gigiyenik bilimlarni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlariga qaratilgan. U gigiyenaning nazariy va amaliy jihatlarini integratsiyalashning muhimligini ko'rsatadi, shunga qo'shimcha ravishda, gigiyenik ta'limning talabalarning profilaktik kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rniga e'tibor qaratilgan. Ushbu tadqiqotda amaliyotdagi gigiyena muammolariga e'tibor berilgan va u muammolarni hal qilish uchun yangi usullar va texnikalar taklif etilgan<sup>16</sup>.

V.P.Sidorovning ishi gigiyenik ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotda gigiyena fanini o'qitishda yangi metodikalar, ma'lumot texnologiyalari va multimediya vositalarining samaradorligi tahlil qilingan. Sidorov gigiyenik ta'limda interaktiv tarzda ishlashning ahamiyatini ta'kidlab, raqamli texnologiyalar orqali talabalarning bilim darajasini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatgan<sup>17</sup>.

A.G.Pavlovning dissertatsiyasida gigiyena fanini o'qitishdagi pedagogik usullarning samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu ishda gigiyenik fanning tibbiy ta'limdagi o'rnini va amaliy ko'nikmalarning ahamiyatiga alohida urg'u berilgan. Pavlovning tadqiqoti gigiyena fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik usullarning samaradorligini ko'rsatadi va talabalarning gigiyenik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun pedagogik amaliyotlarning muhimligini isbotlaydi<sup>18</sup>.

I.V. Fyodorova o'z ishida gigiyena fanini o'qitishning muammolari va ularni hal qilish uchun zamonaviy pedagogik usullarni taklif qiladi. Ushbu tadqiqotda o'qitish jarayonida interaktiv va innovatsion metodlarni joriy qilish, shunga qo'shimcha ravishda, talabalarning profilaktik qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan

---

<sup>15</sup> Ермакова, Р.Б. Гигиенические методы преподавания и педагогические подходы в обучении. Дисс...канд.мед.наук. -Москва, 2021. -с.245.

<sup>16</sup> Лебедева, Н.В. Методика преподавания гигиенических дисциплин в медицинских вузах. Дисс...канд.мед.наук. -Санкт Петербург, 2018. -с.196.

<sup>17</sup> Сидоров, В.П. Инновационные технологии в преподавании гигиенических дисциплин. Дисс...канд.мед.наук. -Москва, 2019. -с.186.

<sup>18</sup> Павлов, А.Г. Совершенствование методов преподавания гигиены в медицинских учебных заведениях. Дисс...канд.мед.наук. -Томск, 2023. -с.193.

usullarning amalga oshirilishi tahlil etilgan. Fyodorova innovatsion pedagogik usullar, innovatsion texnologiyalar va amaliy ko'nikmalarni o'rgatish jarayonidagi muhim yo'nalishlarni ishlab chiqadi<sup>19</sup>.

S.A. Ivanova o'z tadqiqotida gigiyenik va sanitariya fanini o'qitishda yangi tendensiyalar va metodikalarni muhokama qiladi. Ushbu ishda gigiyenik fanlarning profilaktik tibbiyotdagi ahamiyati, tibbiy ta'limdagi yangi metodlar va talabalarga kasalliklarning oldini olishga qaratilgan yangi usullar ishlab chiqilgan. Ivanova o'z tadqiqoti orqali gigiyenik fanni o'qitishda ijobiy natijalarga erishish uchun fokuslangan dasturlarning ahamiyatiga e'tibor qaratgan<sup>20</sup>.

Gigiyena fanini o'qitishning kelajagi, asosan yangi ilmiy va texnologik metodlarning qo'llanilishi bilan bog'liq. Buga tibbiy ta'limda zamonaviy raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, virtual va animatsiyalar orqali o'qitishning kengaytirilishi, onlayn kurrikulumlarning paydo bo'lishi kabi yangiliklar kiritilmoqda. Gigiyena fanini o'qitishda ta'limning interaktiv usullari, masalan, mobil ilovalar, virtual tibbiy simulyatorlar va internet platformalaridan foydalanish talabalarning gigiyenik bilimlarini oshirish va ularni kasalliklarning oldini olishda qo'llashga yordam beradi.

Gigiyena fani tibbiy ta'limda muhim o'rin tutadi va uning rivojlanish bosqichlari juda muhim ahamiyatga ega. Tibbiy ta'limda gigiyena fanini o'qitish, tibbiy mutaxassislarning tibbiy xizmat ko'rsatishdagi sifati va samaradorligini oshirish, hamda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Gigiyena fanining kelajagi, yangi texnologiyalar va innovatsion metodlarni qo'llash orqali yanada mukammallashishi mumkin.

Sharq tabobatida inson salomatligini davolash, saqlash va uzoq umr ko'rish uchun kurashda bir-biridan sezilarli darajada farq qiladigan turli xil ta'sir usullari va vositalaridan foydalanilgan. Bu ko'p jihatdan ushbu tizimning nazariy asoslarining tabiatiga, inson va uning atrof-muhitining tabiiy xususiyatlariga, shuningdek, dori

---

<sup>19</sup> Фёдорова, И.В. Модернизация образовательных технологий в преподавании гигиенического цикла. Дисс... канд.мед.наук. -Нижегородск, 2018. -с.214

<sup>20</sup> Иванова, С.А. Современные подходы к преподаванию профилактической гигиены и санитарии. Дисс...канд.мед.наук. -Казань, 2019. -с.179.

vositalarini ishlab chiqarish uchun asos bo'lgan ayrim o'simliklar, hayvonlar va minerallar mavjudligiga bog'liq edi.

Taklif etilgan retseptlarda Sharq olimlari salomatlikni davolash va saqlash uchun iqlim va insonning yashash sharoitlarini hisobga olgan moddalar, turli xil damlamalar, kukunlar, o'simliklar va noyob parhez taomlaridan foydalanganlar.

Bu davrning yana bir atoqli arab olimi-ensiklopedisti Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy (9-10-asrlar) "Al-Haviy" ("Tibning to'liq kitobi") fundamental asarini yaratdi.

Abu Bakr bemorni dori-darmon bilan emas, balki parhez bilan davoladi va shu orqali tibbiyotning muhim yo'nalishlaridan biri – bugungi kunda gigiyena fanining asosiy bo'limiga aylangan dietatikaga asos soldi. U yosh va o'rta yoshdagi talabalarga dori-darmonlarni buyurish muammosiga alohida ehtiyotkorlik bilan yondashdi, ba'zida dori-darmonlarni yozishdan qochadi. Bunday hollarda Abu Bakr dori-darmonlar o'rniga meva va kerakli oziq-ovqatlarni ma'lum bir ketma-ketlikda iste'mol qilishni tavsiya qilgan.

Abu Bakr bemorlarning yoshi, individual va fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda davolanishni yo'lga qo'ydi. Uning fikricha: "Xastaliklarni parhez bilan davolagan shifokor baxtlidir".

Sharqda jismoniy salomatlik rivojiga Ali ibn Abbos Medjusiy Ahovaziy (IX asr) ham katta hissa qo'shgan. Uning "Kamil-us-sinoat" ("Shifo san'atida mukammallik") asari lotin tiliga tarjimada saqlanib qolgan. Muallif bu asarida Abu Bakr singari salomatlikni asrash maqsadida to'g'ri ovqatlanishga, turli turdagi spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar va boshqa moddalarni turmush tarzidan chiqarib tashlashga asosiy e'tiborni qaratgan.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) - O'rta Osiyoning o'rta asrlar davrida yashab ijod etgan eng mashhur qomusiy alloma va mashhur mutafakkiridir. U o'z asarlarida dunyoqarash va ilg'or tibbiy g'oyalarini oshib berishni maqsad qilmagan, balki uning she'rlari va didaktik qissalari asosida o'z davriga xos profilaktik qarashlar haqida ijtimoiy-pedagogik fikr-mulohazalar bayon qilingan. U nafaqat, buyuk

hakim va mutafakkir, balki ayni vaqtda o‘z davrida sog‘lom turmush - tarzini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan alloma hisoblanadi<sup>21</sup>.

Abu Ali ibn Sino 1000 yil oldin "Sog‘lom kishilarning sog‘lig‘i" to‘g‘risida asar yozgan va uning ahamiyati hozirgi kunda ham nafaqat saqlanib qolgan, balki "eng muhim va eng dolzarb" masala deb, dunyo olimlari tomonidan tan olinmoqda. Ibn Sino o‘z davrida fanlarning deyarli barcha sohalarida chuqur iz qoldirdi. "Tib qonunlari" kitobining birinchi qismidagi sog‘liqni saqlash tadbirlari xaqidagi maxsus fanida inson salomatligini saqlashga aloqador omillar to‘g‘risida so‘z yuritib," bunda asosan quyidagi yetti narsani mo‘tadil qilishga ko‘proq e‘tibor berish kerak: mijozni mo‘tadil qilish, yeyiladigan va ishiladigan narsalarni tanlash, gavnani chiqindidan tozalash, to‘g‘ri tuzilishni saqlash, burunga tortiladigan havoni yetarli va yaxshi qilish, kiyimli narsalarni yaxshilash, jismoniy va ruhiy xarakatlarni mo‘tadil qilish shu xarakatlar jumlasiga ma’lum darajada uyqu va uyg‘oqlik ham kiradi" deb ta’kidlagan. Olimning fikricha sog‘liqni saqlashning asosiy tadbiri badan tarbiya, keyin ovqat tadbiri va uyqu tadbirlari hisoblanadi: "Badan tarbiya kishini chuqur va ketma-ket nafas olishga majbur qiluvshi ixtiyoriy xarakatdir, mo‘tadil ravishda va o‘z vaqtida badan tarbiya bilan shug‘ullangan odam buzilgan xiltlar va mizoj tufayli keluvshi kasalliklarning davosiga muxtoj bo‘lmaydi". Badan tarbiya turlariga o‘zaro tortichish , yoydan o‘q otish, tez yurish, nayza otish, sakrash, qilishbozlik, kurash va boshqalarni kiritadi. Ovqatlanish tartibi xaqida so‘z yuritib, "Ovqatni ishtaha bilan yemoq va ishtahani qaytarmaslik lozim. Qishda issiq, yozda sovuq yoki iliq ovqat yeyish lozim. Juda to‘yib va to‘lib ovqat yeyish va ichish hamma xolda ham o‘ldirguvchidir" deydi. Gavnaga eng zararli narsa me’dada ovqat etish masdan va hazm bo‘lmasdan turib, yana ovqat kiritishdir deb ta’kidlangan. Uyqu vaqtida dastlab biroz muddat o‘ng tomon bilan keyin 10 shar tomon bilan, so‘ngra yana o‘ng tomon bilan yotish kerak. Shuni bilish kerakki, yostiqni baland qo‘yib yotish ovqatning hazm bo‘lishiga yordam beradi. Ibn Sino keksalarda ovqatni

---

<sup>21</sup>Грандо, А.А. Врачебная этика и медицинская деонтология. – Киев: Высшая школа, 1988. – С.191.

“kam-kam va ikki yoki uch marotaba” ovqat xazmiga qarab iste’mol qilishni buyuradi<sup>22</sup>.

Ibn Sino falsafasining muxim tarkibiy qismi inson va uning salomatligi bo‘lib, uning fe‘l-atvori faqat shaxsiy xususiyatlari bilan emas, balki uni o‘rab turgan va faoliyatining muayyan qirralarini izoxlaydigan shart-sharoit, ijtimoiy tarixiy voqelik ta’siri bilan belgilanishi ta’kidlanadi. Atrofimizni o‘rab turgan mavjudlik bir yaxlit olamdan iborat bo‘lib, shaxs uning kichik bo‘lagi hisoblanadi. Ibn Sino insonlarni bilim va ma’rifat o‘chog‘ini yoqishga, har bir masalaga ilmiy, aqliy yondashishga, rostgo‘y vijdonli bo‘lishga, fan madaniyatini egallashga, xullas, insoniylikning eng yaxshi xislatlarini o‘zida aks ettirib, mujassamlashtirishga va inson degan ulug‘ nomni yanada ko‘tarishga chaqiradi<sup>23</sup>.

Ibn Sino “Tib qonunlari” asarida insonlardan uch raydigan ko‘plab kasalliklarni davolashga ichora buyuradi. U asosan kasallikni ko‘zg‘atuvchi xavo hamda suvga katta e’tibor beradi. Uning suv orqali o‘tuvchi ko‘zga ko‘rinmas jonivorlavr xaqidagi farazlari diqqatga sazovordir. Shu sababli ham suvni qaynatib, suzib iste’mol qilishni ta’kidlaydi, shunki qaynoq suv qorinni kamrok shishiradi va organizmda tezroq tarqaladi. Ayniqsa zaharli xavo nafas orqali tortilsa, odamga chechak, o‘lat kasalligi yuqishi mumkinligi, sog‘liqni saqlash xaqidagi bildirgan fikrlari, insonlarning jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishi, ovqatlanish va uxlash tartibi xaqidagi allomaning qimmatli fikrlari xozirgi kunlarda ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan. Uning fikricha inson muntazam ravishda jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanib turishi, ovqatlanish va uxlash jarayonida rejimga rioya qilsa, kishi xech qachon kasal bo‘lmaydi. Jismoniy mashqlar badanda ortiqcha moddalar yig‘ilib qolishiga xalaqit beradi, pay va nervlarni mustaxkamlashga xizmat qiladi, kasallikning oldi olinadi. Albatta, har bir jismoniy mashq insonlarning yoshiga, shart-sharoitiga mos ravishda olib borilishi ta’kidlanadi.

---

<sup>22</sup> Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari.1-jild -Toshkent: Sharq, 2020. -138.

<sup>23</sup> Kadirova M. Tibbiy ta’lim jarayonida kasbiy kompetentlikni metodik takomillashtirish texnologiyalari (tibbiyotda pedagogikani o‘qitish misolida). Pedagogika fanlari doktori ... diss. – Namangan., 2023. – B. 115.

Shu bilan bir qatorda, badanni toza tutishga ahamiyat berishni va hammom, massaj, ichki kiyimlarni doimo almashtirib turishni maslaxat beradi. Abu Ali ibn Sino talabalar tarbiyasi uning salomatligi to‘g‘ri ta‘lim tarbiya berish usullari xususida ham kelajak avlodlarga ko‘p qimmatli fikrlari va ilmiy izlanishlari natijalarini qoldirgan. Shu sababli ham biz mutafakkirni xaqli ravishda pediatriya fani asoschilaridan biri deb atashimiz mumkin.

Ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” asarida talaba tarbiyasi va gigiyenasi to‘g‘risida bir qancha asosli fikrlarni yozib qoldirgan. Bu sohada Ibn Sino tabibliklan ko‘proq tarbiyashiga o‘xshab ketadi. Ibn Sino o‘z tibbiy maslaxatlarida nafaqat insonni sog‘-salomatligini saqlab qolishgina emas, balki uning xulq-atvorini yaxshilanishiga ham katta e‘tibor qaratishni ta‘kidlaydi. Onalarga hali talaba tug‘ilmasidanoq uning tarbiyasiga tayyorgarlik ko‘rishni maslaxat beradi. Tug‘ilgandan keyin esa talaba fe‘l atvorini o‘rtacha saqlash zarurligini uqtiradi. Talabani tarbiyalash va voyaga yetkazish mobaynida uni xadeb jig‘iga tegmaslik, jaxlini chiqarmaslik, qo‘rqitmaslik, xafa qilmaslik, qayg‘u va uyqusizlikdan saqlash kabi holatlarga e‘tibor berish zarurligini ham uqtirib o‘tadi. Talabani mana shu xolatlarda e‘tibor qaratib parvarishlagan taqdirda talaba to‘g‘ri o‘sadi, bora-bora bu odatlar unga malaka bo‘lib qoladi.

Ibn Sino tabiblarga har qanday kasallikka aloxida-aloxida hamda har tomonlama yondoshishni maslaxat beradi, jigar kasalligini parxez bilan davolash masalasini ilgari suradi. Bu xil kasalliklarga Ibn Sino mayiz, anjir, anor suvi kabilarni iste‘mol qilishni tavsiya qilib, medisina tarixshilarining fikriga ko‘ra, u xuddi kelajakdagi glyukoza va insulinlarni oldindan faraz qilgan bo‘ladi. Shunki anor suvining insulinsimon ta‘sir kuchi mavjudligini ta‘kidlaydi<sup>24</sup>.

Ibn Sino insonning uyg‘unligi tabiatining tarafdori bo‘lgan holda, insonning to‘g‘ri turmush tarzini olib borishini, sog‘lig‘iga zarar yetkazadigan har qanday narsadan voz kechishni salomatlikning zaruriy sharti deb bilgan.

---

<sup>24</sup> Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari.1-jild -Toshkent: Sharq, 2020. -29.

U inson hayotining to‘rtta rivojlanish davrini o‘z ichiga olgan davrlashtirishni ilgari suradi.

1- davr - tug‘ilgandan 30 yoshgacha (inson salomatligining o‘sishi va shakllanishi davri).

2- davr - 30 yoshdan 40 yoshgacha (yoshlik davri).

3- davr - 40 yoshdan 60 yoshgacha (kamolot davri).

4- davr - 60 va undan ortiq yoshdan (keksalik davri)<sup>25</sup>.

Ibn Sino ta’limotida uning qarish jarayonida organizmda sodir bo‘ladigan turli biologik jarayonlarga munosabatiga e’tibor qaratiladi. Ushbu jarayonni tushuntirishning o‘ziga xosligi va ilmiy yondashuvi zamonaviy fan yutuqlari bilan tasdiqlangan. Qarishning biologik jarayonini tushuntirib, u shunday deb yozadi: “Bu (organizm) boshidanoq eng muhim ahamiyatga ega. Bizning tanamizda paydo bo‘ladigan qurib ketish - bu oldini olish mumkin bo‘lmagan zaruratdir. Qarigan organizmda suvsizlanish jarayonlari sodir bo‘ladi. Bu suyak to‘qimasida va terida suvning sezilarli darajada kamayishi tufayli yuzaga keladi<sup>26</sup>.”

Ilmiy texnik taraqqiyot va zamonaviy texnologiyalarning paydo bo‘lishi, gigiyena fanini rivojiga sabab bo‘ldi. Tabiblar kasalliklarni erta bosqichlarda aniqlashga, uning sababini topishga va eng muhimi – profilaktik chora tadbirlarni o‘tkazish (donozologiya) va xayot tarzini o‘zgartirish orkali kasallikni oldini olishga harakat qilishgan.

Shunday qilib, tibbiy ta’limda profilaktik bilimning rivojlanishiga kasbiy ta’limning turli bosqichlarida ta’lim jarayoni uchun ahamiyatli bo‘lgan bir qancha metodik komponentlardan tashkil topgan gigiyena kursining fanlararo aloqadorligi natijasida erishish mumkin.

## **1.2.-§ Gigiyena fanining talabalar profilaktik kompetentligini oshirishdagi o‘rni.**

Gigiyena fanini o‘qitish talabalarning profilaktik kompetentligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Samarali ta’lim usullari va pedagogik texnologiyalar orqali

---

<sup>25</sup> Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari.3-jild -Toshkent: Sharq, 2020. -58.

<sup>26</sup> Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari.2-jild -Toshkent: Sharq, 2020. -125.

talabalarda profilaktika sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishga tayyor bo'lgan kasbiy malaka shakllantirish mumkin. Gigiyena fanini o'qitish orqali talabalarga profilaktik bilimlar, sanitariya va sog'liqni saqlash strategiyalarini taqdim etish, ularni sog'liqni muhofaza qilish jarayonlariga faol jalb qilish bo'yicha zarur ko'nikmalarni o'rgatish mumkin. Buning natijasida, profilaktika sohasidagi mutaxassislarning tayyorgarligini oshirish va ularning kasbiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy talablar yetkaziladi.

Gigiyena fanining ta'lim metodologiyasi — bu gigiyena fanini o'qitishda qo'llaniladigan nazariy va amaliy metodlar, pedagogik strategiyalar, o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va talabalarning profilaktik bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks usullar va prinsiplardan iborat. Ushbu metodologiyaning asosiy maqsadi — talabalarda gigiyenik va profilaktik bilimlarni shakllantirish, ularni amaliyotda qo'llashga tayyorlash va sog'liqni saqlashning asosiy prinsiplarini tushuntirish.

Profilaktik kompetensiyalar bu – shifokorning ma'lum bir faoliyat meyorlari, tushunchalar va mulohazalarning subyektiv anglangan ifodasidir. Inson hayotida u insonning sog'lom faoliyati shakli sifatida namoyon bo'ladi.



## **1.2-Rasm. Tibbiy ta'lim talabarlari profilaktik kompetentligini rivojlantirish komponentlari**

Ikkinchidan, bo'lajak shifokor profilaktik kompetentligi uning ongi, hissi, irodasida ham namoyon bo'lib, uni o'z sohasiga doir sog'lom turmush -tarzini olib borishga qarorlar qabul qilishiga ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan, profilaktik kompetensiyalar shaxsning dunyoqarash darajasiga, shaxsiy javobgarlik hissiga bevosita bog'liq. Umumiy ma'noda, bo'lajak shifokorning profilaktik kompetentligi uch tarkibiy qism asosida shakllanadi. Bular – kasbiy ma'naviyat, kasbiy axloq va kasbiy madaniyatdir<sup>39</sup>.

Ushbu ilmiy tadqiqotimizda profilaktik kompetensiyalar va kasbiy faoliyat tarkibiy qismlarining o'zaro uyg'unligida gigiyena fani orqali tibbiy ta'lim talabalarining bo'lajak shifokor sifatida madaniyatining mohiyatida o'z ifodasini topadi. Shu sababli, har bir talaba o'zining kasbiy va profilaktik kompetentligi uchun shaxsiy - ma'naviy javobgarlikni his qilishi lozim. O'z oldiga qo'ygan maqsadlarini o'zi belgilashi, qaror qabul qilishi, shaxsiy xulq-atvorni rejalashtirishi hamda o'ziga bog'liq bo'lgan kasbiy faoliyatning asosiy bo'g'inini anglab yetish, shuningdek, yuksak professionallikni yuksak kasbiy madaniyatga, ijtimoiy faollik, shaxsiy ishonch, ongli motiv va odatiy xatti-harakatlar normalariga aylantirish - bugungi kunda oliy tibbiy ta'lim muassasalarining asosiy tarbiyaviy vazifasidir.

Tibbiyot xodimining profilaktik kompetentligi hamda kasbiy fazilatlari hamda ularni namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish doirasida biz gigiyena fanining ijtimoiy va kasbiy munosabatlar alohida sohasi sifatida aniqlash mumkin, deb hisobladik. shifokorlik kasbi – bu maxsus tayyorgarlik, tajriba natijasida olingan maxsus tibbiy nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar to'plamiga ega bo'lgan mutaxassisning mehnat turidir.

Olimlar tomonidan gigiyena sohasida tadqiq etilgan ilmiy ishlarga tayanib, profilaktik kompetensiyalar - tibbiy ta'lim talabalarining kelajakdagi kasbiy faoliyatini tartibga soluvchi, uning samaradorligini ta'minlovchi va muayyan

---

<sup>39</sup> Вахриева Н. Та'лим муассасалари mutaxassislari kasbiy kompetentligining tuzilishi // Современное образование, 2019. № 9 (82). -Б.7.

holatlarda tibbiy bilim hamda ko'nikmalarni qo'llashga yo'naltiruvchi hamda cheklovchi ichki, korporativ axloqiy meyorlardir, deb ta'kidlash mumkin<sup>40</sup>.

Bizning fikrimizcha, tibbiy ta'limda bugungi kunda jiddiy muammolardan biri - bu tibbiy ta'lim talabalari uchun kelgusidagi faoliyat texnologiyasining yetarli darajada rivojlanmaganligidir. Shu sababli, talabalar kasbiy madaniyatini va profilaktik kompetentligini gigiyena orqali rivojlantirish - zamonaviy texnologiyalarni (yangi pedagogik vositalar, psixologik qarashlar, usul va shakllar) ko'proq qo'llashga, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va ma'rifiy sharoitlarni, shifokorlarning ma'naviy qarashlarini rivojlantirishga javob beradigan dolzarb masala ekanligini ta'kidlash joiz.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida tibbiy ta'lim muassasalari talabalarida so'nggi uch yil ichida olib borilgan o'quv – tarbiyaviy ishlar rejasini o'rganib chiqib, talabalarning darsdan tashqari vaqtini, bo'lg'usi shifokor shaxsini, o'quv tarbiya jarayonida tibbiy madaniyatini rivojlanishi manfaatlaridan sifatli va oqilona foydalanish muammosi dolzarb, degan xulosaga keldik.

Umuman olganda, gigiyena fanida shifokorning profilaktik kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etib, tibbiyot xodimlarining bemorlar, ularning qapindoshlari, shuningdek, davolash jarayonida shifokorlarning o'zaro munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan holda, madaniy-axloqiy munosabatlarni qamrab olinishidir<sup>41</sup>.

- Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida shifokorning mavqeyi, kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan omil, shuningdek, shifokorlarga va umuman, sog'liqni saqlashga qo'yiladigan talablar ortadi. Ammo ijtimoiy shakllanishidan qat'iy nazar, muvaffaqiyatli davolanishning sharti tibbiyot kasbining insoniy mohiyati – azob-uqubatlarni yengillashtirish va bemorga yordam berish istagi bilan belgilanadigan muayyan axloqiy tamoyillarga muntazam rioya qilish talabi qo'yib kelingan va shunday bo'lib qoladi. Shunki davolanishning ushbu

---

<sup>40</sup> Taylor, S. Innovative Methods in Teaching Hygiene in Medical Schools. - London: Elsevier,2023. - P.65.

<sup>41</sup> Smith, J. Health Education and Hygiene: A Guide for Medical Educators. Philadelphia: W.B. Saunders Company, 2020. -P.78.

majburiy tamoyiliga amal qilinmasa, kasbiy ma'naviy-axloqiy meyorlarga rioya qilish haqida gap bo'lishi ham mumkin emas.

- Bir qator adabiyotlar tahlili va olimlarning gigiyena fanini rivojlantirishdagi qarashlari profilaktik kompetensiyalar mezonlarini aniqlash imkonini berdi:

- motivatsion mezon – ushbu mezon tibbiy ta'lim talabalarini ongli ravishda kasbiy faoliyatining mazmunidan kelib chiqib, uni fanlarni, jumladan, Gigiyena fanini o'zlashtirishga tibbiyotdagi zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishga, professionalizmni rivojlantirishga turtki bo'ladi. Bu mezon tibbiy ta'lim talabalari bo'lajak shifokor sifatida atrof-muhitga va jamiyatga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi.

- kognitiv mezon – ushbu mezon tibbiy ta'lim talabalarining gigiyena fanini o'rganish jarayonidagi ma'naviy – axloqiy g'oyalarini va uning tushunchalarini to'liqligi va hajmini hamda ular o'rtasidagi bog'liqligini ta'minlaydi.

- shaxsiy mezon – talabalarni gigiyena fani orqali tayyorlash jarayonida kasbiy fazilatlarni maxsus aspektini shakllantirish, jumladan insoniylik, intiluvchanlik, ma'suliyatlilik va boshqalar.

- faoliyat mezoni – ushbu mezon tibbiyot sohasida qabul qilingan gigenaga doir qarorlar, meyorlarga amal qilish hamda muntazam ravishda o'z ustida ishlab borishdan iborat<sup>42</sup>.

Shunday qilib, oliy tibbiy ta'limda talabalarining bo'lajak shifokor sifatida profilaktik kompetentligini ularga gigiyena fanini o'qitish va mutaxassisligi doirasida pedagogik jarayonni tashkil qilish orqali rivojlantirish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, gigiyena fanini o'rganish davomida tibbiy ta'lim talabalarining bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini oshirish, ularni ilmiy fikrlashga o'rgatish, o'quv faniga qiziqishini kuch aytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot

---

<sup>42</sup> Kadirova M. Tibbiy ta'lim japyonida kasbiy kompetentlikni metodik takomillashtirish texnologiyalari (tibbiyotda pedagogikani o'qitish misolida). Pedagogika fanlari doktori ... diss. – N., 2023. – B. 177.

mobaynida faolligini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Bunday faoliyatda fanning didaktik imkoniyatlarining ulushi kattadir.

Qolaversa, talabalarni gigiyena fani orqali profilaktik kompetentligini shakllantirishda hamda ularning tibbiy madaniyatini rivojlantirishda tibbiyot oliy o'quv yurtlari o'quv jarayonida alohida e'tibor berilib, uning uslubiy ta'minoti to'la yaratilishi zarur.

### **Birinchi bob bo'yicha xulosalar**

1. Gigiyena fanini o'qitish jarayonida talabalarni bo'lajak shifokorlar sifatida profilaktik kompetentligini ijtimoiylashuv komponentlaridan foydalanish, davlat ta'lim standartining maxsus talablari, o'quv dasturlari, amaliy mashg'ulotlar uchun tuzilgan uslubiy ko'rsatmalar, dars jarayonida yuzaga keladigan muammolarni modellashtirish hamda hal qilish xususiyatlaridan kelib chiqib belgilandi.

Ushbu qonuniyatlar va tendensiyalarni aniqlash oliy tibbiy ta'lim sohasidagi Gigiyenaning global vazifasi, innovasion pedagogik tizimlarni asoslash bilan bog'liqdir, ya'ni gigiyena fanini innovasion metod orqali o'qitish tizimini joriy etish - o'qitish tamoyillari va prinsiplariga asoslandi.

2. Tibbiy ta'lim talabalariga gigiyena fanini o'qitish orqali ularda quyidagi profilaktik kompetensiyalar shakllanishiga olib kelishi aniqlandi:

- talabalarni gigiyena doir voqealar asosida tibbiyot va sog'liqni saqlash sohasining yutuqlari va istiqbollarini obyektiv tahlil qilishga o'rgatish;

- tibbiyotning shakllanishi va rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini aniqlash;

- O'zbekiston va jahonda tibbiyotning o'ziga xos bulgan rivojlanish yo'lini asoslash;

- tibbiyot etikasi tamoyillarini singdirish;

- sog'lom turmush - tarzini rivojlantirish;

- yuqori axloqiy fazilatlar - o'z kasbiga muhabbat, burchga sadoqat, insonparvarlik va vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash.

## **II BOB. TIBBIY TA'LIMDA INTENSIV TEXNOLOGIYALAR ORQALI TALABALARNING PROFILAKTIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI.**

### **2.1-§. Bo'lajak shifokorlar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy didaktik texnologiyalari va ularning afzalliklari**

Bugungi kunda tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida gigiyena fanini samarali o'qitish uchun nafaqat, amaliy jarayonlar, balki texnologiya, multimedia, internet, yagona axborot muhiti va shunga o'xshash axborot-kommunikasion texnologiyalarning zamonaviy vositalaridan foydalanish o'zining samarasini berishi bilan birgalikda talabalarni ijodiy fikrlashga, ularni muammoni tahlil qilish va shu asosida xulosa qilishga o'rgatadigan texnologiyalarni qo'llash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda didaktik ta'lim texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish, ularni tibbiy ta'limda gigiyena fanini o'qitish jarayonlariga tadbiq etish zaruriyati dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Talabalarga bilim berishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, uslubiy talablariga ko'ra fan, texnika va ilg'or texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanish bugungi ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Didaktik ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonida talabalarda bilimga ishtiyoq va qiziqishlarini oshirish, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishlariga yordam beradi va yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi, ya'ni gigiyena fanini o'qitishda ta'lim texnologiyalarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi<sup>43</sup>.

Tibbiy ta'limda zamonaviy didaktik texnologiyalar - bu o'quv jarayonida yangi usullar va vositalarni qo'llash orqali talabalarning bilim olish jarayonini samarali tashkil qilishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar majmuidir. Bu

---

<sup>43</sup> Komilov N. Tibbiy ta'lim jarayonida xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. Pedagogika fanlari doktori...dissertatsiyasi. -Farg'ona.,2024. -B.118.

texnologiyalar o'qitish jarayonini interaktiv va talabaning individual ehtiyojlariga mos holda tashkil qilishga yo'naltirilgan. Ularning asosiy vazifasi o'quv jarayonini talabalar uchun qiziqarli va mantiqiy izchil holda tashkillashtirish, bilimlarni esa uzluksiz va ta'sirchan shaklda o'zlashtirishni ta'minlashdir.

Tibbiy ta'limda zamonaviy didaktik texnologiyalar quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Interaktivlik - ta'lim jarayonida talabalarni faol ishtirokchiga aylantirish, ularning bilimini chuqurroq va samarali o'zlashtirishga yordam berish.

Interaktivlik - ta'lim jarayonida talabalarni faol ishtirokchiga aylantirish uchun qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik yondashuvdir. Bu usul orqali talabalar passiv tinglovchi emas, balki jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi. Bu ta'lim modelining maqsadi talabalarni yangicha fikrlashga, bilimlarni mustaqil va chuqur o'rganishga, muammolarni hal qilishda faol qatnashishga undashdir<sup>44</sup>.

Interaktivlik quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

- faol ishtirok - talabalar o'zaro muloqot qilish, savol-javoblarda ishtirok etish, fikr almashish orqali bilimlarni chuqurroq o'zlashtiradilar.

- kreativ fikrlashni rivojlantirish — muammoli vazifalar va diskussiyalar orqali talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyati oshadi.

- muloqot va jamoaviy ish — interaktiv ta'lim jarayonida talabalar o'zaro hamkorlik qilib, jamoaviy faoliyat ko'nikmalarini shakllantiradilar.

- ta'lim jarayoniga qiziqishni oshirish — interaktiv usullar talabalarning qiziqishini saqlab qoladi va o'quv jarayoniga shijoat qo'shadi.

- mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish — talabalar o'z fikrlarini erkin ifoda qilish, mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Interaktiv ta'limda rolli o'yinlar, keyslar, guruhli muammolarni yechish, debatlar, simulyatsiya va boshqa faol usullar qo'llaniladi. Bunday yondashuv talabalarning o'qishga nisbatan qiziqishini oshirib, ularning bilim va ko'nikmalarini amaliy jihatdan mustahkamlaydi.

---

<sup>44</sup> Ермакова, Р.Б. Гигиенические методы преподавания и педагогические подходы в обучении. Дисс...канд.мед.наук. -Москва, 2021. -с.48.

2. Individuallashtirish - har bir talabanning o'qishga bo'lgan qiziqishi, qobiliyati va o'quv rejasiga muvofiq, shaxsiy ta'lim trayektoriyalarini yaratish.

Individuallashtirish - ta'lim jarayonida har bir talabanning o'ziga xos qiziqishlari, qobiliyatlari va o'quv maqsadlariga muvofiq, ular uchun shaxsiy ta'lim trayektoriyasini yaratishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Bu usul orqali talabalar o'zlarining o'qish ritmi, bilim darajasi va qiziqishlariga ko'ra ta'limni moslashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Tibbiy ta'limda individuallashtirishning asosiy afzalliklari:

-shaxsiy qiziqish va maqsadlarga yo'naltirish - talabalarning shaxsiy qiziqishlari va ular erishmoqchi bo'lgan maqsadlar asosida bilim berish, ta'lim jarayonini samarali va motivatsiyali qiladi.

- qobiliyatlar asosida rivojlantirish - har bir talabanning o'ziga xos qobiliyatini hisobga olib, ularning rivojlanishini ta'minlaydi, kuchli tomonlarini qo'llab-quvvatlaydi va kamchiliklarini bartaraf etishga yordam beradi.

- o'quv samaradorligini oshirish - har bir talaba o'zining shaxsiy ritmi va talablariga moslashgan usullar bilan ta'lim olish orqali bilimlarni chuqurroq va mustahkamroq o'zlashtiradi.

- mustaqillikni oshirish - individuallashtirilgan ta'lim talabalarni mustaqil o'quv jarayonini boshqarishga, shaxsiy maqsadlarini belgilashga va o'z o'qishlarini rejalashtirishga o'rgatadi<sup>45</sup>.

Individuallashtirilgan ta'lim modellari, masalan, shaxsiy o'quv rejasini, elektron o'quv platformalari yoki talabalarga maslahat berish orqali amalga oshiriladi. Bunday yondashuv talabalarning o'quv jarayoniga faolroq jalb etilishiga, shaxsiy rivojlanish yo'llarini belgilashga va bilimlarni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash - elektron ta'lim platformalari, virtual va kengaytirilgan reallik, masofadan o'qitish vositalaridan foydalanish.

---

<sup>45</sup> Lee, S.Y. Teaching Hygiene in East Asian Medical Education Systems. - Seoul: Seoul University Press, 2022. -P.195.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash - bu zamonaviy ta'lim jarayonida elektron ta'lim platformalari, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari, shuningdek, masofadan o'qitish vositalarini keng foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish va talabalarning o'quv jarayoniga qiziqishini ortirishga yo'naltirilgan yondashuvdir.

Tibbiy ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashning asosiy afzalliklari:

- talabalarga qulaylik va erkinlik yaratish - masofadan o'qitish va elektron platformalar orqali talabalar o'zlari uchun qulay vaqtda va joyda o'qish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa ularning mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

- ta'lim sifatini oshirish - virtual va kengaytirilgan reallik kabi texnologiyalar orqali real hayotiy sharoitlarni yaratish va simulyatsiyalar o'tkazish mumkin, bu esa talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

- o'quv jarayonini faollashtirish va qiziqishni oshirish - interaktiv platformalar va multimedia kontenti (video, audio, animatsiyalar) o'quv jarayonini jonli va qiziqarli qiladi.

- muammoli vaziyatlarni modellashtirish - talabalarni hayotiy holatlarga tayyorlash uchun real yoki virtual muhitda vaziyatlarni modellashtirish orqali murakkab muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

- har tomonlama o'quv ma'lumotlarni saqlash va tahlil qilish - elektron ta'lim platformalari o'quv jarayoni haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va talabalarning rivojlanishini kuzatish imkonini beradi<sup>46</sup>.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bugungi kun talablariga javob beradigan, zamonaviy bilimlarga ega va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Ular talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantirish imkonini beradi, shu

---

<sup>46</sup> Klein, P. (2014). Sanitation and Hygiene in Medical Practice. - Berlin: De Gruyter, 2018. -P.257.

bilan birga ta'lim jarayonini yangicha va samarali shakllarda tashkil etishga yordam beradi.

4. Muammoli ta'lim - talabalarni muammolarni tahlil qilish, yechimlar qidirish va mustaqil fikrlashga yo'naltirish.

Muammoli ta'lim - ta'lim jarayonida talabalarni muammolarni tahlil qilish, ularga samarali yechimlar topish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Bu usul talabalarning fikrlash faolligini oshirishga, ularni ko'proq mustaqil qarorlar qabul qilishga, jadal va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tibbiy ta'limda muammoli ta'limning afzalliklari:

-muammolarni tahlil qilish - talabalar murakkab va hayotiy misollar asosida tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar, bu esa ularga haqiqiy ish jarayonlariga tayyorgarlik beradi.

- mustahkam fikrlash va tanqidiy qarashni rivojlantirish — talabalar yechimlarni topish jarayonida turli nazariy qarashlarni qo'llab, mustaqil va tanqidiy fikrlashni o'rganadilar.

- mas'uliyat va avtonomlik — talabalar mustaqil ravishda muammolarni tahlil qilib, yechim topishga urinadilar, bu esa ularning o'z-o'zini boshqarish va mas'uliyatni his qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

- muammolarga ijodiy yondashish — muammoli ta'lim jarayonida talabalar turli usul va yechimlarni ishlab chiqishga yordam beradigan ijodiy ko'nikmalarni shakllantiradilar<sup>47</sup>.

Muammoli ta'lim, ayniqsa, tibbiy ta'limda talabalarni professional va hayotiy muammolarga tayyorlashda muhimdir. Bu usul ularga kasbiy faoliyatdagi murakkab va noaniq holatlarda tez va aniq qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi, shuningdek, ishonchli va yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlarini ta'minlaydi.

5. Ko'nikmalarga yo'naltirilgan ta'lim - nazariy bilimlar bilan birga amaliyotga yo'naltirilgan ko'nikmalarni rivojlantirish.

---

<sup>47</sup> Graham, L. Hygiene Education and Community Health Practices. - Cambridge: Cambridge University Press, 2019. -P.96.

Ko'nikmalarga yo'naltirilgan ta'lim - bu ta'lim jarayonida nazariy bilimlarning amaliy qo'llanilishiga qaratilgan o'qitish metodologiyasidir. Unda talabalarga o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtirish va uni real hayotda qo'llash uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga urg'u beriladi.

Ko'nikmalarga yo'naltirilgan ta'limning asosiy maqsadi - talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularni haqiqiy ish jarayonlariga yaqinlashtirish va ularda kerakli malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdir.

Bu ta'limning afzalliklari:

- nazariy va amaliy integratsiya - talabalar nazariy bilimlarni o'rganish bilan bir qatorda, ularni amaliy holatlarda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa bilimlarning mustahkamlanishiga yordam beradi.

- mustahkam malaka va ko'nikmalar - ko'nikmalarga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida talabalar turli o'quv trenajyorlari, simulyatsiyalar va amaliyotlarda ishtirok etib, ishonchli va mustahkam ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

- professional tayyorgarlik — talabalar real ish muhitida uchrashi mumkin bo'lgan muammolar va vaziyatlarni bajarishga tayyor bo'ladilar. Bu ularning kasbiy ish faoliyatiga tayyorligini oshiradi.

- ta'limdagi faol ishtirok — talabalar o'z bilimlarini amalda qo'llash orqali o'qish jarayonida faol ishtirok etadilar, bu esa ularning qiziqishini oshiradi va samaradorlikni ko'taradi.

Tibbiy ta'limda ko'nikmalarga yo'naltirilgan ta'lim o'ta muhim, chunki bu shifokorlarga zarur bo'lgan amaliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi. Masalan, simulyatsiya laboratoriyalari va virtual trenajyorlar yordamida talabalar aniq va yuqori malakali ko'nikmalarni ishlab chiqadilar, bu ularning kasbiy faoliyatida juda muhimdir.

Zamonaviy didaktik texnologiyalar orqali o'quv jarayonini individual va ta'sirchan tashkil etishga erishiladi, bu esa bilimlarning yanada chuqur va tizimli o'zlashtirilishiga imkon beradi.

Ma'lumki, bo'lajak shifokorning profilaktik kompetentligi uchun yangi yo'nalishlarni shakllantirish, ularning didaktik imkoniyatlarini o'rganish – tibbiy

ta'lim tizimida uchinchi avlod standartlariga o'tish va o'qitishning umumiy metodologiyasi, o'ziga xos uslub hamda texnikasini ham qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda.

Mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, tibbiyotning turli sohalaridagi integrasion jarayonlar ilmiy-intensiv texnologiyalarning rivojlanishi bilan birgalikda rivojlanmoqda.

Oliy tibbiy ta'limning hamma bosqichlarida va ijtimoiy taraqqiyotning barcha sohalarida axborot hamda bilimning o'rni oshib bormoqda. Axborot jamiyatida bilim, malaka inson hayotidagi ustuvor qadriyatlarga aylanib bormoqda. Ohirgi yillarda tibbiy ta'lim muassasalari talabalarining profilaktik rivojlanishini rag'batlantiradigan, uning potensial imkoniyatlarini faollashtiradigan hamda tanqidiy fikrlashni shakllantiradigan ta'limning bu turiga yo'nalish tobora keng tarqalmoqda. Ushbu turdagi mashg'ulotlar doirasida talaba o'zini o'quv-bilish faoliyatining faol sub'ekti sifatida namoyon etadi<sup>48</sup>.

Tibbiy ta'lim talabalariga gigiyena fanini o'qitish mobaynida ularning profilaktik kompetentligini rivojlantirish didaktik modelining o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatib o'tamiz.

Didaktik model profilaktik , amaliy aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich rivojlanish nazariyasi hamda muammoli ta'lim nazariyasiga asoslangan bo'lib, u o'z navbatida 2 muhim maqsadni o'z ichiga oladi:

Birinchisi, gigiyena fanini o'rganishda talabalarning bilimlarni o'zlashtirish jarayonini ongli ravishda profilaktik boshqarishga yo'naltirib, e'tiborini tafakkur hamda aql madaniyatining faol, mustaqil rivojlanishiga qaratadi.

Ikkinchisi, profilaktik fikrlashga, o'z-o'zini rivojlantirishga undaydi, chunki talabaning o'zi muammoni o'zi hal etishi, yangi harakat usulini topishi lozim. Bu nazariyaga asoslanib, talabalar bilim faoliyatining evristik hamda profilaktik darajasiga qaratiladi. Misol uchun, talaba "Ovqatlanish va salomatlik" mavzusini o'rganishining turli bosqichlarida quyidagi funksiyalarni bajaradi. Avvaliga u asosiy

---

<sup>48</sup> Royce, W. (2012). Medical Hygiene: From Theory to Practice. - New York: Springer Science, 2021. -P.200.

tushunchalarning konturlarini belgilashga hamda ularning ierarxiyasi, didaktik aloqalarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa uning sog‘lom turmush -tarzini olib borishida, profilaktik kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi<sup>49</sup>.

Ushbu didaktik model o‘quv jarayonida talabalarning profilaktik faolligini rivojlantirishning ob‘ektiv zarurati hisoblanib uni nazariy, amaliy jihatdan samarali amalga oshirish uchun pedagogik shart-sharoitlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi o‘rtasidagi ziddiyatlarning oldini olishga yordam beradi<sup>50</sup>.

Bunday shakldagi didaktik model tuzilishidan maqsad - talabalarning o‘quv jarayonida profilaktik kompetentligini rivojlantirish sharti sifatida alohida ajratilib ko‘rsatiladi. Talabalarning profilaktik faolligini rivojlantirish maqsadini ochib berganda, biz uning asosiy xususiyatlaridan kelib chiqib, ishga yondashamiz. Psixologik hamda pedagogik nuqtai nazardan, maqsad faqat mantiqiy emas, balki yangi bosqichlar, mexanizmlarni kognitiv jarayonga kiritishga asoslangan ta‘lim mazmunini assimilyasiya qilish jarayonini tashkil etishning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunda jamiyatning profilaktik salohiyatini rivojlantirishga, har bir talabaning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishga maqsadli ta‘sir etilib, asosiy didaktik maqsad - o‘quv jarayonida talabaning profilaktik qobiliyatini rivojlantirish uchun uslubiy tizim yaratish orqali tibbiyot tizimining dolzarb muammolarini hal etishga ko‘maklashadi, ya‘ni talaba gigiyena fanini o‘rganish orqali kelajakda sog‘lom turmush -tarzi olib borishning kamchiliklari va yutuqlarini tahlil qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, gigiyena fanini o‘qitishda quyidagi didaktik vazifalarni belgilab oldik:

- talabalarning reflektiv profilaktik faoliyat usullari hamda texnikasi bilan qurollantirish;
- talabalarning profilaktik tafakkurini rivojlantirish;
- talabalarning kognitiv faolligini rag‘batlantirish;

---

<sup>49</sup> Liliana-Elisabeta Radua, Fatih Hazarb, Alexandru-Rareş Punis. Anthropometris and Physisal Fitness Sharasteristiss of University Students // Procedia - Sosial and Behavioral Scienses, № 149, 2014. -P. 798.

<sup>50</sup> Популо Г. М. Педагогические условия формирования здорового образа жизни студентов в зависимости от характерологических свойств личности: Дис. ... канд. пед. наук. – Самара, 2006. –С. 125.

- yangi bilimlarni o‘zlashtirgan talabalar hamda ularni profilaktik jihatdan qo‘llash<sup>51</sup>.

Gigiyena fanini tibbiy ta’lim talabalariga o‘rgatish davomida ularning profilaktik kompetentligiga alohida e’tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi. Profilaktik faoliyat tarkibidagi kognitiv komponent faoliyatda, zamonaviy ta’lim jarayoni kontekstida uning har xil ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. Ushbu komponent quyidagi bilimlarni o‘z tarkibiga oladi:

- nazariy, shu jumladan, profilaktik faoliyatni amalga oshirish shakllari, tamoyillari, maqsadlari, mazmuni, usullari hamda shakllari haqidagi bilimlar;
- profilaktik faoliyatning mohiyatini bilishni metodologik, odamning atrofidagi dunyo bilan munosabatlarini o‘z ichiga olgan usullaridan biridir;
- texnologik, rivojlanayotgan o‘quv texnologiyalari hamda ularni amalga oshirish haqidagi bilimlarga asoslangan<sup>52</sup>.

Kognitiv komponentni profilaktik faoliyat tarkibidagi tahlili bilim, ko‘nikma hamda ularni shakllanishining mezon ko‘rsatkichi sifatida ajratishga imkoniyat beradi.

Gigiyena fanini o‘qitish jarayonida talabalarning faol kognitiv faoliyati jarayonida shakllantirilishi lozim bo‘lgan har bir komponent uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni ajratib o‘tamiz:

- 1) o‘z-o‘zini tarbiyalash orqali profilaktik faoliyat haqidagi bilimlarini to‘ldirish, chuqurlashtirish hamda rivojlantirish;
- 2) asosiy maqsadni aniqlab, matndagi asosiy muammolarni sarlavha bo‘yicha ajratib ko‘rsatish;
- 3) Gigiyena fanini mukammal bilishi hamda ularni umumiy kasbiy tayyorgarligi bilan bog‘lay olishi;
- 4) mavzu bo‘yicha materiallarni tanlash, tizimlashtirish hamda uning asosida elementar tadqiqotlarni o‘tkazish<sup>53</sup>.

---

<sup>51</sup> Рахимова Ю.Э. Формирование профессиональной компетентности учащихся медицинских колледжей. Автореферат дисс. канд. пед. наук.- Тошкент, 2012. –С.12.

<sup>52</sup>

<sup>53</sup>Taylor, S. Innovative Methods in Teaching Hygiene in Medical Schools. - London: Elsevier,2023. -

Gigiyena fanida konstruktiv komponent quyidagi ko'nikmalarni o'z tarkibiga oladi:

- 1) Profilaktik faoliyatga oid reja tuzish, uning asosida hayot tarzini olib berish;
- 2) Mavzularni mantiqiy qismlarga ajratish, har birining asosiy fikrini aniqlash;
- 3) Gigiyenaga oid bilimlar asosida taqdim etilgan materialni tayyorlash hamda umumlashtirish<sup>54</sup>.

Gigiyena fanini o'rganish mobaynida talabalarda quyidagi ko'nikmalar shakllanadi:

- 1) o'zlari hamda guruhdoshlarining bilimlari, harakatlariga yetarlisa baho berish;
- 2) boshlash, tugatish, to'xtatish, yo'nalishni (mavzuni) o'zgartirish, mashqni davom ettirish
- 3) jismoniy tarbiyani asosiy tushunchalari va usullari;
- 4) sodda mashqlar majmuasini tuza olishi;
- 5) hozirgi zamonda Gigiyenaning o'rni va roli;
- 6) tibbiyot anjomlari bilan ishlashda texnika havfsizligi va gigiyenasini bilish<sup>55</sup>.

Tashkiliy komponent quyidagi ko'nikmalar bilan ifodalanadi:

- 1) individual ishni tashkil etish;
- 2) o'rtoqlariga yordam berish;
- 3) darsdan tashqaridagi mustaqil ta'limga oid muhokamalarda ishtirok etish<sup>56</sup>.

Profilaktik ko'nikmalarning shbu tuzilmasini aniqlash gigiyena darslarida mazkur ko'nikmalarni samarali hamda sifatli shakllanishini ta'minlash uchun o'quv mashg'ulotlari tizimini loyihalashtirishga o'tishga asos bo'ladi.

---

P.301.

<sup>54</sup> Фёдорова, И.В. Модернизация образовательных технологий в преподавании гигиенического цикла. Дисс... канд.мед.наук. -Нижегородск, 2018. -с.114

<sup>55</sup> Сидоров, В.П. Инновационные технологии в преподавании гигиенических дисциплин. Дисс...канд.мед.наук. -Москва, 2019. -с.105.

<sup>56</sup> Bennett, L. Teaching Hygiene in Medical Education: Interactive Approaches. - Oxford: Oxford University Press. 2023. -P.109.

Gigiyena fanida talabalarning profilaktik kompetentligini rivojlantirishda o‘qituvchining didaktik faoliyati quyidagilarni o‘z tarkibiga oladi:

- profilaktik faollikni rivojlantirish uchun talabalar faoliyatini rag‘batlantirish;
- talabalarning profilaktik faolligining rivojlanish darajasini diagnostikasi;
- gigiyena fanini o‘qitish jarayonida talabalarning profilaktik faolligini rivojlantirish uchun mashqlar tizimini ishlab chiqish<sup>57</sup>.

Shakllari:

- individual hamda guruhli tarbiyaviy vazifalarni bajarish;
- o‘yinlardan foydalanish;
- loyihalarni amalga oshirish;
- profilaktik faollikni rivojlantirish bo‘yicha jamoaviy ishlar;
- profilaktik vazifalarni bajarish;
- katalog<sup>58</sup>.

Usullari:

evristik, muammo qidirish, axborotli, reproduktiv, tadqiqot usuli

Talabalarning faoliyati:

- o‘quv-bilish faoliyatining usullarini ishlab chiqish hamda ularni bilimlarni o‘zlashtirishda qo‘llash;

- profilaktik faollikni rivojlantirish vazifalarini bajarish<sup>59</sup>;

Shakllari:

- profilaktik vazifalarni guruh, juftlik bilan bajarish;
- profilaktik vazifalarni bajarish;
- profilaktik loyihalar;
- frontal
- profilaktik faollikni rivojlantirish bo‘yicha jamoaviy ish<sup>60</sup>.

---

<sup>57</sup> Bennett, L. Teaching Hygiene in Medical Education: Interactive Approaches. - Oxford: Oxford University Press. 2023. -P.118.

<sup>58</sup>Komilov N. Tibbiy ta’lim jarayonida xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. Pedagogika fanlari doktori...dissertatsiyasi. -Farg‘ona.,2024. -B.153.

<sup>59</sup>  
<sup>60</sup> Komilov N. Tibbiy ta’lim jarayonida xorijiy talabalar eksklyuziv kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. Pedagogika fanlari doktori...dissertatsiyasi. -Farg‘ona.,2024. -B.100.

Usullari:

- talabalarning profilaktik topshiriqlarni bajarish bo'yicha mustaqil ishlari;
- elementlarni yangi vaziyatga o'tkazish bo'yicha mashqlarni bajarish;
- profilaktik faoliyatni izlash; sintetik; miya bo'roni; nominal guruhlar usuli.

Oliy ta'lim tizimini qayta qurish hamda talabalarni o'qitish sifatini yaxshilash - talabalarni o'quv jarayonida mustaqil, profilaktik, didaktik faoliyatni qo'llab-quvvatlaydigan, rag'batlantiradigan turli xil o'qitish usullarini ishlab chiqish hamda qo'llash bilan bog'liq. Shu munosabat bilan, o'quv jarayonida talabalarning profilaktik faolligini rivojlantirish mezonlarini aniqlash muammosi paydo bo'ladi.

Pedagogik hodisalarning shakllanish ko'rsatkichlarini ajratish har qanday ilmiy izlanish doirasida qiyin muammo sanaladi. Umumlashtirilgan rejada profilaktik kompetentlik mezonlarini, qarorni qabul qilish, maqsadlarini belgilash, o'z faoliyatini tahlil etish, o'zgaruvchan holatlarni hisobga olgan holda sozlash qobiliyati deb hisoblash mumkin.

Didaktik faoliyat ko'nikmalarining ta'rifiga asoslanib (bilimga, ijodkorlikka, talabaning individualligi hamda hokazolarga bog'liqlik), biz talabalarning oliy ta'limda o'qish jarayonida profilaktik kompetentligining rivojlanish mezonlari hamda darajasini aniqladik:

Motivatsion-qiyamat mezon- bu mezon talabaning o'zini o'zi rivojlantirishga bo'lgan qiziqishi, mavzuga yo'naltirilishi va profilaktik g'oyalarni amalda qo'llash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Talabaning o'zini-o'zi tashkil etish darajasi, kasbiy jihatdan o'zini tasdiqlashga intilishi, shuningdek, madaniyatlararo muloqotda o'zini namoyon qila olish qobiliyati ushbu mezonning asosiy qismlarini tashkil etadi.

Kognitiv mezon- bu yo'nalishda talabalar amaliy mashqlarni o'zlashtirishdagi faolligi va intellektual tashabbuslari baholanadi. Kognitiv ijodkorlik, profilaktik tafakkur darajasi, mavzu bo'yicha o'quv materialini chuqurroq izlanish orqali o'zlashtirish qobiliyati kognitiv mezonning muhim jihatlaridir. Bunda talabalarning mavzuga doir chuqurroq bilim olish va tahlil qilish qobiliyati rivojlantiriladi<sup>61</sup>.

---

<sup>61</sup> Kadirova M. Tibbiy ta'lim jarayonida kasbiy kompetentlikni metodik takomillashtirish texnologiyalari (tibbiyotda pedagogikani o'qitish misolida). Pedagogika fanlari doktori ... diss. –

Operativ faoliyat mezonlari- ushbu mezon talabaning profilaktik qobiliyat va ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil ravishda yangi faoliyat usullarini qo'llay olish darajasini ifodalaydi. Bunda talabalarning tahlil qilish, xulosa chiqarish, evristik metodlarni qo'llash, assotsiativ mexanizmlar orqali yangi bilimlarni to'plash va tajriba orttirish qobiliyatlari rivojlanadi. Operativ mezon profilaktik faoliyatni amaliyotda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yangiliklarni qamrab olish darajasini o'zida aks ettiradi <sup>62</sup>.

Ushbu mezonlarga muvofiq gigiyena fanini o'qitish jarayonini quyidagi didaktik faoliyat darajalari aniqlandi:

Birinchi daraja – (past) bu profilaktik faoliyatga qiziqish, uzoq hamda katta intellektual sa'y -harakatlarni talab etadigan amaliy vazifalariga duch kelganda, salbiy his-tuyg'ular tajribasi hamda profilaktik kompetentlikning yo'qligi bilan tavsiflanadi. Profilaktik faollik faol, lekin motivlar dominant emas deganidir, ya'ni ular o'qituvchi tomonidan modellashtirish uchun mo'ljallangan.

Ikkinchi daraja – (o'rta) bu daraja reproduktiv faol uslub, faoliyat talabalari guruhiga xosdir. Amaliy jihatdan, u gigiyena faniga oid ma'lum mashqlarni bajarishi mumkin, faoliyatda – bu tayyor texnikalarni o'zlashtirishdir. Bunday holda, profilaktik faoliyat ijobiy his-tuyg'ular bilan birga keladi, lekin ular profilaktik kompetentlikdan kelib chiqmaydi. O'qituvchining nazorat qiluvchi roli saqlanib qolgan.

Uchinchi daraja – (yuqori) profilaktik kompetentlikka ega talabalar faoliyati. Topshiriqlarni bajarishga qiziqish ro'y beradi. Bu daraja o'z-o'zini o'qitish, o'zini anglash jarayonida profilaktik kompetentsiyaga ega va faol ishlash ko'nikmalarining rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Bu o'qituvchining murakkab o'quv muammolarini hal etishda ahamiyatsiz ishtiroki bilan sodir bo'ladi.

---

Namangan., 2023. – B. 178.

<sup>62</sup> Kadirova M. Tibbiy ta'lim jarayonida kasbiy kompetentlikni metodik takomillashtirish texnologiyalari (tibbiyotda pedagogikani o'qitish misolida). Pedagogika fanlari doktori ... diss. – Namangan., 2023. – B. 93.

Demak, talabalar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning didaktik ko‘rsatkichlari - ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlaydigan asosiy vositadir.

Profilaktik kompetentsiyalarni shakllantirishning didaktik imkoniyatlari – talaba faoliyatining muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlovchi xususiyatlar yoki fazilatlar sifatida yaqqol ko‘rinishi mumkin, ya’ni bir insonni boshqasidan ajratib turuvchi va muvaffaqiyatli faoliyatda ko‘rinadigan individual sifatlar va hokazo.

Profilaktik kompetentsiyalarni shakllantirish jarayonida didaktik imkoniyatlar ta’lim jarayonida talabalarga profilaktik bilimlar, ko‘nikmalar va amaliy tajriba berishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu imkoniyatlar orqali talabalarning kasbiy va amaliy tayyorgarligini oshirish, profilaktik tibbiy xizmat ko‘rsatishdagi mahoratini shakllantirish mumkin.

Profilaktik kompetentsiyalarni shakllantirish uchun quyidagi didaktik imkoniyatlar mavjud:

- nazariy va amaliy bilimlarni uyg‘unlashtirish- profilaktik tibbiyotda nazariy bilimlar amaliyot bilan mustahkam bog‘liq bo‘lgani sababli, darslarda nazariy bilimlarni amaliy tajribalar bilan boyitish zarur. Bunda simulyatsiya darslari, real hayotiy vaziyatlar bo‘yicha tahlillar, voqelik modellashtirish (masalan, muayyan kasalliklarning oldini olish choralari bo‘yicha misollar) orqali talabalarga puxta bilimlar beriladi.

- muammoli ta’lim metodlari- muammoli ta’lim usullari talabalarni mustaqil fikrlashga, muammolarni tahlil qilishga va samarali yechim topishga yo‘naltiradi. Bu usullar profilaktik kompetentsiyalarni rivojlantirish uchun ayniqsa foydali, chunki ular talabalarni real vaziyatlarda muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi.

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish - elektron o‘quv platformalari, masofaviy ta’lim tizimlari va kengaytirilgan real vaqtdagi texnologiyalar talabalar uchun o‘quv jarayonini yanada qulay va samarali qilishga yordam beradi. Profilaktik kompetentsiyalarni rivojlantirishda bunday

texnologiyalar talabalarga tibbiy masalalarni o'rganish va hal qilishda interaktiv imkoniyatlarni taqdim etadi.

- guruhiy ishlash va interaktiv metodlar - jamoa bilan ishlash, guruhlarda muhokama va seminarlar o'tkazish orqali talabalar bir-biridan o'rganadi va bilimlarini oshiradi. Bu yondashuv ularga o'z fikrlarini himoya qilish, muammolarni tahlil qilish va ularni hal qilishda jamoaviy yondashuvni qo'llash imkoniyatini beradi.

- individuallashtirish va shaxsiy o'quv yo'nalishlarini yaratish - har bir talabaning o'ziga xos qobiliyatlari, qiziqishlari va kasbiy maqsadlariga asoslangan o'quv dasturlari ishlab chiqish profilaktik bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish imkonini beradi. Bu orqali talabalarning o'ziga xos o'quv trajektoriyasi yaratiladi va ularning bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

- amaliy tajriba va klinik o'quv dasturlari- talabalar profilaktik muammolarni amaliy tarzda o'rganish uchun klinik o'quv dasturlariga, xususan, mahalliy poliklinikalar yoki tibbiyot muassasalarida amaliyot o'tash imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim. Bu ularga o'rgangan nazariy bilimlarini real hayotda sinab ko'rish imkonini beradi.

-reflektiv o'qitish usuli - bu usul orqali talabalar o'z o'quv jarayonidagi kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilishi, o'zlarini baholashi hamda rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashi mumkin. Reflektiv ta'lim, shuningdek, ularga o'z bilimlarini mustahkamlash va kasbiy faoliyatini takomillashtirish uchun istiqbolli yo'nalishlar tanlashda yordam beradi<sup>63</sup>.

Ushbu didaktik imkoniyatlar profilaktik tibbiyot yo'nalishidagi talabalarning tayyorgarligini oshirish, ularni amaliy jihatdan tayyorlash, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Profilaktik kompetentlikni talabalarning bo'lajak tibbiyot xodimlari sifatida kelgusidagi kasbiy faoliyatida tutgan alohida o'rnini o'rganish, kishilar o'rtasidagi

---

<sup>63</sup> Wang, X. Public Health and Hygiene Education in China: A Modern Approach. - Beijing: China Medical Publishing House, 2023. -P.82.

munosabatda roli funksional shart-sharoit sifatida ham ko‘rinishi va bu orqali tarbiyaviy, ta’limiy dunyoqarashga oid vazifalarni bajarishi mumkin, degan xulosa chiqarish imkonini beradi.

O‘sib kelayotgan, yosh avlod uchun kerakli profilaktik tajribani o‘zlashtirish, nafaqat boshqa insonlar bilan bevosita o‘zaro bog‘lanish jarayonlarida balki kasbiy faoliyatni samarali tashkil qilish uchun ham zarur. Har bir inson o‘zi uchun kerakli bo‘lgan vaziyatlar xarakteri haqidagi ma’lumotlarni olish uchun zarur bo‘lgan vositalar: ijtimoiy jarayonlar, omaviy axborot vositalari, turli xil mutaxassislik doirasidagi adabiyotlardan tashkil topishi mumkin.

Shu sababli, albatta har bir tibbiy ta’lim talabalariga bo‘lajak shifokorlar sifatida kasbiy faoliyatiga doir integrasion profilaktik kompetentlilik haqida ham gapirish zarur, ba’zi bir alohida hollar bundan mustasno, bu jarayonga maxsus, mutaxassislikga doir ta’lim kuchli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bugungi kunda gigiyena fanida qo‘llaniladigan didaktik texnologiyalar ta’limda qo‘llaniladigan an’analarni yanada rivojlantirib, ushbu sohada juda keng qo‘llanilmoqda. Bunday o‘qitish o‘qituvchining bilim berish jarayonidagi rolini yanada keng gaytiradi va yangilaydi. Bunda Gigiyena fani o‘qituvchisi o‘zlashtirish jarayonini muvofiqlashtirishi, yangiliklar va innovatsiyalarga mos ravishda o‘qitayotgan fanini, amaliy mashg‘ulotlarni muntazam mukammallashtirishi, saviya va ijodiy faoliyatini yanada chuqurlashtirishi talab etiladi. Bunda o‘quv va amaliy materiallari va mazmunini har bir talabaning shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlariga qarab moslashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu albatta, ta’lim samaradorligini oshishiga olib keladi. Shu sababli, Gigiyena fanini o‘qitish pedagogikaning asosiy xarakteristikasida ham o‘z o‘rnini topgan, ya’ni kommunikativ tarkibiy qism va uning amalga oshirilishi, o‘quv materiallarini yetkazish, uning tarkibini to‘g‘ri tanlash va asoslash, o‘quv, amaliy darslar mazmunini talabaning shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlariga intensivligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

## **2.2.-§ Intensiv texnologiyalar va bo‘lajak shifokorlarning profilaktik kompetensiyasini rivojlantirish jihatlari**

Intensiv texnologiyalar tibbiy ta'limda bilim olish jarayonini samarali va tezlashtirish uchun qo'llaniladi. Bu texnologiyalar o'quvchilarga qisqa vaqt ichida ko'proq ma'lumot olish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va murakkab klinik vaziyatlarga tayyor bo'lish imkoniyatini yaratadi.

Intensiv ta'lim texnologiyasidan foydalanganda o'qituvchi butun guruh bilan (yangi narsani aytib beradi, tushuntiradi, ko'rsatadi, o'rgatadi va hokazo) va individual (talabalarning mustaqil ishlarini boshqaradi, nazoratni amalga oshiradi va hokazo) ishlaydi. Talabalarning faoliyati o'qituvchi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Intensiv ta'lim texnologiyasini qo'llash kontekstida o'rganish asosan faol mustaqil faoliyatga aylanadi: majburiy va qo'shimcha adabiyotlarni o'qish, referat ishi, turli darajadagi murakkablikdagi muammolarni hal qilish, laboratoriya va amaliy ishlarni bajarish, o'qituvchi bilan individual ishlash, bilimlarni nazorat qilish va h.k.

Intensiv ta'lim texnologiyasi barcha turdagi nazoratni amalga oshirishni o'z ichiga oladi: o'qituvchi nazorati, o'z-o'zini nazorat qilish, talabalarning o'zaro nazorati, texnik vositalar yordamida nazorat qilish va boshqalar.

Intensiv texnologiyalarni tibbiy ta'limda qo'llashning afzalliklari:

1. Vaqtni samarali boshqarish: Tez o'rganish imkoniyatlari va qisqa vaqt ichida ko'proq bilim olish.
2. Amaliy ko'nikmalarni oshirish: Simulyatsiya va VR texnologiyalari talabalarni haqiqiy klinik holatlarga tayyorlaydi.
3. Individual yondashuv: Talabalar o'z ehtiyojlariga mos tarzda o'rganishlari mumkin.
4. Interaktivlik: Talabalar darslarga faol qatnashib, o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi<sup>64</sup>.

**1. Vaqtni samarali boshqarish** — bu o‘quv jarayonida vaqtni optimallashtirish va talabalar uchun eng samarali ta’lim jarayonini yaratishning muhim omili hisoblanadi. Tibbiy ta’limda bu ko‘nikma, ayniqsa intensiv texnologiyalar yordamida o‘quvchilarga qisqa vaqt ichida ko‘proq bilim olish imkoniyatini yaratish uchun ishlatiladi. Vaqtni samarali boshqarishning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

A) Tez o‘rganish imkoniyatlari - intensiv texnologiyalar, masalan, simulyatsiyalar, virtual reallik (VR) va onlayn ta’lim platformalari yordamida talabalar vaqtni tejash va o‘rganish jarayonini tezlashtirishlari mumkin. O‘quvchilar darslar va amaliy mashg‘ulotlarni ko‘proq interaktiv tarzda o‘rganishadi, bu esa o‘z navbatida bilimni tezroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Masalan, VR va AR texnologiyalari orqali talabalar o‘z ko‘nikmalarini haqiqatga yaqin holatlarda sinab ko‘rishlari mumkin, bu esa o‘rganish jarayonini tezlashtiradi.

B) Tezkor bilim olish - intensiv ta’lim texnologiyalari talabalar uchun qisqa vaqt ichida kengroq bilim doirasini o‘zlashtirish imkoniyatini beradi. Elektron o‘quv resurslari va onlayn platformalar yordamida talabalar darslarni o‘z vaqtida va o‘zlarining qulayliklariga mos ravishda o‘rganishlari mumkin. Bu, ayniqsa, intensiv tibbiy ta’limda, kasalliklarni tashxislash va davolash kabi murakkab mavzularni o‘rganish uchun foydalidir.

D) Vaqtni optimallashtirish - vaqtni samarali boshqarish texnologiyalari yordamida talabalar nafaqat bilim olish, balki amaliy ko‘nikmalarni ham tez va samarali o‘rganadilar. Masalan, tibbiy simulyatsiya markazlarida talabalar bir necha klinik holatni bir necha daqiqada simulyatsiya qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularni yanada tajribali va tezkor qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi.

E) O‘quv dasturlarining moslashuvchanligi - intensiv texnologiyalar, ayniqsa, masofaviy o‘qitish va aralash ta’lim (blended learning) modelida, talabalar uchun o‘quv jarayonini moslashuvchan qiladi. Talabalar o‘z vaqtlarini boshqarib, istalgan vaqtda darslarni o‘zlashtirishlari mumkin. Bu vaqtni samarali boshqarishga yordam beradi, chunki talaba kerakli vaqtni ajratib, bilimni tezroq o‘zlashtirishi mumkin.

F) Eng yaxshi amaliyotlarni tezkor ko‘rib chiqish - yangi texnologiyalar yordamida talabalar turli amaliyotlarni va klinik holatlarni tezkor ravishda ko‘rib chiqishlari mumkin. Masalan, simulyatsiya va virtual realite tizimlarida talaba bir necha klinik holatlarni bir vaqtda ko‘rib, har birining yechimlarini tezda o‘rganishi mumkin. Bu ta'lim jarayonida vaqtni samarali boshqarishga yordam beradi va bilim olish jarayonini tezlashtiradi.

G) O‘rganish jarayonining individualizatsiyasi -vaqtni samarali boshqarish texnologiyalari talabalarni o‘zlarining shaxsiy tezligida o‘rganishga imkon beradi. Masalan, talabalar o‘zlariga mos o‘qish rejimini tanlab, kerakli mavzularni chuqur o‘rganishlari mumkin. Bu esa o‘quv jarayonini yanada samarali va tezlashtiradi, chunki har bir talaba o‘ziga qulay va samarali bo‘lgan metodlarni tanlash imkoniyatiga ega.

H) Interaktivlik va faol ishtirok - vaqtni samarali boshqarishning yana bir jihati interaktiv darslar va mashg‘ulotlardir. Bu turdagi mashg‘ulotlar talabalarni faol ishtirok etishga undaydi va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini tezlashtiradi. Interaktiv ta'lim tizimlarida talabalar o‘z bilimlarini tezda baholashlari va zarur bo‘lganda qayta ishlashlari mumkin, bu esa vaqtni tejashga yordam beradi.

Vaqtni samarali boshqarish intensiv texnologiyalar yordamida tibbiy ta'limda talabalar uchun ko‘proq bilim olish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi. Bu texnologiyalar, o‘quvchilarning o‘z vaqtlarini boshqarish, dars materiallarini tezroq o‘zlashtirish va tajribali mutaxassislar sifatida rivojlanishlariga yordam beradi. O‘qish jarayonini optimallashtirish va samarali qilish uchun intensiv texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini tez va samarali rivojlantirishga yordam beradi. Shu tarzda, intensiv texnologiyalar tibbiy ta'limda talabalarni samarali o‘qitish, ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularni professional faoliyatga tayyorlashda katta rol o‘ynaydi. Bu texnologiyalar o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va tibbiy ta'lim sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

## **2. Amaliy ko‘nikmalarni oshirish.**

Simulyatsiya va virtual reallik (VR) texnologiyalari tibbiy ta'limda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda samarali vositalar sifatida keng qo‘llanilmoqda. Bu texnologiyalar talabalarni haqiqiy klinik holatlarga tayyorlashda bir nechta afzalliklarga ega. Ular orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham tez va samarali o‘rganishlari mumkin. Quyida bu texnologiyalar yordamida amaliy ko‘nikmalarni oshirishning asosiy jihatlari ko‘rsatilgan:

A) Simulyatsiya va VR texnologiyalarining ta'siri - simulyatsiya va VR texnologiyalari talabalarni haqiqiy klinik vaziyatlarga tayyorlashda yordam beradi. Bu texnologiyalar real tibbiy amaliyotda uchraydigan turli holatlarni yaratishga imkon beradi, bunda talabalar o‘zlarining klinik ko‘nikmalarini xavfsiz va nazorat qilingan muhitda sinab ko‘rishlari mumkin. Masalan, VR yordamida talaba jarrohlik amaliyotini, bemorlarni baholashni yoki jiddiy tibbiy holatlarda qarorlar qabul qilishni tajriba qilishi mumkin, real bemorlar bilan ishlashdan oldin.

B) Xavfsiz va nazorat qilingan muhit - simulyatsiya va VR texnologiyalari talabalarni xavfsiz muhitda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi. Tibbiy xatoliklar va noxush holatlar yuzaga kelganida, bu texnologiyalar talabaga qandaydir salbiy oqibatlariga olib kelmasdan o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Talabalar turli kasalliklar, jarohatlar va favqulodda holatlar bilan ishlashni o‘rganib, haqiqiy bemorlar bilan ishlashdan oldin o‘z bilim va ko‘nikmalarini sinashadi<sup>65</sup>.

D) Reaksiyalarni tezkor o‘lchash -simulyatsiya va VR texnologiyalari yordamida talabalar tezkor reaksiyalarni o‘lchash va amaliyotdagi natijalarni tezda ko‘rish imkoniyatiga ega. Masalan, tibbiy amaliyotda tezkor qarorlar qabul qilish muhim bo‘lsa, bu texnologiyalar yordamida talabalar turli klinik holatlarga qanday reaksiyalarni ko‘rsatishini va natijalarni qanday yaxshilash mumkinligini o‘rganishadi. Bu, ayniqsa, tezkor va noaniq vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishni o‘rganishga yordam beradi.

---

5. O'rganishning izchilligi - o'z-o'zini baholash o'quv jarayonida izchillikni ta'minlashga yordam beradi. Talabalar o'zlarini baholash orqali o'rganishning keyingi bosqichlarini qanday davom ettirishni rejalashtirishi mumkin. Bu izchillik o'quv jarayonida aniq maqsadlar qo'yishga va o'z o'rganish jarayonini samarali boshqarishga yordam beradi.

6. O'z-o'zini rivojlantirish - o'z-o'zini baholash, talabalar o'z rivojlanish jarayonini kuzatib borishga imkon beradi. Talabalar o'z faoliyatini va o'rganish jarayonini baholash orqali qanday sohalarida rivojlanish kerakligini aniqlashadi. Bu esa, o'z-o'zini rivojlantirish va o'rganishning samarali yo'llarini topishga yordam beradi.

Refleksiya va o'z-o'zini baholash talabalar uchun o'rganish jarayonini chuqurlashtirish va samarali qilishning muhim vositasidir. Talabalar o'z bilim va ko'nikmalarini tahlil qilib, o'rganish usullarini optimallashtirishi, kamchiliklarini to'g'rilashi va muvaffaqiyatlarini oshirishi mumkin. Bu jarayon talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishiga, o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirishga va akademik muvaffaqiyatlarini yaxshilashga yordam beradi.

b) Tajribalar asosida o'rganish: O'quvchilar amaliyot va simulyatsiyalar orqali o'rganganlarini qayta tahlil qilib, kelajakdagi ish faoliyatlari uchun zarur bo'lgan kompetentliklarni shakllantiradilar.

Tajribalar asosida o'rganish (Experiential Learning) — bu o'quvchilarning amaliy tajribalarini tahlil qilish orqali ularning kompetentliklarini rivojlantirishga yordam beradigan o'rganish usuli. Bu jarayon talabalar o'rgangan bilimlarni

amaliyotda qo‘llash, tajribalarini qayta tahlil qilish va kelajakdagi ish faoliyatlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishni ta‘minlaydi.

Tajribalar asosida o‘rganishning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Amaliy tajriba orqali o‘rganish - talabalar amaliy mashg‘ulotlar, klinik simulyatsiyalar yoki haqiqiy kasalliklar bilan ishlash orqali o‘rganadilar. Masalan, gigiyena va profilaktika fanlari bo‘yicha talabalar kasalliklarni oldini olish, sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish va sog‘liqni saqlash tizimlaridagi amaliyotlarni bajarish orqali o‘z bilimlarini mustahkamlaydilar. Bunday o‘quv faoliyatlari o‘quvchilarga o‘rganilgan materialni haqiqiy vaziyatda qanday qo‘llashni o‘rgatadi.

2. Refleksiya va tahlil qilish - o‘quvchilar o‘z tajribalarini qayta tahlil qilish va baholash jarayonida o‘rganadilar. Tajriba asosida o‘rganishning muhim komponenti bu refleksiya (o‘z tajribalarini tahlil qilish)dir. O‘quvchilar o‘zlarining amaliy faoliyatlarini qanday muvaffaqiyatli bajarganini va qanday kamchiliklar borligini aniqlashadi. Bunda o‘quvchilar xatolaridan o‘rganib, o‘z bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishga yordam beradigan fikrlarni shakllantiradilar.

3. Kelajakdagi ish faoliyatiga tayyorlash - amaliy tajriba talabalar uchun kelajakdagi professional faoliyatlari uchun zarur bo‘lgan kompetentliklarni shakllantiradi. Simulyatsiyalar, klinik amaliyotlar yoki boshqalar orqali talabalar amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar, bu esa ularni kasbiy hayotda muvaffaqiyatli ishlashga tayyorlaydi. Misol uchun, gigiyena fanini o‘rganayotgan talabalar sanitariya va sog‘liqni saqlash sohasidagi real vaziyatlarga tayyorlanadilar.

4. Muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish -tajribalar asosida o‘rganish, talabalarni real muammolarni hal qilishga yo‘naltiradi. Bu, o‘z navbatida, talabalarni o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash, yangi vaziyatlarda muammolarni hal qilish uchun ijodiy yondashuvlarni ishlab chiqishga undaydi. Gigiyena bo‘yicha talabalar, masalan, sanitariya qoidalarini buzish holatlarini aniqlash va bartaraf etish kabi vazifalarni bajarishda amaliy ko‘nikmalarini oshiradilar.

5. Mustaqil o‘rganish va qaror qabul qilish - tajribalar asosida o‘rganish talabalarni mustaqil o‘rganish va qaror qabul qilishga undaydi. Simulyatsiya va amaliy mashqlar orqali talabalar turli vaziyatlarda qanday qarorlar qabul qilishni va ularni amalda qanday bajarishni o‘rganadilar. Gigiyena fanida bu, masalan, infeksiyalarni oldini olish va kasalliklar tarqalishini kamaytirish kabi masalalarda o‘quvchilarning qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni anglatadi.

6. Kompetentliklarni rivojlantirish -tajribalar asosida o‘rganish talabalarga faqat nazariy bilimlarni o‘rganish bilan cheklanmay, balki ular o‘zlarini har tomonlama rivojlantirishlariga imkon beradi. Ularning kasbiy kompetentliklari, masalan, gigiyenik bilimlarni amaliyotga qo‘llash, kasalliklarni oldini olish strategiyalarini ishlab chiqish kabi sohalarda kengayadi. Bu talabalarni nafaqat bilimdon, balki amaliy ko‘nikmalarga ega mutaxassislar qilib tarbiyalaydi<sup>78</sup>.

Tajribalar asosida o‘rganish talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini ham taqdim etadi. Simulyatsiyalar, amaliy mashg‘ulotlar va klinik tajribalar orqali talabalar o‘z bilimlarini haqiqiy dunyo vaziyatlariga qo‘llashni o‘rganadilar. Bu jarayon talabalar uchun o‘z bilim va ko‘nikmalarini chuqurroq o‘zlashtirish, amaliy tajriba orttirish va kelajakdagi ish faoliyatlariga tayyorlanish imkonini beradi.

Umuman olganda, STIR modeli yordamida gigiyena fani bo‘yicha talabalarning profilaktik kompetentligi nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko‘nikmalar va real klinik vaziyatlarga ham asoslanadi. Bu yondashuv talabalarni murakkab muammolarni hal qilishga va mustaqil ishlashga tayyorlaydi.

«STIR (Strategy, Technology, Interactivity, Reflection)” modeli asosida bo‘lajak shifokorlarning intellektual rivojlanishini o‘stirish uchun turli usul va tamoyillar qo‘llanmoqda. Shu bilan birga dars samaradorligini oshirishning yangicha mexanizmlarini ishlab chiqish orqali talabalarning fanlarni


---

<sup>78</sup> Y.Bonnici. Effective Online Learning Strategies: A Systematic Review of Technology and Interaction // Medical education, №6, 2023. -P.119.

o‘zlashtirishdagi imkoniyatlarini oshirish tizimini takomillashtirish zarurati ortib bormoqda.

Bo‘lajak shifokorlarda profilaktik kompetentlikni «STIR (Strategy, Technology, Interactivity, Reflection)” modeli orqali rivojlantirishning zamonaviy pedagogik tarbiya metodikasi – jismoniy ta’limga doir pedagogik jarayonning xususiyatlari, vazifalari, shakli va metodlarini o‘z ichiga qamrab olgan kompleks tarbiyaviy jarayondir. Aslida jismoniy ta’lim -tarbiya jarayoni talabalarda jismoniy sifat va qobiliyatlarni namoyon qilishga qaratilgan bo‘ladi. Bugungi kunda jamiyatda jismoniy ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, profilaktik kompetentlikni rivojlantirish mezonlarining ishlab chiqilishi va bu boradagi ilmiy tadqiqotlarni olib borish qamrovini kengaytirish dolzarb vazifalardan biri ekanligi namoyon bo‘lmoqda.

Buning uchun esa tibbiy ta’limda intellektual va ijodiy qobiliyatlarni uyg‘unlikda rivojlantirishga qaratilgan «STIR (Strategy, Technology, Interactivity, Reflection)” modeli asosida integrasion ta’limni takshil etish va ta’lim integratsiyasiga alohida urg‘u berish talab etiladi.



### **3.3.1- rasm. «STIR (Strategy, Technology, Interactivity, Reflection)” modeli**

Tibbiy ta’lim talabalarining har tomonlama, jumladan, aqliy, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan rivojlanishida profilaktika asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Chunki profilaktika talabalarini sog‘lom va baquvvat qilib o‘stirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Profilaktika talabalarning sog‘liqlarini mustahkamlash bilan birgalikda organizmini chiniqtirish, jismoniy jihatdan to‘g‘ri rivojlanishini hamda uning ishlash qobiliyatini oshirishni ta’minlaydi. Talabalarda o‘z sog‘liqlarini asrash, uni doimo saqlash uchun g‘amxo‘rlik qilish tuyg‘ularini rivojlantirish, o‘quvchilarda yangi harakat turlari borasida ko‘nikma va malakalar hosil qilish ularni jismoniy tarbiyaga oid maxsus bilimlar bilan qurollantiradi.

Tadqiqotimizda «STIR (Strategy, Technology, Interactivity, Reflection)” modeli asosida bo‘lajak shifokorlarda profilaktik kompetentlikni rivojlantirish, uning predmetini esa ularda jismoniy ta’limga ustuvorlik berish asosida intellektual va ijodiy qobiliyatlarni uyg‘unlashtirish mazmuni va metodik tizimi tashkil etdi.

Model bo‘lajak shifokorlarda profilaktik kompetentlikni rivojlantirishni nazarda tutishi bilan bir qatorda, oliy ta’lim da profilaktika darslarini pedagogik texnologiyalar asosida samarali amalga oshirishning tashkiliy-metodik shart-sharoitlarini ham o‘zida aks ettiradi.

“STIR (Strategy, Technology, Interactivity, Reflection)” modeli”da berilgan pedagogik maqsadlar ilmiy yoki amaliy muammolar detallarini ishlab chiqish usuli hisoblanadi. Bu jarayon yakunida konkret va real natija aniqlanadi. Bu metodning asosiy vazifasi talabalarga amaliy vazifa yoki muammolarni hal etish jarayonida turli sohalarga oid bilimlarni mustaqil egallashlariga sharoit yaratib berishdan iborat. Ana shu shart-sharoitlar profilaktik kompetentlikni rivojlantirish uchun imkoniyatlarni yaratadi. Bundan tashqari, bu metod o‘zida turli boshqa metodlar: izlanish, muammoli, ijodiy metodlarni mujassamlashtiradi<sup>79</sup>.

O‘quv jarayonida “STIR (Strategy, Technology, Interactivity, Reflection)” modeli” birinchi darajaga qo‘yilsa, loyihaviy ta’lim texnologiyasining qo‘llanishi

haqida soʻz yuritish mumkin. U boʻlajak shifokorlarda loyihaviy faoliyatni rivojlantirishga izlanuvchanlik kompetentsiyasini shakllantirishga yoʻnaltirilgan. Demak, bunda talabalar muammolarga ega turli holatlarni tahlil qiladilar, undagi muammolarni aniqlashtiradilar, yechim izlash uchun loyihalashtirish texnologiyasini qoʻllaydilar, izlanishlar olib boradilar, olingan maʼlum otlarni tahlil qilib, tizimlashtiradilar, topilgan yechimning sifati va samaradorligini baholash uchun reflektiv koʻnikma va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi.

Fikrimizcha, boʻlajak shifokorlarda profilaktik kompetentlikni rivojlantirishda “STIR (Strategy, Technology, Interactivity, Reflection)” modelidan foydalanish, ularning kelajakda egallaydigan shifokorlik kasbiga asta-sekin kirib borishlari va kasbiy kompetentsiyaga ega boʻlishlariga imkoniyat yaratadi. Bunday imkoniyatlar kontekstli va loyihaviy taʼlim texnologiyalari asosida paydo boʻladi. Bu jarayonda talabalarning taʼlim olishdagi ehtiyojlari, motivlari, maqsadlari, xatti-harakatlari, vositalari va natijalari tubdan oʻzgarib ketadi. Talabalarda innovasion fikrlash koʻnikmasini takomillashtirishda asosiy eʼtibor ularning ilmiy-pedagogik ongini shakllantirish va yangicha fikrlash qobiliyatiga qaratiladi.

Bunday texnologiyalarning integratsiyalashgan, fanlararo tuzilishda, uzluksiz taʼlimning tizimlilikini oʻzida namoyon qilgan holda olib borilishi samarali natijalarni koʻrsatadi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib aytish joizki, boʻlajak shifokorlarda profilaktik kompetentlikni rivojlantirishning mazmuni va mohiyati amalda yangi tasavvur, gʻoya, qarashlar hamda ularda ilgʻor texnologiyalar haqidagi bilimlarning mahsuli boʻlib, uning natijasi innovasion fikrlash koʻnikmasi sifatida yuzaga kelgan ixtironi – loyihaga, loyihani – texnologiyaga aylantirishga yoʻnaltirilgan jarayondir.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib aytish oʻrinliki, boʻlajak shifokorlarda profilaktik kompetentlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega boʻlgan mazkur vositalar rivojlantiruvchi omillari sifatida xizmat qiladi va ular boʻlajak shifokorlarda profilaktik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida oʻziga xos ahamiyat kasb etib, ular eng maqbul omillarni, yaʼni talabaga eng kuchli va samarali

ta'sir ko'rsatuvchi vositalarni tanlash va ulardan o'z xususiyatlariga ko'ra to'g'ri foydalanishni zarur deb topadi.

Xulosa qilganda, bo'lajak shifokorlarda profilaktik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik model kompetentsiyaviy yondashuvga va turli kompetentliklarning integratsiyasi, uyg'unlikda shakllanishiga asoslanadi. Bu orqali bo'lajak shifokorlarda kasbiy faoliyatni to'g'ri va samarali yo'lga qo'yish imkoniyati yuzaga keladi.

### **Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar**

1. Bo'lajak shifokorlarning profilaktik kompetentligini "STIR (Strategy, Technology, Interactivity, Reflection)" modeli" asosida rivojlantirishning pedagogik mazmuni, shakllari va usullari o'qituvchilar tomonidan loyihalashtiriladi va muayyan pedagogik maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan yaxlit ilmiy-didaktik hodisa sifatida tizimlashtiriladi.

2. Tibbiy ta'lim jarayonida "STIR (Strategy, Technology, Interactivity, Reflection)" modeli" asosida talabalarda jismoniy sifat va qobiliyatlarni namoyon qilishga qaratilgan bo'ladi. Bugungi kunda jamiyatda jismoniy ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, profilaktik kompetentlikni rivojlantirish mezonlarining ishlab chiqilishi va bu boradagi ilmiy tadqiqotlarni olib borish qamrovini kengaytirish dolzarb vazifalardan biri ekanligi namoyon bo'lmoqda.

3. "STIR (Strategy, Technology, Interactivity, Reflection)" modeli"da asosiy e'tibor ta'lim-tarbiyaning milliy zaminini mustahkamlashga, ta'limning boshqaruv tizimlarini takomillashtirishga, uning moddiy-texnik bazasini zamon talablariga moslashtirishga, ta'lim -tarbiya jarayonini jahon andozalari darajasiga ko'tarishga qaratiladi. Ushbu ta'limiy tadbirlar doirasida oliy profilaktika ta'limi tizimining mazmuni qayta ishlab chiqildi, yangi o'quv dasturlari va darsliklarni ishlab chiqish esa ta'lim sifatini oshirishda yagona mezon bo'ladi.

4. "STIR (Strategy, Technology, Interactivity, Reflection)" modeli" asosida olib boriladigan jismoniy ta'limda auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar davrida talabalarni ko'proq ijodiy topshiriqlar bilan shug'ullantirish lozim va bu ularning

ijodiy fikrlash qobiliyatini o‘stiradi. Ijodiy fikrlash qobiliyati bo‘lajak shifokorning o‘z akmesini xolis va to‘g‘ri baholashiga imkon beradi.

5. Bo‘lajak shifokorlarning profilaktik kompetentligi uning kasbiy faoliyatida o‘qitish, tarbiyalash, rivojlantirish jarayoni amalga oshirilayotgan ijtimoiy muhitni yaxshilashga tayyorligini ko‘zda tutadi. Bizningcha, pedagogik faoliyatning ijobiy ijtimoiy yo‘nalganligini tushunish kerak bo‘lib, bu shaxsning ayrim aksentuallashgan xususiyatlarining salbiy ta‘sirining chegarasini pasaytirishga imkon beradi.

6. Tibbiyot oliy o‘quv yurtida tahsil olayotgan talabalar gigiyena fanini o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan quyidagi profilaktik kompetentsiyalarga - o‘z strategiyasiga ega bo‘lish, tarbiyaviy, ta‘limiy dunyoqarashga ega bo‘lishi, sog‘lom turmush -tarzini olib borish, dars davomida intensivlik, modullilik, internatsionallilik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishiga olib keladi.

7. Gigiyena fanini o‘qitish usullari pedagogik jarayonning maqsadi, vazifalari, mazmuni hamda natijalarini nazorat qilishning asosiy komponentlari sanaladi. Tibbiy ta‘limda gigiyena fanini o‘qitish usullari quyidagilarga xizmat qiladi:

- pedagog va talabaning o‘zaro ma‘lumot almashishi orqali amalga oshiriladi, ya‘ni (muloqot orqali ma‘lumot almashishni, taqdimotlar orqali ma‘lumot almashishlarni oladi);

- belgilangan guruh liderlari yordamida to‘g‘ridan – to‘g‘ri, yoki o‘z – o‘zini nazorat qilish orqali talabalarning bilim faoliyatini boshqarish;

- pedagogning talabalar bilan frontal, jamoviy yoki individual tarzda muloqot qilishlari orqali, rag‘batlantirish, motivatsiya berish va deontologik tarbiya berish orqali va ta‘lim jarayoni samaradorligini monitoring qilish orqali.

### **III-BOB. BO‘LAJAK SHIFOKORLARNING PROFILAKTIK KOMPETENTLIGINI GIGIYENA FANINING INTENSIV TEXNOLOGIYALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA TAJRIBA – SINOV ISHLARI NATIJALARI VA UNING SAMARADORLIGI**

#### **3.1.-§ Tibbiy ta’lim talabalari profilaktik kompetentligini Gigiyena fani orqali rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari.**

Bugun jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy hayot sharoitlarining o‘zgarishi va mamlakatimiz sog‘liqni saqlash tizimi tubdan isloh qilinishi munosabati bilan zamonaviy tibbiy ta’lim oldida turgan dolzarb muammolarni hal qilishga qaratilgan turli xil chora-tadbirlar ishlab chiqilib amaliyotga tadbiq etilmoqda.

Jamiyatdagi qadriyatlarining o‘zgarishi, bozor iqtisodiyoti qonunlarining ustunligi tibbiy ta’limning davlat-o‘qituvchi-shogird tizimida alohida munosabatlar paydo bo‘ladigan sohaga aylanishiga olib keladi. Ushbu munosabatlarning o‘ziga xosligi ko‘p jihatdan tibbiyot xodimlarini kasbiy tayyorlash jarayoniga va talabalarining kelajakdagi kasbiy ixtisoslik yo‘nalishini tanlashiga ta’sir ko‘rsatadigan turli omillarga bog‘liq.

Dunyoda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham tibbiyot tibbiyoti ham muntazam ravishda kadrlar yetishmasligini boshdan kechirmoqda. Sog‘liqni saqlash vazirligining ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunga qadar sog‘liqni saqlash sohasida 20 mingga yaqin yuqori malakali mutaxassislar yetishmayapti, shuning uchun davlat sog‘liqni saqlash organlarining ustuvor vazifasi mutaxassislarni "yetishmovchilik" darajasida tayyorlash uchun kasbiy tayyorgarlik jarayonini qayta yo‘naltirishdir.

Tibbiyot ta’lim muassasalari talabalarining profilaktik kompetentsiyalarini shakllantirish jarayoni tibbiy ta’lim tizimining kredit tizimi asosida yo‘lga qo‘yilishi munosabati bilan alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uning asosiy tamoyili oliy ma’lumot olishda talabalarining o‘z ta’lim strategiyalarini shakllantirishdagi faol rolidir. Bu jarayonda universitet o‘quv faoliyatining samarali algoritmlarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali talabalar tomonidan kelajakdagi mutaxassislikni tanlashning omillari va motivlariga ta’sir qilish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Tajribalar va sinov ishlari natijalari haqida soʻz yuritiladigan boʻlsa, tibbiy taʼlimda profilaktik kompetentlikni rivojlantirish uchun oʻtkazilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari oʻquv jarayonining samaradorligini oshirishga yoʻnaltirilgan boʻladi. Ushbu tajribalar va sinovlar turli metodlar, texnologiyalar va didaktik yondashuvlarni qoʻllashni oʻz ichiga oladi.

Tibbiy taʼlimda profilaktik kompetentlikni rivojlantirish boʻyicha oʻtkazilgan tadqiqotlar, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlarni qoʻllashning samarali ekanligini koʻrsatmoqda. Masalan, interaktiv taʼlim usullarini (simulyatsiya, virtual platformalar, masofaviy taʼlim) tatbiq etish orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy koʻnikmalarni ham rivojlantirishga erishishmoqda.

Sinov ishlari natijalari shuni koʻrsatadiki, innovatsion texnologiyalarni, jumladan, simulyatsiya, virtual oʻquv platformalari va masofaviy oʻqitish metodlarini qoʻllash talabalarning oʻzlarini oʻrganish jarayonida faol ishtirok etishlariga yordam beradi va ular oʻrgangan bilimlarni real hayotdagi holatlarda qoʻllashga imkon yaratadi.

Bundan tashqari, reflektiv yondashuvlar orqali talabalar oʻz faoliyatlarini baholash va tahlil qilishni oʻrganadilar, bu esa ularning bilim va koʻnikmalarini yanada rivojlantirishga olib keladi. Bu jarayonlar orqali oʻquvchilar oʻzlarining profilaktik kompetentliklarini oshiradilar, yaʼni kasalliklarni oldini olish, gigiyenik qoidalarni amaliyotda qoʻllash va jamoat salomatligini himoya qilish boʻyicha tayyorlanadilar<sup>80</sup>.

Ushbu metodlar taʼlim sifatini oshirishda, shuningdek, talabalar uchun muhim kasbiy koʻnikmalarni rivojlantirishda samarali boʻlmoqda. Bunday yondashuvlar orqali, talabalar oʻz salomatliklari va atrof-muhitga taʼsir qilishda yanada masʼuliyatli va bilimli boʻladilar. Tibbiy taʼlim talabalari gigiyena fanini bilish faolligining samaradorligini oshirish deganda pedagog tomonidan berilgan bilimlarni egallashi, malaka va koʻnikmalarni shakllantirilishi, ulardan amaliyotda

---

<sup>80</sup> Сидоров, В.П. Инновационные технологии в преподавании гигиенических дисциплин. Дисс...канд.мед.наук. -Москва, 2019. -с.110.

foydalanishga qiziqish uygʻotishi, faolligini, ijodkorligini, mustaqilligini oshirish maqsadida taʼlimning mazmuni, shakli, usullari va vositalarini takomillashtirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

Talabalarning profilaktik kompetentligini gigiyena fani orqali rivojlantirish, asosan, ular bilan hamkorlikda samarali ishlashni tashkil etish va boshqarish texnologiyalariga koʻplab misollar keltirish bilan izohlanadi.

Talabalarni gigiyena fani orqali profilaktik kompetentsiyalarni rivojlantirish masalasining nazariy asoslari, shuningdek, talabalarda profilaktik kompetentsiyalarni rivojlantirishning modeli, ushbu modelning samaradorligini taʼminlovchi pedagogik shart-sharoitlarning aniqlanishi bizga tajriba-sinov ishlarining maqsadi, mazmuni va vazifalarini belgilab olishga yordam beradi, yaʼni tajriba-sinov ishlarining maqsadi – tibbiy taʼlim talabalari profilaktik kompetentligini rivojlantirishning samaradorligini taʼminlovchi pedagogik shartlarni amalda sinab koʻrishni va baholashni nazarda tutadi.

Talabalarda profilaktik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari, koʻplab tadqiqotlar va pedagogik izlanishlarga asoslanadi, ularning asosiy maqsadi talabalarga kasalliklarni oldini olish boʻyicha bilimlarni yetkazish va amaliy koʻnikmalarni shakllantirishdir. Bu kompetentliklar gigiyenik bilimlarni oʻrganish, jamoat salomatligini himoya qilish va shaxsiy salomatlikni saqlashni oʻz ichiga oladi.

Profilaktik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy modeli bir nechta muhim elementlarga asoslanadi:

1. Bilimlar va koʻnikmalarni uygʻunlashtirish: Talabalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki bu bilimlarni real hayotda qoʻllash koʻnikmalarini ham egallashlari kerak. Bu maqsadga erishish uchun interaktiv va amaliy metodlar qoʻllaniladi.

2. Pedagogik shart-sharoitlar: Tajriba-sinov ishlari muvaffaqiyatli boʻlishi uchun oʻquv jarayonida talabalar faol ishtirok etishi, oʻqituvchining yordami va yordamchi texnologiyalar (masalan, simulyatsiya yoki virtual platformalar)dan foydalanish zarur. Bunda, pedagogik shart-sharoitlar toʻgʻri tashkil etilishi lozim:

talabalar uchun motivatsiya yaratish, individual yondashuv, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun sharoit yaratish<sup>81</sup>.

Tajriba-sinov ishlarining maqsadi talabalarda profilaktik kompetentlikni rivojlantirishning samara berishini ta'minlashdir. Bunda, pedagogik shart-sharoitlarni amalda sinab ko'rish, ular samaradorligini baholash muhim o'rin tutadi. Bu yondashuv orqali, talabalarga nafaqat bilimlarni, balki kasalliklarni oldini olishda zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni ham egallash imkoniyati yaratilib, ular shaxsiy salomatlikni saqlashga va jamiyat salomatligiga hissa qo'shishga tayyorlanadilar.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion metodlar (masalan, interaktiv texnologiyalar va amaliy mashqlar) orqali talabalar profilaktik kompetentlikni muvaffaqiyatli rivojlantiradilar va o'z kelajakdagi professional faoliyatlariga tayyor bo'ladilar.

Tajriba-sinov ishlari davomida quyidagi vazifalar bajarildi:

- tibbiy ta'lim talabalari profilaktik kompetensiyalarini rivojlantirishning boshlang'ich darajasini aniqlash va tahlil qilish;
- talabalarni o'quv jarayoniga tayyorlashda profilaktik kompetensiyalarni rivojlantirishning modelini tadbiq qilish;
- talabalarda profilaktik kompetensiyalar fazilatlarini rivojlantirishning daraja va ko'rsatkichlari dinamikasini o'rganish va tahlil qilish;
- talabalarda profilaktik kompetensiyalar fazilatlarini rivojlantirishning samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish.

Tajriba-sinov ishlari (experiments) odatda ta'lim jarayonida yangi metodlar, strategiyalar yoki texnologiyalarni sinovdan o'tkazish uchun amalga oshiriladi. Har bir bosqichning mazmuni va asosiy vazifalari quyidagicha:

### **1. Tajriba-sinovning rejalashtirish bosqichi:**

---

<sup>81</sup> Павлов, А.Г. Совершенствование методов преподавания гигиены в медицинских учебных заведениях. Дисс...канд.мед.наук. -Томск, 2023. -с.113.

a) Maqsadlar va vazifalarni aniqlash: O‘quv jarayonida sinovdan o‘tkazilishi kerak bo‘lgan metodlarni aniqlash va ular orqali erishilishi kerak bo‘lgan natijalarni belgilash.

b) metod va texnologiyalarni tanlash: Maqsadlarga erishish uchun samarali metodlar va texnologiyalarni tanlash, masalan, interaktiv yondashuvlar, simulyatsiya mashg‘ulotlari yoki onlayn platformalardan foydalanish.

## **2. Sinovning tayyorgarlik bosqichi:**

a) talabalar va o‘qituvchilarni tayyorlash: Sinovdan o‘tkaziladigan metodologiyani tushuntirish va talabalar uchun tayyorgarlikni amalga oshirish. O‘qituvchilarga o‘quv jarayonida metodlarni to‘g‘ri qo‘llashni o‘rgatish.

b) materiallar va resurslar tayyorlash: O‘quv materiallarini, texnologiyalarni va resurslarni tayyorlash, bu sinovda foydalaniladigan vositalar va texnologiyalarni o‘rganish.

## **3. Sinov bosqichi:**

a) amaliyot va o‘rganish: Talabalar o‘qituvchilarning ko‘rsatmalari asosida yangi metodlarni o‘rganishadi. Bu bosqichda interaktivlik, guruhli muhokamalar va amaliy mashg‘ulotlar orqali bilimlar mustahkamlanadi.

b) sinov jarayonida monitoring: Sinov jarayonini kuzatish, talabalar va o‘qituvchilarni doimiy ravishda tahlil qilish va kerakli tuzatishlarni kiritish.

## **4. Natijalarni tahlil qilish bosqichi:**

a) tahlil va baholash: Sinov jarayonining natijalari tahlil qilinadi, metodlarning samaradorligi baholanadi. Bu bosqichda talabalar va o‘qituvchilar tomonidan olingan natijalar o‘zaro tahlil qilinadi va qayta baholanadi.

b) tuzatishlar kiritish: Agar kerak bo‘lsa, o‘quv jarayonida foydalanilgan metodlar va texnologiyalarga tuzatishlar kiritiladi va kelajakda foydalanish uchun takomillashtiriladi.

## **5. Sinov natijalarining joriy etilishi bosqichi:**

a) Yangi metodlarni keng qo‘llash: Agar tajriba-sinov ishlari muvaffaqiyatli bo‘lsa, yangi metodlar va strategiyalarni keng miqyosda amalda qo‘llash va boshqa o‘quv guruhlariga joriy etish.

b) O‘qituvchilarning malakasini oshirish: O‘qituvchilarga sinovdan o‘tgan yangi metodlarni keng tarqatish va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash bo‘yicha qo‘llanmalar taqdim etish.

Tibbiy ta’lim talabalari profilaktik kompetentligini intensiv texnologiyalar vositasida oshirish deganda pedagog tomonidan berilgan bilimlarni egallashi, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirilishi, ulardan amaliyotda foydalanishga qiziqish uyg‘otishi, faolligini, ijodkorligini, mustaqilligini oshirish maqsadida ta’limning mazmuni, shakli, usullari va vositalarini takomillashtirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

Talabalarni gigiyena fani orqali profilaktik kompetentlikka erishtirishda intensiv texnologiyalarni qo‘llashning muhim o‘rni bor. Ushbu texnologiyalar orqali talabalar amaliy ko‘nikmalarni samarali rivojlantirish, gigiyenik bilimlarni yanada chuqurroq o‘zlashtirish va mustahkamlash imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

Talabalarni gigiyena fani orqali profilaktik kompetentligini intensiv texnologiyalar vositasida ta’minlash - ular bilan hamkorlikda ishlash asosida samarali ishlashni tashkil etish va boshqarish texnologiyalariga ko‘plab misollar keltirish bilan izohlanadi. Ushbu hamkorlikda o‘qitish asosida samarali tashkil qilinadigan metod, texnologiya va strategiyalarning har biri ta’limda ma’lum bir maqsad - vazifalarni ko‘zlaydi, ya’ni faollikni, qiziqish va motivatsiyani oshirish, muloqot malakalarini shakllantirish, qaytuvchan aloqa o‘rnatish, bilish jarayonlarining muayyan funksiyalarini rivojlantirish kabilar.

Olingan tadqiqot natijalari asosida tibbiy ta’lim talabalari uchun intensiv texnologiyalar vositasida profilaktik kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar, jumladan, kompetentsiyalar rivojlanishi bo‘yicha bo‘lajak shifokorlar uchun birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lgan tibbiy ta’limdagi dasturlarni to‘g‘ri qabul qilish, ishlab chiqildi.

Talabalarni to‘g‘ri baholash va profilaktik kompetentsiyasini rivojlantirish uchun, birinchidan, ularni kuzatishni bilish, maqsadga muvofiq ma’lumotlarni

topish va ularni kerakli o‘rinlardagina qo‘llashni bilish kerak<sup>82</sup>. Bu tibbiy ta‘lim muassasalarida ta‘lim oluvchilarning muloqotga kirishadigan individual xususiyatlari bo‘lib, ular haqida muhokama qilish imkonini beradi. Bu tibbiy ta‘lim oluvchilarga psixologik baho berish uchun odat va doimiy qo‘llanadigan ko‘rsatma ishlab chiqish zarurligini bildiradi. Bu ko‘rsatma, jumladan, yangi ta‘lim oluvchilar bilan uchrashar ekan, imkon qadar ular haqida ko‘proq, birinchi navbatda, ularni shaxs sifatida to‘g‘ri qabul qilish va baholashga yordam beradigan ma‘lumotlarni bilishga intilishni nazarda tutadi. Ta‘lim oluvchilar xarakteri haqida guvohlik beruvchi, masalan, uning tirik hayotiy holatlarga va boshqa ta‘lim oluvchilarga faoliyatiga munosabati, shu bilan birga ular ishida eng ko‘zga ko‘ringani, tibbiy ta‘lim talabalarining odatiy kayfiyatda bo‘lganda, ruhiyatining tirik holatida yuzaga kelganda bo‘ladigan chog‘dagi holati ham muhimdir.

Talabalarni to‘g‘ri baholash va ularning profilaktik kompetensiyasini rivojlantirish uchun bir nechta muhim usullar mavjud. Bu jarayonda talabalarning o‘rganish faoliyatini kuzatish va baholashning to‘g‘ri metodlarini qo‘llash muhimdir. Quyidagi yondashuvlar talabalarning kompetensiyalarini aniqlash va rivojlantirishda yordam beradi:

1. Kuzatish va Analiz: Talabalarni o‘qish jarayonida faol kuzatib borish orqali ularning bilim va ko‘nikmalarini aniqlash mumkin. Bu, o‘z navbatida, talabalarning amaliy ishlarini, muhokamalarini va o‘z-o‘zini baholashlarini o‘rganishga yordam beradi. Talabalarni kuzatish jarayonida, ularning qaror qabul qilish qobiliyati, tizimli fikrlash va gigiyenik standartlarga rioya qilishga bo‘lgan ehtiyoji haqida muhim ma‘lumotlar to‘planadi.

2. Maqsadga muvofiq ma‘lumotlarni to‘plash: Talabalar, o‘z bilim va ko‘nikmalarini yanada chuqurlashtirish uchun maqsadga muvofiq ma‘lumotlarni izlash va ularni to‘g‘ri kontekstda qo‘llashni bilishlari kerak. Masalan, gigiyena va profilaktik tibbiyot bo‘yicha ilmiy manbalarni izlash va ularni amaliy ishda qo‘llash, talabalar uchun zarur ko‘nikmalardan biridir.

---

<sup>82</sup> Иванова, С.А. Современные подходы к преподаванию профилактической гигиены и санитарии. Дисс...канд.мед.наук. -Казань, 2019. -с.82.

3. Kognitiv va Operativ baholash: Talabalarni baholashda kognitiv va operativ ko'nikmalarni rivojlantirish zarur. Kognitiv baholash talabalar bilimlarining chuqurligini, muammolarni hal qilishdagi qobiliyatini va nazariy bilimlarni o'zlashtirishni o'z ichiga oladi. Operativ baholash esa, ularning amaliy ishlarni qanday bajarishlari va gigiyena standartlariga qanchalik rioya qilishlarini aniqlashga qaratilgan.

4. Feedback va Refleksiya: Talabalarni o'z faoliyatlarini baholashga va o'zaro fikr almashishga undash muhimdir. Refleksiya yordamida talabalar o'z bilimlarini tahlil qilishadi va kelajakda bu bilimlarni yaxshilash yo'llarini o'rganadilar. Talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi samarali feedback jarayoni, ularning o'rganish samaradorligini oshiradi.

5. Sinov va Amaliyot: Profilaktik kompetensiyalarni rivojlantirishda talabalar o'rganayotgan materialni amaliyotda qo'llashlari zarur. Bu, o'quv jarayonida o'rgangan bilimlarni real hayotdagi vaziyatlarda sinab ko'rish imkoniyatini beradi. Amaliy sinovlar va simulyatsiyalar talabalarni haqiqiy klinik sharoitlarda o'z bilimlarini ishlatishga tayyorlaydi.

6. Shu tarzda, talabalarni baholashda o'quvchilarni to'g'ri kuzatish va ularning bilimlarini zarur sharoitlarda qo'llashni bilish, profilaktik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Yuzaga kelgan holatni psixologik jihatdan to'g'ri baholashni bilish, vaziyatga qarab harakat qilish, buning natijasida ishlab chiqiladigan kuzatish odati, yuzaga kelgan holatga diqqat bilan e'tibor qaratish, ayniqsa, muloqotga muvofiq tibbiy ta'lim talabalari bilan gigiyena darsi davomida qanchalik ko'p turli holatlarda muloqot o'rnatilar ekan, ularni muloqotga kirishish jarayonini amaliyotda kuzatish imkoni paydo bo'ladi, ya'ni turli vaziyatlarda ular o'zlarini qanday tutishlariga qarab o'qituvchi ularni shuncha ko'p e'tibor bilan, ularning harakatlari natijasini baholaydi, tez va to'g'ri qabul qiladi va aql bilan harakat qiladi.

Bundan tashqari, dars davomida tibbiy ta'lim talabalarining o'z ustida ishlashini nazarda tutuvchi muloqotning usul va vositalarini to'g'ri tanlashni ham bilish zarur. Muloqotning turli usul va vositalarini mustaqil ishlatish, shuningdek, ular

samarasining qiyosiy bahosi, xususan, erishilgan natija va belgilangan maqsadlarni solishtirishni bilish kerak. Bu tibbiy ta'lim talabalarining o'z-o'zini doimo kuzatishi, atrofdegilar bilan muloqotga kirishganda nimani qanday bajarayotganini anglashi lozimligini bildiradi. Nima uchun muloqotning ba'zi vosita va usullari boshqasidan ustun ekanligi haqidagi savollarga javob berishga tayyor bo'ladi.

Gigiyena fanida intensiv texnologiyalar vositasida profilaktik kompetentlikni rivojlantirishning muhim shartlaridan biri ma'lum qoida va talablarni bajarish hisoblanadi. Muhim qoidalar quyidalardan iborat:

1) dars davomida noaniq bo'lgan tushunchalarni tushunarli, misollar bilan yetkazib berish;

2) aniqlik qoidasi, ya'ni noaniq, ikki xil ma'no beruvchi, sirg'aluvchi so'z va ifodalardan foydalanmaslik, hamda extiyoj bo'lmasa o'zining bilmaydigan yoki tor ixtisoslikka tegishli atamalarini ishlatmaslik kerak;

3) verbal signallarni nazorat qilish qoidasi. O'z nutqi va xabarlar mazmunini nazorat qilish kamlik qiladi. Ularni shaklini, xususan, uning "tashqi kuzatuvchi shakli" –mimika, jest, intonatsiya, gavdani tutishlarni ham nazorat qilish zarur;

4) «shaxsiy noto'g'rilik» qoidasi. Kommunikasiya paytida shaxsiy nuqtai nazar xato bo'lishi mumkinligini esdan chiqarmaslik kerak. Bu ko'pincha jiddiy xatolardan saqlaydi;

5) Gigiyena fanidagi jarayonlar qoidasi. Har qanday xabarning samarasi uni o'z vaqtida va u amalga oshiradigan adekvat holatda aytilsa, keskin oshadi;

6) oshiqlik qoidasi, o'z nuqtai - nazarini yuzaga kelgan yangi holat ta'sirida qayta ko'rib chiqishga tayyorlikni, shuningdek, talabaning nuqtai nazarini e'tiborga olish va uni qabul qilish qobiliyatini anglatadi;

7) faol va konstpuktiv eshitish qoidasi – kommunikasiyaning asosiy shartlaridan biri;

8) qayta aloqa qoidasi. Aynan shu qoida, oxir oqibat, kommunikasiya jarayonining asosiy maqsadi – bir-birini tushunishni ta'minlaydi<sup>83</sup>.

---

<sup>83</sup> Ruiz, J. G., Mintzer, M. J., & Leipzig, R. M. The Impact of E-Learning in Medical Education. -New York: Academic Medicine, 2022.-P.76

Gigiyena fanida intensiv texnologiyalar vositasida profilaktik kompetentlikni rivojlantirishning muhim shartlaridan biri - bu talabalarning belgilangan qoida va talablarni bajarishi. Bu quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- Me'yorlarga rioya qilish: Talabalar o'zlari o'rganayotgan materiallarga mos ravishda gigiyenik me'yorlar va talablarni puxta o'zlashtirishlari kerak. Bu talablar nafaqat nazariy bilimlarni o'z ichiga oladi, balki amaliyotda ularni to'g'ri qo'llashga ham yo'naltiriladi.

- Normativ va huquqiy asoslar: Gigiyenik faoliyatni amalga oshirishda normativ hujjatlarga rioya qilish talab etiladi. Bu, o'quv jarayonida talabalarning gigiyenik, sanitariya va profilaktik standartlarga bo'lgan yondashuvlarini shakllantiradi.

- Simulyatsiya va amaliy mashqlar: Profilaktik kompetentlikni rivojlantirishda simulyatsiya va boshqa amaliy mashqlar muhim rol o'ynaydi. Bu mashg'ulotlar talabalar uchun gigiyenik standartlarga mos ravishda muammolarni hal qilish va xavf-xatarlarni oldini olishni o'rgatadi.

- Klinik tavsiyalar va protokollar: Gigiyenik amaliyotlarni o'rgatishda tibbiy protokollar va klinik tavsiyalarni to'g'ri qo'llash talab qilinadi. Bu talabalar uchun qanday holatlarda qanday gigiyenik choralar ko'rilishini o'rgatadi.

- Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari: Talabalar intensiv texnologiyalarni qo'llashda, masalan, virtual o'quv platformalarida gigiyena va profilaktik kasalliklarni oldini olishni o'rgatish jarayonida belgilangan qoidalar va texnikalarni bajarishlari kerak. Bu, o'rganish samaradorligini oshiradi va amaliy ko'nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi.

Shu tarzda, intensiv texnologiyalar yordamida gigiyena fanida profilaktik kompetentlikni rivojlantirishda qoida va talablarning to'g'ri bajarilishi talabalarni o'zgaruvchan va murakkab klinik sharoitlarga tayyorlashda asosiy o'rin tutadi.

Tadqiqotlarimiz davomida tibbiy ta'lim talabalari profilaktik kompetentligini intensiv texnologiyalar vositasida rivojlantirishning quyidagi xususiyatlarni tadqiq etdik:

- Gigiyena fani darsida talabalarni o'qitish jarayonini samarali kechishini ta'minlovchi amaliy kompetentsiyalar bilan birga egallanuvchi nazariy kompetentsiyalarning yig'indisi;

Gigiyena fani darsida talabalarning o'qitish jarayonini samarali kechishini ta'minlash uchun nazariy va amaliy kompetentsiyalar o'zaro bog'liq holda rivojlanishi kerak. Ushbu kompetentsiyalar yig'indisi, talabalarning nafaqat bilim olish, balki o'rganganlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini ham shakllantirishga yordam beradi. Quyidagi asosiy kompetentsiyalar gigiyena fanini o'qitishda amalga oshiriladi:

#### 1. Nazariy kompetentsiyalar:

a) Gigiyena va salomatlik ta'limi asoslari: Talabalar gigiyenik qonuniyatlarni, sanitariya me'yorlarini va tibbiy profilaktikaning asosiy tamoyillarini bilib olishlari kerak.

b) Tibbiy terminologiya va huquqiy asoslar: Talabalar gigiyena va profilaktik tibbiyotga doir asosiy terminologiya va huquqiy me'yorlarni tushunishi kerak.

Kasalliklar va ularning oldini olish: Talabalar kasalliklar, ularning tarqalish yo'llari va profilaktik usullarni nazariy jihatdan tushunishi kerak.

#### 2. Amaliy kompetentsiyalar:

a) Amaliy ko'nikmalar: Talabalar o'rgangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishlari lozim. Masalan, gigiyena qoidalarini amalga oshirish, toza va xavfsiz sharoitlar yaratish, infeksiyon kasalliklar tarqalishining oldini olish.

b) Simulyatsiya va diagnostika: Amaliy mashqlar orqali talabalar gigiyenik me'yorlarni to'g'ri bajarish va kasalliklarning oldini olish bo'yicha o'z ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

d) Klinik va laboratoriya ishlari: Talabalar kasalliklarni tashxislash va ularning oldini olishda laboratoriya va klinik ma'lumotlarga asoslangan amaliy ko'nikmalarni o'zlashtiradilar.

### 3. Integratsiya va refleksiya:

a) Refleksiya: Talabalar o'z o'rganish jarayonlarini baholash, tahlil qilish va natijalarni amaliyotda tatbiq etish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak.

b) Interaktiv o'qitish metodlari: Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash uchun interaktiv yondashuvlar qo'llaniladi. Bu, talabalar o'rtasida fikr almashish, muhokama qilish va bilimlarni sinovdan o'tkazish imkonini beradi.

### 4. Muvofiqlik va takomillashuv:

a) Pedagogik shart-sharoitlar: O'qituvchi tomonidan samarali pedagogik texnologiyalar va metodlarning qo'llanilishi, talabalar o'qish jarayonida samarali rivojlanishlarini ta'minlaydi.

b) O'z-o'zini baholash va mustaqil ishlash: Talabalar o'z bilimlarini o'z-o'zini baholash orqali chuqurlashtirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Gigiyena fanida talabalarda nazariy va amaliy kompetentsiyalarni birgalikda rivojlantirish, ularni nafaqat bilimlar bilan, balki kundalik tibbiy amaliyotda yuzaga keladigan real vaziyatlarga tayyorlashga yordam beradi.

- tibbiy ta'lim talabalarining turli xarakter xususiyatiga ega insonlar bilan, oila a'zolari va barcha fuqarolar bilan kommunikativ hamda o'zaro sermahsul hamkorlik olib borishi.

Shunday qilib, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlarning jadallashgan sharoitlarida profilaktik kompetentlilikning yuqori darajasi, talabalardan bo'lajak shifokor sifatida o'zini o'rab turgan insonlar bilan ishni to'g'ri tashkil qilish uchun topqirlik, hozirjavoblik, uddaburonlik, o'ziga bo'lgan ishonch, notiqlik qobiliyatini egallagan bo'lishi kerak.

Profilaktik kompetentsiya gigiyena fanini o'rganish davomida bevosita muloqot jarayonida yoki amaliyot jarayonida, o'qituvchi va talaba munosabatlarida hamda virtual tarzda ham amalga oshishi mumkin. Eng muhimi, yuqorida sanalgan muloqot va munosabatlardan kasbiy faoliyatda ham, shaxsiy muloqotda ham foydalanish mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tibbiy ta'lim talabalari profilaktik kompetentligini intensiv texnologiyalar vositasida gigiyena fani orqali takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari birinchi navbatda, ular faoliyatining natijasini belgilaydigan va ularni bo'lajak mutaxassis sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadigan muhim jarayon hisoblanadi.

### **3.2.-§ Gigiyena fanida talabalar profilaktik kompetentligini intensiv texnologiyalar asosida rivojlantirish natijalarining samaradorligi.**

Tajriba-sinov ishlari mazmuniga ko'ra, tajriba va nazorat guruhleri o'rtasidagi farq birinchi guruhlarda gigiyena fanini samarali tashkil etishda talabalarda profilaktik kompetentsiyalarni rivojlantirish samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, ikkinchi guruhda esa standart dastur va an'anaviy ta'lim metodlariga asoslanganligi bilan ifodalandi.

Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish jarayonida o'quv bo'limi bilan hamkorlikda quyidagi faoliyat turlarini olib borildi:

- tibbiy ta'lim jarayonida talabalarda profilaktik kompetentsiyalarni rivojlantirish bo'yicha malaka talabalariga modul dasturlariga qo'shimchalar kiritildi;

- oraliq natijalar qayd qilindi va tajriba-sinov ishlarining shakllanish bosqichi bo'yicha tadbiiq etilayotgan dasturga tuzatishlar kiritildi;

- tibbiy ta'lim talabalarining profilaktik kompetentligini rivojlantiruvchi pedagogik vaziyatlar ishlab chiqildi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi tibbiy ta'limda o'quv resurslarini yaratish va rivojlantirish markazi bilan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- Davolash ishi yo'nalishining gigiyena fani modul dasturini tayyorlashda "Gigiyenaning bo'lajak shifokorlar profilaktik kompetentligini rivojlantirishdagi o'rni" mavzulari kiritildi.

Tajriba-sinov ishlari davomida faoliyatimizning yana bir muhim yoʻnalishi Sogʻliqni saqlash vazirligi tasarrufidagi barcha tibbiyot oliy oʻquv yurtlari bilan hamkorligi sifatida belgilandi.

Tibbiy taʼlim talabalari profilaktik kompetentligini rivojlantirish masalasiga doir talabalar bilan ishlash, ular profilaktik kompetentligini rivojlantirish modelining ishlab chiqilishi va joriy qilinishi asosida har bir talabaning hamda butun guruh talabalarining profilaktik kompetentligining rivojlanish natijalarini kuzatib borish, tibbiyot oliygohlarining oʻquv jarayonida talabalarda profilaktik kompetentsiyalar fazilatlarini rivojlantirishning samaradorligini taʼminlovchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratishni takomillashtirish lozim, deb belgilandi.

Tadqiqot doirasida gigiyena fanini oʻqitish samaradorligini oshirish maqsadida biz tomondan tibbiy taʼlim talabalari profilaktik kompetentligini rivojlantirish darajasi diagnostikasining ilmiy metodik taʼminoti amalga oshirildi.

Shuningdek, talabalarda profilaktik kompetentsiyalarni rivojlantirishda tyutorlar rolini oshirish tajriba-sinov ishlarida tadqiq etildi.

Tibbiyot oliy oʻquv yurtlarini tamomlab, sogʻliqni saqlash tizimida faoliyat yuritayotgan xorijlik shifokorlarning hayoti, ish faoliyati pedagogik jihatdan oʻrganildi. Ushbu oʻrganishda ularning kasbiy kompetentligiga alohida oʻrganildi, oʻzlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga doir shifokor qasamyodida belgilangan vazifalar tahlil qilindi.

Tibbiy taʼlim talabalarining profilaktik kompetentligini rivojlantirishda gigiyena faniga oid maʼlumotlar asosida tibbiyot va sogʻliqni saqlash sohasining yutuqlari va istiqbollarini obyektiv tahlil qilish, tibbiyotning shakllanishi va rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini aniqlash, tibbiyot etikasi tamoyillarini singdirish, yuqori axloqiy fazilatlar, ilmiy va madaniy dunyoqarashni singdirishga doir texnologiyalar, metodikalar, strategiyalar qoʻllanildi.

Talabalar profilaktik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasining integral diagnostik komponentlari, jumladan, talabalarda profilaktik kompetentsiyalarni rivojlanish mezonlari, koʻrsatkichlari, darajalari, muvofiq

diagnostik metodlar va shkalalar integral diagnostikani amalga oshiruvchi mexanizmning tarkibiy qismlari etib belgilandi.

Integral diagnostik tadqiqotni olib borishda quyidagi shartlarning bajarilishi hisobga olindi:

- mezonlar, ko'rsatkichlar va tarbiyaviy faoliyat samaradorligini o'rganuvchi metodikalarni tanlashda tizimli yondashuv;

- pedagogik hamkorlikka amal qilish, avtoritar pedagogik bosimga yo'l qo'ymaslik;

- anonimlikni saqlash va natijalarni yagona matematik tahlildan o'tkazish.

Integral diagnostikani yuzaga chiqishida quyidagi tamoyillarga tayanildi:

- yaxlit o'rganish prinsipi tadqiqotda tizimli yondashuvdan maksimal foydalanishni, talaba shaxsidagi yetakchi fazilatlar bilan o'rgatilayotgan profilaktik kompetentsiyalarni rivojlantirishga doir kompetentsiyalarni shakllantirish, talabalarning o'ziga ishonchi, yosh xususiyatlari va umumiy rivojlanish darajasi, shuningdek, shaxsning fazilatlarini tarbiyalashga ta'sir etuvchi tashqi omillar xilma-xilligining namoyon bo'lishi, o'rganilayotgan fazilatlar mazmunining ochilishi va tibbiy ta'lim talabalarining kasbiy faoliyati bilan chambarchas bog'liqligining aniq belgilanishini nazarda tutadi;

- tadqiqot metodlaridan kompleks foydalanish prinsipi pedagog tomonidan talabalarni o'rganish davomida kompleks metod va integral diagnostik metodlardan foydalanishni ko'rsatadi;

- obyektivlik prinsipi pedagogning talabalar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi to'g'risida obyektiv bilimlar o'la bilishini ifodalaydi;

- talabalarni o'qitish va tarbiyalash uyg'unligi prinsipida ta'lim oluvchilarni o'qitish va tarbiyalash parallel ravishda olib boriladi. Bunda pedagogning asosiy vazifasi diagnostik metodlarni mohirlik bilan o'qitish va tarbiyalash metodlariga aylantira olishi hisoblanadi;

- bir vaqtning o'zida ham jamoa, ham shaxsni o'rganish prinsipida shaxsni o'rganish uchun jamoani tadqiq etish, jamoani o'rganish uchun shaxsni va uning tibbiy jamoa bilan munosabatini tadqiq etishni ko'zda tutadi;

– kasbiy-ma'naviy vaziyatlarni o'zgarish va rivojlanishda o'rganish prinsipi. Bunda o'rganilayotgan vaziyatlar modellashtiriladi, o'zgarishlar yuz beradi va bunda pedagog shu asosda ishini tashkil etishi lozim bo'ladi.

Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi talabalarda profilaktik kompetentsiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil qilish va uning monitoringini amalga oshirish hisoblandi.

Dasturning ushbu qismini amalga oshirishda asosiy vazifalar quyidagilardan iborat etib belgilandi:

- talabalarda profilaktik kompetentsiyalarni rivojlantirish bo'yicha shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari natijalarini tahlil qilish;

- talabalarda profilaktik kompetentsiyalarni rivojlantirishga olib keluvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish;

- talabalarda profilaktik kompetentsiyalarni rivojlantirish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni samarali hal etish uchun pedagogik sharoitlar yaratish shular jumlasidandir.

Tibbiy ta'lim talabalari profilaktik kompetentligini rivojlantirish natijalarini o'lchash usullari pedagogik nazariya va amaliyotda eng muhim masalalardan biri sanaladi. Buning ahamiyati shundaki, birinchidan, pedagogik monitoring uchun texnologik vositalarni ishlab chiqishni, ikkinchidan, tajriba uchun tavsiyalarning ilmiy asoslanganligini, uchinchidan, professional faoliyat va uning sub'yektlarining rivojlanish istiqbolini prognozlashtirishi zarur bo'ladi.

Talabalarda profilaktik kompetentsiyalarni rivojlantirish samaradorligini baholash uchun biz tomonimizdan ularni rivojlanganlik darajasini aniqlovchi mezon va ko'rsatkichlar ishlab chiqildi. Shuningdek, kasbiy kompetentlik turli darajalarda bo'lishini inobatga olib, ularni past, o'rta va yuqori deb belgiladik.

Barcha darajalar bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ularning o'rtasida qat'iy chegaralar yo'q deb hisoblaymiz. Biz oldingi daraja keyingi yuqori darajaga o'tish uchun tayyorlovchi bosqich bo'lishi mumkinligini hisobga oldik. Bunda har qaysi daraja o'zidan oldingi darajani qamrab oladi va uni sifat jihatdan o'zgartiradi.

Tavsiya etilgan mezonlarning tibbiy ta'lim talabalari profilaktik kompetentligini rivojlantirishga qaratilishi va belgilangan yo'nalish doirasida samarali bo'lishi muhimdir. Zero, ular talabalarga o'z-o'zini tarbiyalash, kasbiy kompetentligini rivojlantirish o'zgarish jarayoni haqida yaxlit tasavvur xosil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotlarimizning sharti, vazifalari va maqsadidan kelib chiqib, ishlatayotgan metodikamizni boyitib, o'zgartirib, aniqlik kiritib, moslab bordik. Shu sababli ayrim metodlar bir-birini to'ldirgan holda, boshqalari bilan birgalikda foydalanildi, bu esa tadqiqotning ahamiyatini yanada oshirdi.

Tadqiqotlarning sharti, vazifalari va maqsadidan kelib chiqib, foydalanilgan metodikamizni boyitib, o'zgartirib, aniqlik kiritib, moslab bordik. Shu sababli ayrim metodlar bir-birini to'ldirgan holda, boshqalari bilan birgalikda foydalanildi, bu esa tadqiqotning yanada mukammal bo'lishiga imkon yaratdi.

Yuqorida keltirilgan bo'limlar bo'yicha tahlillar tibbiy ta'lim talabalari profilaktik kompetentsiyasini individual yondashuv asosida rivojlantirish mumkinligini ko'rsatib berdi.

Tajriba-sinov ishlarining shakllanish bosqichida talabalarning profilaktik kompetentligi va profilaktik kompetentsiyalarini, shuningdek, o'quv jarayonini shakllantirishda, malakaviy hamda pedagogik amaliyotlarni o'tash jarayonlarida ularni metodik takomillashtirish maqsadida bir qancha kurslar, metodik ishlanmalar ishlab chiqdik va amaliyotga tadbiiq etdik.

Shunday qilib, amalga oshirilgan nazariy tadqiqotlar va tajriba-sinov ishlar tibbiy ta'lim talabalarining profilaktik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha o'quv ishlarini takomillashtirish uchun bir qator pedagogik sharoitlarni yaratish kerakligini isbotladi.

Tibbiy ta'lim talabalari profilaktik kompetentligini gigiyena fani orqali rivojlantirish jarayoni samaradorligini ta'minlash davomida tajriba-tadqiqot ishlari ta'kidlanuvshi, shakllantiruvshi, yakunlovshi bosqichlarda amalga oshirildi. Tadqiqot doirasida talabalarda profilaktik kompetentsiyalarni rivojlanganligining mezonlari, ko'rsatkichlari va diagnostik belgilari ishlab shiqildi.

Ta'kidlanuvchi tajriba-sinov ishlarining asosiy vazifasi birinchi bosqichda ta'lim oladigan talabalar tajriba va nazorat guruhlarida ularda gigiyena orqali profilaktik kompetentsiyalarni rivojlanganligining ilk darajasini aniqlab olishdan iborat bo'ldi.

Shakllantiruvchi tajriba ishlarining asosiy maqsadi - talabalarda profilaktik kompetentsiyalarni rivojlantirish modelini eksperimental tekshirish hisoblandi. Talabalarda profilaktik kompetentsiyalar rivojlanganligining majmuaviy mezonlari sifatida tadqiqot ishining uchinchi bobida tanlab, asoslangan profilaktik kompetentsiyalar pozitsiyada aks etgan motivatsion, kognitiv, operatsional, reflektiv komponentlar ko'rsatkishlarini birga aks ettirish bilan aniqlashtirildi.

Yakunlovchi tajriba-sinov bosqichida axborot texnologiyalari asosida tibbiy ta'lim talabalarining profilaktik kompetentsiyalarining shakllanganlik mezonlari nazorat savollari, so'rovnoma, pedagogik kuzatuv, suhbat, intervyu usullari orqali aniqlandi. Tajriba-sinov ishlari natijasida talabalar tomonidan profilaktik kompetentsiyalar darajalari sezilarli darajada o'zgardi.

Tajriba-sinov ishlari biz amalga oshirgan pedagogik shart-sharoitlar doirasida tibbiy ta'lim talabalarining profilaktik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha tarbiyaviy jarayonini tashkil etishga bo'lgan yondashuvimizning samaradorligini tasdiqladi. Ushbu shart-sharoitlarning joriy etilishi talabalarda profilaktik kompetentsiyalar, deontologik asoslar, insonga, kasbiy munosabatlarga bo'lgan qarashlarini, empatik qobiliyatlarning rivojlanish darajasi to'g'risidagi bilimlarni oshirishga, zarur profilaktik kompetentsiyalarni shakllantirishga va o'zini o'zi kasbiy rivojlanganlik darajasini anglashga yordam beradi. Shu sababli, tajriba-sinov ishlari natijalari tadqiqotda belgilangan nazariy qoidalarning haqqoniyligini tasdiqladi.

Tajriba-sinov ishlari bazasi sifatida Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, Andijon davlat tibbiyot instituti, Buxoro davlat tibbiyot institutining 700 nafar talabalar olindi. (3.2.1-jadval).

### 3.2.1-jadval.

**Tibbiy ta'limda talabalar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning intensiv texnologiyalari bo'yicha tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan respondentlarning tajriba va nazorat guruhlariga taqsimlanishi**

Tr	Tajriba-sinov ishlari o'tkazilgan OTMLar	Ishtirok etgan talabalar soni		Hammasi
		Tajriba guruhlari	Nazorat guruhlari	
1.	Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	121	118	239
2.	Andijon davlat tibbiyot instituti	118	117	235
3.	Buxoro davlat tibbiyot instituti	115	111	226
<b>Jami</b>		<b>354</b>	<b>346</b>	<b>700</b>

Ta'kidlovchi tajriba-sinov bosqichida tajriba guruhida ham, nazorat guruhida ham tibbiy ta'limda talabalar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning intensiv texnologiyalari bo'yicha samaradorlik darajasining rivojlanganligi aniqlandi.

Tajribaning yakuniy qismida statistik ko'rsatkichlar tahlilini amalga oshirish davomida oldindan belgilangan mezonlardan tashqari tibbiy ta'limda talabalar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning intensiv texnologiyalari bo'yicha o'qitish samaradorligi darajasini aniqlashga qaratilgan test va savolnomalar natijalari hisobga olindi. Tibbiy ta'limda talabalar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning intensiv texnologiyalari bo'yicha samaradorlik darajasini aniq ko'rsatish uchun tadqiqotning tajriba-sinov bosqichida dasturning avvalida va so'ngida guruhlar bo'yicha natijalari qiyosiy tahlil qilindi.

Tibbiy ta'limda talabalar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning intensiv texnologiyalari bo'yicha tajribadan avvalgi (T.a.) va tajriba so'ngidagi (T.s.) ma'lumotlarni umumiy jadvalini keltiramiz(3.2.2-jadval).

## 3.2.2-jadval

**Tibbiy ta'limda talabalar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning intensiv texnologiyalari bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining tajribadan avvalgi (T.a.) va tajriba so'ngidagi (T.s.) umumiy natijalari**

Mezonlar		Tajriba guruhi (354 nafar respondent)						Nazorat guruhi (346 nafar respondent)					
		yuqori		o'rta		past		yuqori		o'rta		past	
		T.a	T.s.	T.a	T.s.	T.a	T.s.	T.a	T.s.	T.a	T.s.	T.a	T.s.
1	Motivatsion	83	175	126	129	145	50	75	87	118	147	153	112
2	Kognitiv	81	172	129	126	144	56	71	85	116	148	159	113
3	O'rersional	78	173	130	125	146	56	74	88	115	151	157	107
4	Refleksiv	82	176	127	128	145	50	72	84	119	150	155	112
Umumiy o'rtacha		<b>81</b>	<b>174</b>	<b>128</b>	<b>127</b>	<b>145</b>	<b>53</b>	<b>73</b>	<b>86</b>	<b>117</b>	<b>149</b>	<b>156</b>	<b>111</b>

Izoh: T.a. – tajriba avvalida, T.s.– tajriba so'ngida.

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko'ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi o'quvchilarning nazorat guruhi talabalariga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalari samarali ekanligi aniqlandi. Bu holatni obyektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlangan xulosa tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to'g'ri samarali olib borilganini tasdiqlaydi. Yuqoridagi jadvalardan ko'rinib turibdiki, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi talabalarilarda nazorat guruhidagi talabalarilarga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalar samarali shakllanishida sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan. Tibbiy ta'limda talabalar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning intensiv texnologiyalari bo'yicha tajribadan avvalgi (T.a.) va tajriba so'ngidagi (T.s.) ma'lumotlarning umumiy jadvalini OTMlar kesimida keltiramiz(3.2.3-jadval).

### 3.2.3-jadval

#### Tibbiy ta'limda talabalar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning intensiv texnologiyalari bo'yicha tajribadan avvalgi (T.a.) va tajriba so'ngidagi (T.s.) ma'lumotlarning (OTMLar kesimida) umumiy jadvali

Tajriba - sinov obyektlari	Respondentlar soni	Tajriba guruhlari						Respondentlar soni	Nazorat guruhlari					
		Yuqori		O'rta		Past			Yuqori		O'rta		Past	
		T.a	T.s	T.a	T.s.	T.a	T.s		T.a	T.s	T.a	T.s.	T.a	T.s.
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	121	29	62	44	43	48	16	118	25	30	41	51	52	37
Andijon davlat tibbiyot instituti	118	28	58	43	41	47	19	117	23	29	39	52	55	36
Buxoro davlat tibbiyot instituti	115	24	54	41	43	50	18	111	25	27	37	46	49	38
Umumiy	<b>354</b>	<b>81</b>	<b>174</b>	<b>128</b>	<b>127</b>	<b>145</b>	<b>53</b>	<b>346</b>	<b>73</b>	<b>86</b>	<b>117</b>	<b>149</b>	<b>156</b>	<b>111</b>

Jadvaldagi natijalar tahlil qilinib, tajriba va nazorat guruhlarining tajribadan avvalgi statistik ko'rsatkichlari taqqoslandi (3.2.4-jadvalga qarang).

### 3.2.4-jadval

#### Tibbiy ta'limda talabalar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning intensiv texnologiyalari bo'yicha tajribadan avvalgi ma'lumotlarning solishtirma jadvali

Tajriba guruhi	Tajriba -sinov obyektlari	Yuqori	O'rta	Past	Jami
Tajriba guruhi	Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	29	44	48	121
	Andijon davlat tibbiyot instituti	28	43	47	118
	Buxoro davlat tibbiyot instituti	24	41	50	115
	<b>Umumiy o'rtacha</b>	<b>81</b>	<b>128</b>	<b>145</b>	<b>354</b>

Nazorat guruhi	Tajriba - sinov obyektlari	Yuqori	O'rtacha	Past	Jami
	Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	25	41	52	118
	Andijon davlat tibbiyot instituti	23	39	55	117
	Buxoro davlat tibbiyot instituti	25	37	49	111
	<b>Umumiy o'rtacha</b>	<b>73</b>	<b>117</b>	<b>156</b>	<b>346</b>

Yuqoridagi jadvallarga asosan, tajriba-sinov avvalidagi natijalarga ko'ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi talabalarning nazorat guruhidagi talabalariga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalar orasidagi farqlar aniqlandi. 3.2.4-jadvaldagi natijalar tahlil qilinib, tajriba-sinov avvalidagi tajriba va nazorat guruhlari natijalari taqqoslandi (3.2.5-jadvalga qarang).


### 3.2.5-jadval

#### Tibbiy ta'limda talabalar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning intensiv texnologiyalari bo'yicha tajriba-sinov avvalidagi natijalar tahlili (son va foizlarda)

Guruhlar	Talabalar soni	O'zlashtirish natijalari (% da)		
		yuqori	o'rtacha	past
Tajriba guruhi	354	81 23	128 36	145 41
Nazorat guruhi	346	73 21	117 34	156 45

Tajriba-sinov avvalidagi natijalarga ko'ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi talabalarning nazorat guruhidagi talabalarga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalar orasidagi farqlar sezilarli emasligi aniqlandi. Bu holatni ob'ektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlashtirgan xulosagina tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to'g'ri samarali olib borilganini tasdiqlaydi. Asoslovchi tajriba-sinov davrida ham statistik tahlilni amalga oshirish uchun Student va Pearson metodlari tanlandi. Mazkur metod ikki guruhda qayd etilgan ko'rsatkichlarni aniqlash va ob'ektiv baholash imkoniga ega. Matematik statistik metodning mohiyatiga ko'ra dastlabki bosqichda tajriba va

nazorat guruhlarida qayd etilgan statistik ko'rsatkichlarni tanlanmalar sifatida belgilanib, baho ko'rsatkichlari bo'yicha variatsion qatorlarni hosil qilish lozim bo'ldi. Bu diagrammada quyidagi ko'rinishni oldi.



### 3.2.1-rasm. Tibbiy ta'limda talabalar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning intensiv texnologiyalari bo'yicha tajriba-sinov avvalidagi natijalar diagrammasi

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhidagi yuqori va o'rta ko'rsatkichlar nazorat guruhi ko'rsatkichlaridan sezilarli farq qilmaydi. Endi 3.2.5-jadval ma'lumotlarini matematik statistik tahlil qilamiz.

Tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari va talabalar sonini mos ravishda  $X_i, n_i$  lar va shu kabi nazorat guruhidagini esa  $Y_j, m_j$  lar orqali belgilab olib, quyidagi statistik guruhlangan variatsion qatorlarga ega bo'lamiz, shuningdek, yuqori ko'rsatkishni 3 ball bilan, o'rta ko'rsatkichni esa 2 ball bilan va past ko'rsatkichni 1 ball bilan belgilaymiz.

Tajriba-sinov ishlaridan tajriba guruhidagi bolalar soni  $n = 354$  nafar, nazorat guruhidagi bolalar soni ham  $m = 346$  nafar bo'lib, biz bu sonlarni  $X_i$  va  $Y_i$  variantlarga mos statistik tanlanmalar hajmlari deb qaraymiz. Demak, 3.2.5-jadvaldan quyidagi ikki variatsion qatorlarni tuzib olamiz ( $n = n_1 + n_2 + n_3$  va  $m = m_1 + m_2 + m_3$ ):

Tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkislari:

$$\begin{cases} X_i & 3 & 2 & 1 \\ n_i & 81 & 128 & 145 \end{cases} \quad m = \sum_{i=1}^3 m_i = 354$$

Nazorat guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkislari:

$$\begin{cases} X_i & 3; & 2; & 1; \\ p_i & 73; & 117; & 156; \end{cases} \quad m = \sum_{i=1}^3 m_i = 346$$

Statistik tahlil o'tkazishni qulaylashtirish maqsadida yuqoridagi variatsion qatorlardan  $n_i$  va  $m_j$  takroriylik (chastota)larni mos statistik ehtimollik formulalari

$p_i = \frac{n_i}{n}$  va  $q_j = \frac{m_j}{m}$  (1) asosida hisoblaymiz .

$$\begin{cases} X_i & 3; & 2; & 1; \\ p_i & 0,23; & 0,36; & 0,41; \end{cases} \quad \sum_{i=1}^3 p_i = 1$$

$$\begin{cases} Y_i & 3; & 2; & 1; \\ q_i & 0,21; & 0,34; & 0,45; \end{cases} \quad \sum_{i=1}^3 q_i = 1$$

Statistik tahlilni har ikki guruh bo'yicha o'rtacha o'zlashtirishlarini hisoblab, qiyoslashdan boshlaymiz. O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari quyidagi natijalarni berdi:

$$\bar{X} = \sum_{i=1}^{n=3} p_i X_i = 0,23 \cdot 3 + 0,36 \cdot 2 + 0,41 \cdot 1 = 1,82$$

$$\text{Foizda } \bar{X}\% = \frac{1,82 \cdot 100\%}{3} \approx 60,7\%$$

$$\bar{Y} = \sum_{i=1}^{n=3} q_j Y_j = 0,21 \cdot 3 + 0,34 \cdot 2 + 0,45 \cdot 1 = 1,76$$

$$\text{Foizda } \bar{Y}\% = \frac{1,76 \cdot 100\%}{3} \approx 58,6\%$$

Bulardan, tajribadan avvalidagi o'rtacha o'zlashtirish (60,7 – 58,6) % = 2,1 % ga farq qilar ekan. Demak, tajriba-sinov avvalida o'rtacha o'zlashtirishlar orasidagi farq sezilarli emas.

Statistik tadqiqotlarga asosan, 3.2.3-jadvalgagi natijalar tahlil qilinib, tajriba va nazorat guruhlarining tajriba so'ngidagi statistik ko'rsatkishlari OTMLar kesimida taqqoslandi (3.2.6-jadvalga qarang).

### 3.2.6-jadval

#### Tibbiy ta'limda talabalar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning intensiv texnologiyalari bo'yicha tajriba so'ngidagi statistik ma'lumotlarning solishtirma jadvali(OTMLar kesimida)

Tajriba guruhi	Tajriba -sinov obyektlari	Yuqori	O'rta	Past	Jami
	Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	62	43	16	121
	Andijon davlat tibbiyot instituti	58	41	19	118
	Buxoro davlat tibbiyot instituti	54	43	18	115
	<b>Umumiy or'tacha</b>	<b>174</b>	<b>127</b>	<b>53</b>	<b>354</b>
Nazorat guruhi	Tajriba - sinov obyektlari	Yuqori	O'rta	Past	Jami
	Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	30	51	37	118
	Andijon davlat tibbiyot instituti	29	52	36	117
	Buxoro davlat tibbiyot instituti	27	46	38	111
	<b>Umumiy o'rtacha</b>	<b>86</b>	<b>149</b>	<b>111</b>	<b>346</b>


Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko'ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi talabalarning nazorat guruhi talabalariga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalari samarali ekanligi aniqlandi. Bu holatni obyektiv baholash uchun umumlashgan holatda statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlangan xulosa tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to'g'ri samarali olib borilganini tasdiqlaydi (3.2.7-jadval).

### 3.2.7-jadval

**Tibbiy ta'limda talabalar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning intensiv texnologiyalari bo'yicha tajriba-sinov so'ngidagi natijalarining tahlili (son va foizlarda)**

Guruhlar	Talabalar soni	O'zlashtirish natijalari (% da)		
		yuqori	o'rta	past
Tajriba guruhi	354	174 49	127 36	53 15
Nazorat guruhi	346	86 25	149 43	111 32

Bu diagrammada quyidagi ko'rinishni oldi.



**3.2.2-rasm. Tibbiy ta'limda talabalar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning intensiv texnologiyalari bo'yicha tajriba-sinov so'ngidagi natijalar diagrammasi**

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhi ko'rsatkichlari nazorat guruhi ko'rsatkichlaridan yuqori ekan.

Endi 3.2.7-jadval ma'lumotlarini matematik statistik tahlil qilamiz.

Tajriba-sinov ishlaridan tajriba guruhidagi talabalar soni  $n = 354$  nafar, nazorat guruhidagi talabalar soni  $m = 346$  nafarga bo'lib, biz bu sonlarni  $X_i$  va  $Y_i$  variantlarga mos statistik tanlanmalar hajmlari deb qaraymiz. Demak, 3.2.7-jadvaldan quyidagi

ikki variatsion qatorlarni tuzib olamiz (  $n = n_1 + n_2 + n_3$  va  $m = m_1 + m_2 + m_3$  ):

Nazorat guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkishlari:

$$\begin{cases} X_i & 3 & 2 & 1 \\ n_i & 174 & 127 & 53 \end{cases} \quad n = \sum_{i=1}^3 n_i = 354$$

Tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkishlari:

$$\begin{cases} Y_i & 3 & 2 & 1 \\ m_i & 86 & 149 & 111 \end{cases} \quad m = \sum_{i=1}^3 m_i = 346$$

Statistik tahlil o'tkazishni qulaylashtirish maqsadida yuqoridagi variatsion qatorlardan  $n_i$  va  $m_j$  takroriylik (chastota)larni mos statistik ehtimollik formulalari

$p_i = \frac{n_i}{n}$  va  $q_j = \frac{m_j}{m}$  asosida statistik ehtimolliklarni kiritib, quyidagi statistik

qatorlarni tashkil etamiz:

$$\begin{cases} X_i & 3 & 2 & 1 \\ p_i & 0,49 & 0,36 & 0,15. \end{cases} \quad \sum_{i=1}^3 p_i = 1$$

va

$$\begin{cases} Y_j & 3 & 2 & 1 \\ q_j & 0,25 & 0,43 & 0,32. \end{cases} \quad \sum_{j=1}^3 q_j = 1$$

Statistik tahlilni har ikki guruh bo'yicha o'rtacha o'zlashtirishlarini hisoblab, qiyoslashdan boshlaymiz. O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari quyidagi natijalarni berdi:

$$\bar{X} = \sum_{i=1}^{n=3} p_i X_i = 0,49 \cdot 3 + 0,36 \cdot 2 + 0,15 \cdot 1 = 1,47 + 0,72 + 0,15 = 2,34$$

$$\text{Foizda} \quad \bar{X}\% = \frac{2,34}{3} \cdot 100\% = 78,0\%$$

$$\bar{Y} = \sum_{j=1}^{n=3} q_j Y_j = 0,25 \cdot 3 + 0,43 \cdot 2 + 0,32 \cdot 1 = 0,75 + 0,86 + 0,32 = 1,93$$

$$\text{Foizda} \quad \bar{Y}\% = \frac{1,93}{3} \cdot 100\% \approx 64,3\%$$

Bu yerdan tajribadan keyindagi o'rtacha o'zlashtirish  $(78,0 - 64,3) \% = 13,7\%$  ga yuqori ekanligi kelib chiqadi.

Demak, tajriba guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi aniqligi nazorat guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichidan katta ekan.

Endi tajriba-sinov ishlari xatoliklarini baholashga o'tamiz. Dastlab, tanlanmalarning dispersiyalarini hisoblaymiz:

$$S_x^2 = \sum_{i=1}^3 p_i \cdot X_i^2 - (\bar{X})^2 = 0,49 \cdot 9 + 0,36 \cdot 4 + 0,15 \cdot 1 - (2,34)^2 = 0,5244.$$

O'rtacha kvadratik chetlanish:  $S_x = \sqrt{0,5244} \approx 0,72$

$$S_y^2 = \sum_{j=1}^3 q_j \cdot Y_j^2 - (\bar{Y})^2 = 0,25 \cdot 9 + 0,43 \cdot 4 + 0,32 \cdot 1 - (1,93)^2 = 0,5651.$$

O'rtacha kvadratik chetlanish:  $S_y = \sqrt{0,5651} \approx 0,75$ .

Bu xatoliklarning o'rta qiymatlarga nisbatan og'ish foizlarini variatsiya koeffitsientlari orqali hisoblaymiz. Buni yanada aniqroq ko'rsatish maqsadida har ikki statistik tanlanma bo'yicha o'rta qiymat aniqliklarini biz variatsiya koeffitsientlari orqali, ya'ni  $C_x$  va  $C_y$  formula orqali hisoblaymiz:

$$C_x = \frac{S_x}{\sqrt{n \cdot \bar{x}}} \cdot 100\% = \frac{0,72 \cdot 100\%}{\sqrt{354 \cdot 2,34}} = \frac{72\%}{18,81 \cdot 2,34} = \frac{72\%}{44,0154} \approx 1,64\%$$

$$C_y = \frac{S_y}{\sqrt{m \cdot \bar{y}}} \cdot 100\% = \frac{0,75 \cdot 100\%}{\sqrt{346 \cdot 1,93}} = \frac{75\%}{18,60 \cdot 1,93} = \frac{75\%}{35,898} \approx 2,09\%$$

Har ikki xatolik ko'rsatkichlari mumkin hisoblangan 5% lik chegaradan yetarli darajada kam ekan. Bu esa tajriba-sinov ishlari qoniqarli o'tganligini bildiradi.

Endi ikkkita bosh to'planning noma'lum o'rta qiymatlariga o'xshashligini hisobga olib Styudentning tanlanmali mezoni asosida nolinishi gipotezani tekshiramiz:  $H_0 : \mu_x = \mu_y$

Shunga asosan quyidagi hisoblanishni bajaramiz:

$$T_{n,m} = \frac{|\bar{X} - \bar{Y}|}{\sqrt{\frac{S_X^2}{m} + \frac{S_Y^2}{n}}} = \frac{|2,34 - 1,93|}{\sqrt{\frac{0,5244}{346} + \frac{0,5651}{354}}} \approx \frac{0,41}{0,056} \approx 7,32$$

Styudent mezonni asosida erkinlik darajasini quyidagi formula orqali hisoblaymiz:

$$k = \frac{\left(\frac{S_x^2}{n} + \frac{S_y^2}{m}\right)^2}{\frac{\left(\frac{S_x^2}{n}\right)^2}{n-1} + \frac{\left(\frac{S_y^2}{m}\right)^2}{m-1}} = \frac{\left(\frac{0,5244}{354} + \frac{0,5651}{346}\right)^2}{\frac{\left(\frac{0,5244}{354}\right)^2}{353} + \frac{\left(\frac{0,5651}{346}\right)^2}{345}} = \frac{(0,0015 + 0,0016)^2}{\frac{(0,0015)^2}{353} + \frac{(0,0016)^2}{345}} = 696,67$$

Ehtimollik uchun statistik mezonning qiymatdorlik darajasini  $\alpha = 0,05$  deb olsak, va  $r = n+m-2$  ozodlik darajalari soni bo'yicha jadvaldan  $t_{kp}(\alpha = 0,05; 696,67) = 1,96$  kritik qiymat topiladi.  $T_{3mn} = 7,32 > 1,96 = t_{kp}(0,05; 696,67)$ . Demak, bosh o'rtacha qiymatlar tengligi haqidagi  $N_0$  nolnishi gipoteza rad etiladi. Buni 95 % ishonchlilik bilan aytish mumkinki, tajriba-sinov guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari har doim nazorat guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkishlaridan yuqori bo'ldi va ular hech qachon ustma-ust tushmaydi.

Nihoyat, biz  $X_i$  va  $Y_i$  statistik tanlanmalarning taqsimot qonunlari teng ligi haqida  $H: F_X = F_Y$  gipotezani tekshirish uchun Pirson mezonidan foydalanamiz.

$$\chi^2 = \frac{1}{N \cdot M} \cdot \sum_{i=1}^k \frac{(n_i M - m_i N)^2}{n_i + m_i}$$

Bu maqsadda quyidagi jadvalni tuzib olamiz(3.2.8-jadval):

### 3.2.8–jadval

**Tibbiy ta'limda talabalar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning intensiv texnologiyalari bo'yicha tajriba-sinov so'ngidagi natijalarni Pirson mezonida hisoblash jadvali**

Ballar	3	2	1
Guruhlar			
Tajriba guruhi	174	127	53

Nazorat guruhi	86	149	111
----------------	----	-----	-----

Pirson statistikasini hisoblaymiz:

$$X_{n,m}^2 = \frac{1}{354 \cdot 346} \cdot \left( \frac{(174 \cdot 346 - 86 \cdot 354)^2}{174 + 86} + \frac{(127 \cdot 346 - 149 \cdot 354)^2}{127 + 149} + \frac{(53 \cdot 346 - 111 \cdot 354)^2}{53 + 111} \right) \approx 51,97$$

Pirson mezonining ozodlik darajasi  $k=(s-1)(r-1)=(2-1)(3-1)=2$ , bu  $k=2$  ga mos 95% lik kritik nuqta  $Z_{kp}(0,95)=5,99$ .

$$\text{Ammo, } X_{n,m}^2 = 51,97 > 5,99 = Z_{k,p}(0,95)$$

Demak, H gipoteza ham rad etilar ekan. Bu esa, tajriba guruhlaridagi va nazorat guruhlaridagi o'qitish metodikalarining farqlanishi tasodifiy emas, balki qonuniy bo'lib, doimo o'zlashtirish ko'rsatkichlarining oshishiga olib kelar ekan.

Endi baholashning samaradorlik ko'rsatkichini aniqlash uchun ishonchli chetlanishlari topamiz: tajriba guruhida

$$\Delta_x = t_\gamma \cdot \frac{S_x}{\sqrt{n}} = 1,96 \cdot \frac{0,72}{\sqrt{354}} = 1,96 \cdot \frac{0,72}{18,81} = \frac{1,4112}{18,81} \approx 0,07$$

ga teng, nazorat guruhida esa:

$$\Delta_y = t_\gamma \cdot \frac{S_y}{\sqrt{n}} = 1,96 \cdot \frac{0,75}{\sqrt{346}} = 1,96 \cdot \frac{0,75}{18,60} = \frac{1,47}{18,60} \approx 0,08$$

ga teng. Topilgan natijalardan tajriba guruhi uchun ishonchli intervalni topsak:

$$\bar{X} - t_{kp} \cdot \frac{S_x}{\sqrt{n}} \leq a_x \leq \bar{X} + t_{kp} \cdot \frac{S_x}{\sqrt{n}}$$

$$2,34 - 0,07 \leq a_x \leq 2,34 + 0,07$$

$$2,27 \leq a_x \leq 2,41$$


nazorat guruhi uchun ishonchli interval:

$$\bar{Y} - t_{kp} \cdot \frac{S_y}{\sqrt{n}} \leq a_y \leq \bar{Y} + t_{kp} \cdot \frac{S_y}{\sqrt{n}}$$

$$1,93 - 0,08 \leq a_y \leq 1,93 + 0,08$$

$$1,85 \leq a_y \leq 2,01$$

Buni geometrik tasvirlasak:



Bundan  $\alpha=0,05$  qiymatdorlik darajasi bilan aytish mumkinki, tajriba guruhidagi oʻrtasha baho nazorat guruhidagi oʻrtasha bahodan yuqori va oraliq intervallari ustma-ust tushmayapti. Demak, matematik-statistik tahlilga asosan, yaxshi natijaga erishilgani maʼlum boʻldi.

Yuqoridagi natijalarga asoslangan holda matematik statistik tahlil qilinib, tajriba yakunidagi holat uchun oʻrta qiymat, tanlanma dispersiya, variatsiya koʻrsatkichlari, Styudentning tanlanma mezoni, Styudent mezoni asosida erkinlik darajasi, Pirsonning muvofiqlik mezoni va ishonchli chetlanishlari topildi (3.2.9–jadval).

### 3.2.9–jadval

**Tibbiy taʼlimda talabalar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning intensiv texnologiyalari boʻyicha tajriba-sinov natijalarining statistik koʻrsatkichlari**

$\bar{X}$	$\bar{Y}$	$S_x^2$	$S_y^2$	$C_x$	$C_y$	$T_{x,y}$	$K$	$X_{n,m}^2$	$\Delta_x$	$\Delta_y$
2,34	1,93	0,5244	0,5651	1,64	2,09	7,32	696,67	51,97	0,07	0,08

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba–sinov ishlarining sifat koʻrsatkichlarini hisoblaymiz.

Bizga maʼlumki,  $\bar{X}=2,34$ ;  $\bar{Y}=1,93$ ;  $\Delta_x=0,07$ ,  $\Delta_y=0,08$  ga teng.

Bundan sifat koʻrsatkichlari:

Oʻqitish samaradorligi koʻrsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{yoc} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{2,34 - 0,07}{1,93 + 0,08} = \frac{2,27}{2,01} \approx 1,13 > 1;$$

Bilish darajasini koʻrsatkichi esa quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{oob} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (2,34 - 0,07) - (1,93 - 0,08) = 2,27 - 1,85 = 0,42 > 0;$$

Olingan natijalardan oʻqitish samaradorligini baholash mezonini birdan kattaligi bilan va bilish darajasini esa baholash mezonini noldan kattaligi bilan koʻrish mumkin. Yuqoridagi statistik tahlillardan maʼlum boʻldiki, tibbiy taʼlimda talabalar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning intensiv texnologiyalari

bo'yicha tajriba guruhlaridagi o'zlashtirish nazorat guruhlaridagi o'zlashtirishdan(13,7 % ga) yuqori ekan.

Demak, olib borilgan tajriba-sinov ishlari tibbiy ta'limda talabalar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning intensiv texnologiyalari orqali rivojlantirish metodikasi ta'lim samaradorligi oshishini tasdiqladi.

Shunday qilib, nazorat va eksperimental guruhlar natijalarining statistik jihatdan muhim farqi shuni ko'rsatadiki, aniqlangan pedagogik shartlarning bajarilishi nazorat bilan taqqoslaganda eksperimental guruhda talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlanish darajasining sezilarli darajada oshishiga olib keldi.

Tajriba-sinov ishlari biz amalga oshirgan pedagogik shart-sharoitlar doirasida tibbiy ta'limda talabalar profilaktik kompetentligini rivojlantirishning intensiv texnologiyalari bo'yicha tarbiyaviy jarayonini tashkil etishga bo'lgan yondashuvimizning samaradorligini tasdiqladi. Ushbu shart-sharoitlarning joriy etilishi talabalarda profilaktik kompetensiyalar, deontologik asoslar, insonga, kasbiy munosabatlarga bo'lgan qarashlarini, empatik qobiliyatlarning rivojlanish darajasi to'g'risidagi bilimlarni oshirishga, zarur profilaktik kompetensiyalarni shakllantirishga va o'zini o'zi kasbiy rivojlanganlik darajasini anglashga yordam beradi. Shu sababli, tajriba-sinov ishlari natijalari tadqiqotda belgilangan nazariy qoidalarining haqqoniyligini tasdiqladi.

### **Uchinchi bob bo'yicha xulosalar**

1. Talabalarda gigiyena fani orqali profilaktik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ularda kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari, kompetentli yondashuv asosida faoliyat tendensiyalari hamda modelini tahlil qilish imkoniyatini berdi.

2. Talabalarda profilaktik kompetensiyalarni gigiyena fani orqali rivojlantirish imkoniyatlari talabalarni bo'lajak mutaxassis sifatida kasbiy faoliyat turlari, deontologiyasi, asosiy talablari hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashni taqozo etdi.

3. Talabalarning o‘z-o‘zini profilaktik kompetentligini baholashini kuzatishga qaratilgan pedagogik monitoringni amalga oshirish talabalarda profilaktik kompetensiyalarni rivojlantirishning samaradorligini ta’minlab berdi.

4. Gigiyena fanini o‘qitish davomida «STIR (Strategy, Technology, Interactivity, Reflection)” modeli eng samarali model deb belgilandi.

5. Amalga oshirilgan nazariy tadqiqotlar va tajriba-sinov ishlari tibbiy ta’lim talabalarining profilaktik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish uchun pedagogik shart-sharoitlar ta’minlanishi zarurligini ko‘rsatdi.

## XULOSA

1. Talabalarni gigiyena fani orqali namunali ziyoli, yuksak malakali mutaxassis, keng tajribaga ega, madaniyatli, profilaktik faol, o'z kasbiga ma'suliyat bilan yondashuvchi, o'z sohasiga doir zamonaviy bilimlarga ega shifokor pedagog sifatida tayyorlash - tibbiy ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

2. Tibbiy ta'limda gigiyena fanining umumiy tendensiyalarini intensiv texnologiyalar orqali rivojlantirish, o'quv jarayonini maqsadli tashkil etish, o'quv jarayonining umumiy strategiyasini tashkil qilish hamda yo'nalishi talabalarining nazariy va amaliy tayyorgarligi hamda kasbiy faoliyatini hisobga olgan holda fanlararo integratsiyasiga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi.

3. Gigiyena fanini intensiv texnologiyalar orqali o'qitishda talabalarni o'quv jarayoniga ta'sir etadigan omillar: individual moyillik, ijtimoiy moyillik, jamiyatdagi shaxslarning sog'liqni saqlashdagi imkoniyatlari, sog'liqni saqlashdagi ta'limning vazifalari, Gigiyenaning o'qitish usullari, fanni rivojlantirishdagi kasbiy faoliyat modeli vositasida tarbiyalash ular profilaktik kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Gigiyena fani o'quv jarayonini tashkil etishning barcha komponentlari yagona tizimga birlashtirilib, talabalarining kelgusidagi faoliyatida tadqiqot ishlarining yagona tavsifi sifatida qisqa diagrammalar, jadvallar ko'rinishida taqdim etilganligi hamda raqamli texnologiyalar orqali profilaktik kompetentsiyalarni rivojlantirish ko'rsatib o'tilgan.

5. Tibbiy ta'lim muassalari talabalarini profilaktik kompetentligini gigiyena fani orqali rivojlantirish – murakkab, uzoq davom etadigan, izchil rivojlanib boruvchi jarayon bo'lib, bunda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilaridan hamkorlikda ishlash talab qiladi. Ushbu jarayonning samaradorligi o'tkaziladigan seminar - treninglarning asosganligi, tizimliliigi, kreativligi, o'tkazilayotgan tadbirlarning samaradorligiga, talabalar uchun o'zini o'zi rivojlantirishning eng maqbul shart-sharoitlarini yaratish kabi omillarga bog'liqligi ko'rsatilgan.

6. O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari tadqiqot davomida ishlab chiqilgan va tibbiy ta’lim muassasalarida joriy etilgan yangi metodikalarning samaradorligini tasdiqladi.

7. Tadqiqotda tibbiy ta’lim talabalarining bo‘lajak shifokor sifatida profilaktik kompetentligini intensiv texnologiyalar orqali rivojlantirishning motivatsion, kognitiv, shaxsiy faoliyat mezonlari ishlab chiqildi va ularning kompleks qo‘llanilishi qo‘lga kiritilgan natijalarning xolisligi va yuqoriligini ta’minladi.

8. Tibbiy ta’lim talabalarining profilaktik kompetentligini gigiyena fani orqali rivojlantirishga qaratilgan nazariy tadqiqot va tajriba-sinov ishlari natijalaridan kelib chiqib, tibbiy ta’lim talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish darajasini oshirib borish muhim ahamiyat kasb etishi o‘z tasdig‘ini topdi.

**Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:**

– Tibbiy ta’lim muassasalarida gigiyena faniga aloqador bo‘lgan ijtimoiy va mutaxassislik fanlari orqali talabalar kasbiy faoliyatini hamda profilaktik kompetentligini rivojlantiruvchi integral ma’ruzalar rejalarini ishlab chiqish va izchil amalga oshirib borish;

– Talabalarda profilaktik kompetentsiyalarni gigiyena fani orqali rivojlantirishda malakali shifokorlardan hamda xorijlik professor o‘qituvchilar tajribalaridan foydalanishni ko‘zda tutuvchi keyslardan, metodikalardan samarali foydalanish;

– Talabalarga profilaktik tajriba orttirish uchun sharoit yaratib berish hamda ularning ta’lim jarayonidagi imkoniyatlarini kengaytirish, ular profilaktik kompetentligini rivojlantirish uchun qulay muhitni yaratib, kasbiy motivasiyasini shakllantirish;

– Gigiyena faniga oid yangi metodikalarni muntazam berib borish hamda xorijning yetakchi tibbiyot oliy o‘quv yurtlari bilan vebinarlar, integral ma’ruzalarni yo‘lga qo‘yish, shu orqali talabalarni profilaktik kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. Normativ huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-maydagi Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm – fani tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risidagi PQ 4310-son Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yil 8-oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-sonli Farmoni.

### II. Ilmiy adabiyotlar.

4. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari.1-5 jild. – Toshkent: Sharq, 2020. – 530.b.

5. Анохина Г.М. Принцип системности и вопросы адаптивной методологии в заданиях для контроля знаний студентов по медицине / Г.М. Анохина, Э.Н. Бессонова / Воронежск. гос. университет. Воронеж, 2020., № 3. -S.734-84.

6. Анохина Г.М. Идеи и принципы адаптивной педагогики / Г.М. Анохина. Воронеж: ВОИУУ, 2019. - 22 с.

7. Анохина Г.М. Адаптивная комплексная дидактическая игра как метод обучения в системе повышения квалификации учителей. Методические рекомендации / Г.М. Анохина. Воронеж: ВОИУУ, 2020. - 26 с.

8. Бордовская Н.В. Педагогика. Учебник для вузов / Н.В. Бордовская, А.А. Реан. Спб: Питер, 2022. - 297 с

9. Гребенев И.В. Дидактика предмета и методика обучения / И.В. Гребенев // Педагогика. 2023. - № 1. - С. 14-21.

10. Гужев В.В. Образовательная технология: от приёма до философии / В.В. Гужев. М.: Сентябрь, 2016. - 112 с.
11. Доровской А.И. Дидактические основы развития одарённости медицинских студентов / А.И. Доровской. Воронеж, 1997. - С. 12-48.
12. Кларин М.В. Инновации в адаптивной педагогике / М.В. Кларин. Рига: Витус, 2015. - С. 39-74.
13. Лаврикова Т.В. Практическая педагогика: технология адаптивной ориентации / Т.В. Лаврикова, В.И. Лещинский. Архангелск: Пресс А, 2021.-175 с.
14. Грандо, А.А. Врачебная этика и медицинская деонтология. 2-е издание. – Киев: Высшая школа, 1988. – 191.с.
15. Симонян Р. История медицины: с древнейших времен до современности. – Чебоксары: Среда, 2020. -209.с.
16. Слостенин, В.А. Формирование профессиональной культуры учителя: учеб. пособие / В.А. Слостенин. – М.: Прометей, 1993. -177.с.
17. Степанова, Л.А. Особенности профессиональной подготовки учителя в государственных учебных заведениях России (начало XX в.) / Л.А. Степанова // Педагогика. – 2011. № 3.– S. 85.
18. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M.X. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. –Toshkent: Fan, 2005. – 206.b.
19. Usmonxo‘jayev A. Tibbiyot xodimlari ma‘naviyati. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. – 276.b.
20. Xalikov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. – Toshkent: Iqtisod moliya, 2012. – 424.b.

### **III. Ilmiy maqolalar.**

21. Baxriyeva N. Ta‘lim muassasalari mutaxassisleri kasbiy kompetentligining tuzilishi // Sovremennoye obrazovaniye, 2019. № 9 (82). – В.7
22. Дахин А.Н. Педагогическое моделирование и компетентность участников образования // Образовательные технологии. – Москва, 2021.№ 6. – С. 64-73.

23. Дианкина М.С. Профессионализм преподавателя высшей медицинской школы. - М., 2000., дис. ... канд. пед. наук. - С-Петербург, 2007. – С.158
24. Ядровская М.В. Модели в педагогике // Вестник Томского университета, 2013, №3. -С. 139-143.
25. Dalton B, Jon C. Sareer and Salling: Finding a Place for the Spirit in Work and the Community // The Implisations of Student Spirituality for Student Affairs Prastice. 2022. № 3. –P.17-26.
26. Fatovic-Ferensic S. The history of medisine teaching program in Croatia. Asademic Medicine, 2003. №78 (10). – P.1028–1030.
27. Howell JD. An elestive sourse in medical history. Asademic Medisine, 1991. №11. –P.139.
28. Jones DS, Greene JA, Duffin J, Warner J. Making the sase for history in medisal education // Journal History of Medicine Aprlied Ssiences. 2014. №70 (4). –P.623–652.
29. Jones, David S., Jeremy A. Greene, Jasalyn Duffin, and John Harley Warner. Making the Sase for History in Medisal Edusation // Journal of the History of Medisine and Aprlied Ssiences, 2022. № 4. – P.623–652.
30. Maskowiak PA, Parker D, Croft LD. The Sase for Medisal History in Physisians' Edusation: A Survey of What Physicians and Physicians-in-Training Think // Journal of Medisine, 2017. № 4. – P. 494–497.
31. Taylor N. Health edusation in sontext: An international perspestive on health edusation in tertiary edusation and local communities. – Hamilton: Sense publishers, 2022. – p.261.
32. Marcel Pomohasi, Sopa Ioan-Sabin, Lusian Blaga. The Importance of Anthropometry Measurements in Analyzing the Impact of Tibbiyots Astivities on Students // Land Forces Asademy Review 22 (1), March 2017. – P.126-132.
33. Liliana-Elisabeta Radua, Fatih Hazarb, Alexandru-Rareş Punic. Anthropometric and Physisal Fitness Characteristiss of University Students // Procedia - Sosial and Behavioral Sciences, № 149, 2014. -R. 798 – 802.

34. Filipe Rodrigues. Anthropometric Measures, Muscle Resistance, and Balance in Physically Active students // Physical Activity and Exercise: Prescription, Measurement, and Testing. № 6, 2021. -P.123-149.

35. Vania Brandão Loureiro, Arlindo Morais, João Leal. Anthropometric Measures, Aerobic and Muscular Fitness: Effect of An Exercise Program Applied in High School Context // Journal of Tibbiyot and Health Research 12(3), October 2020. -P. 374-383.

36. Jarosław Fugiel, Katarzyna Kochan-Jacheć, Dawid Koźlenia and Jarosław Domaradzki. Changes in Anthropometric Measurements and Physical Fitness of Polish Students in 20-Year Period // International Journal of Environmental research of Public Health 2022, № 19 (24). - P. 45-69.

37. Otajonova S. Methodological system for improving the pedagogical competence of future biology teachers // International scientific journal. №2, 2023. -P.303

38. Cook, D. A., & Triola, M. M. Virtual Patients: A Critical Analysis of the Literature // Medical Education. №2, 2023. -P.115-119.

39. Ellaway, R. H., & Topps, D. Exploring the Digital Divide: The Impact of Digital Technologies on Medical Education // Medical Education Online, 2023. - P.169.

40. Harden, R. M., & Laidlaw, J. M. Essential Skills for a Medical Teacher. - Amsterdam: Elsevier, 2021. -P.59

41. Issenberg, S. B. The State of Simulation-based Medical Education // Medical Teacher, № 5. -P.228-235

### **Dissertatsiya va avtoreferatlar**

42. Alliyarov A.D. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish: 13.00.01 – pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tapixi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent, 2019. – B.29.

43. Asadov Yu.M. Индивидуально-психологические особенности учителя как факторы развития профессионализма Автопепф. дис. канд. психол. наук. – Ташкент, 2007. – Б.25.
44. Баяни М. Н. Формирование Валеологической компетентности будущего учителя-бакалавра: Дисс. ... канд. пед. наук. - Алметевск, 2006.- С.148.
45. Бописэнко Э.Н. Педагогическое сопровождение формирования социальной компетентности студентов вузов: Дисс... докт. пед. наук.– Кемепово, /2013. – С.193.
46. Дианкина М.С. Профессионализм преподавателя высшей медицинской школы. - М., 2000., дис. ... канд. пед. наук. - S-Петербург, 2007. – 276 с.
47. Жуковская Н.А. Технология пазвития нпавственных качеств в профессиональной подготовке студентов медисинского колледжа: дис. канд. пед. наук: 13.00.08 / Н.А.Жуковская. – Сапатов, 2002. – с.224.).
48. Ермакова, Р.Б. Гигиенические методы преподавания и педагогические подходы в обучении. Дисс...канд.мед.наук. -Москва, 2021. -с.245.
49. Лебедева, Н.В. Методика преподавания гигиенических дисциплин в медицинских вузах. Дисс...канд.мед.наук. -Санкт Петербург, 2018. -с.196.
50. Сидоров, В.П. Инновационные технологии в преподавании гигиенических дисциплин. Дисс...канд.мед.наук. -Москва, 2019. -с.186.
51. Павлов, А.Г. Совершенствование методов преподавания гигиены в медицинских учебных заведениях. Дисс...канд.мед.наук. -Томск, 2023. -с.193.
52. Фёдорова, И.В. Модернизация образовательных технологий в преподавании гигиенического цикла. Дисс... канд.мед.наук. -Нижегородск, 2018. -с.214
53. Иванова, С.А. Современные подходы к преподаванию профилактической гигиены и санитарии. Дисс...канд.мед.наук. -Казань, 2019. -с.179.

44. Kadirova M. Tibbiy ta'lim jarayonida kasbiy kompetentlikni metodik takomillashtirish texnologiyalari (tibbiyotda pedagogikani o'qitish misolida). Pedagogika fanlari doktori ... diss. – N., 2023. – B.202.

55. Ковелина Т.А. Обпаз врача в культуре: дис... доктор философ.наук. – Постов., 2006. – С.296.

56. Московченко О.Н. Оптимизация физических нагрузок на основе индивидуальной диагностики адаптивного состояния у занимающихся физической культурой и спортом: с применением компьютерных технологий. Дисс... доктор педагогических наук. Москва, 2007. -С.125

57. Томилова, М.В. Содержание и методы повышения квалификации специалистов по адаптивной физической культуре. Дисс...кандидат ист.наук. - Санкт-Петербург, 2014. -С.159

58. Храмов, Владимир Владимирович. Адаптивная физическая культура и спорт: социальные проблемы реабилитации. Дисс...доктор медицинских наук. -Волгоград., 2008. -С.147.

59. Носипов К.Ж. Идеи мыслителей Средней Азии IX-X веков о нравственном воспитании: Автопед.дiss.канд.пед.наук. –Тошкент, 2000. – 22с.

60. Плакцина О.А..Формирование ценностного отношения к здорового образа жизни у студентов педагогических специальностей университета: Дис ... канд. пед. наук: - Пязан, 2008. - 298 с.

61. Po'latova Sh. Tibbiy ta'lim talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi. Pedagogika fanlari nomzodi (PhD) ... diss. – Namangan., 2022. – B.158.

62. Популо Г. М. Педагогические условия формирования здорового образа жизни студентов в зависимости от психологических свойств личности. Дис. ... канд. пед. наук. – Самара, 2006. – 173 с.

63. Пахимова Ю.Э. Формирование профессиональной компетентности учащихся медицинских колледжей. Автореферат дисс. канд. пед. наук.

- Тошкент, 2012. 24-с.

6

4

65. Kadirova M. Tibbiy ta'lim jarayonida kasbiy kompetentlikni metodik takomillashtirish texnologiyalari (tibbiyotda pedagogikani o'qitish misolida). Pedagogika fanlari doktori ... diss. – Namangan., 2023. – B. 215.

66. Usmonaliyev I. Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetentligini Gigiyena iy tafakkur asosida takomillashtirish. Gigiyena fanlari nomzodi (PhD) ... diss – Farg'ona., 2023. – 55 b.

67. Egamberdiyeva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (Pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida): Ped. fan. dokt. diss. Toshkent, 2010. – 332 b.

68. Юзликаев Ф.П. Теория и практика интенсификации дидактического процесса в профилирующих факультетах подготовки будущих учителей в педагогических вузах (на примере факультета подготовки учителей в педагогическом университете). Pedagogika fanlari nomzodi (PhD) ... diss. dokt. refekat. Toshkent, 2005. – 36с.

### Adabiyotlar

69. Bynum W. The History of Medicine: A Very Short Introduction. – London: OUP Oxford, 2018. -p.184

70. Jaskson M. The Oxford handbook of the history of medicine. – New York: Oxford university press, 2019. – p.635.

71. Joy R. Morris L, Sshroeder M, Warner M. The history of the development of the history of medicine and its teaching in the United States. - Illinois: Wood Library-Museum of Anesthesiology, 2014. – p.170.

72. Kazanjian V, Peter L. Education as Transformation: Religious Pluralism, Spirituality, & a New Vision for Higher Education in Amerisa. - New York: 2016. Peter Lang. – 319.p.

73. Kuchner H, Leighton L. Humanities in the Twenty-First Century.

- London: Palgrave Macmillan, 2018. -p.136.

74. Magner M., Kim J. An intensive physical education. – Washington: Taylor & Francis group, 2018. – p.417.

75. Bennett, L. Teaching Hygiene in Medical Education: Interactive Approaches. -Oxford: Oxford University Press. 2023. -P.145.

76. Royce, W. (2012). Medical Hygiene: From Theory to Practice. - New York: Springer Science, 2021. -P.245.

77. Taylor, S. Innovative Methods in Teaching Hygiene in Medical Schools. - London: Elsevier,2023. -P.325.

78. Graham, L. Hygiene Education and Community Health Practices. - Cambridge: Cambridge University Press, 2019. -P.278.

79. Smith, J. Health Education and Hygiene: A Guide for Medical Educators. Philadelphia: W.B. Saunders Company, 2020. -P.159.

80. Williams, M. (2017). Hygiene in Medical Education: Bridging Theory and Practice. - New York: Springer,2022. -P.560.

81. Klein, P. (2014). Sanitation and Hygiene in Medical Practice. - Berlin: De Gruyter, 2018. -P.341.

82. Lee, S.Y. Teaching Hygiene in East Asian Medical Education Systems. - Seoul: Seoul University Press, 2022. -P.322.

83. Wang, X. Public Health and Hygiene Education in China: A Modern Approach. - Beijing: China Medical Publishing House, 2023. -P.218.

84. Chakrabarti, R. Hygiene Education and Its Importance in Preventive Medicine in India. - New Delhi: Sage India, 2019.-P.456.

85. Nguyen, P.T. Hygiene Education Programs in Vietnamese Medical Universities. -Hanoi: Vietnam Health Publishing, 2020. -P.199.